



# ISLOM MA'RIFATI

№1  
2023

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutining  
ilmiy-adabiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali





# ISLOM MA'RIFATI

№1  
2023

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutining  
ilmiy-adabiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali





**Muassis:**

**Imom Buxoriy nomidagi Toshkent  
islom instituti**

**TAHRIR HAY'ATI**

**Shayx Nuriddin XOLIQAQAZAR**  
*O'zbekiston musulmonlari idorasi  
raisi, muftiy. O'zbekiston xalqaro  
islom akademiyasi faxriy doktori*

**Muzaffar KOMILOV**  
*Tarix fanlari nomzodi*

**Davronbek MAXSUDOV**  
*Tarix fanlari doktori (DSc), professor*

**Uyg'un G'OFUROV**  
*O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi o'rinbosari*

**Ilhom BEKMIRZAYEV**  
*Tarix fanlari doktori (DSc), professor*

**Nurboy JABBOROV**  
*Filologiya fanlari doktori, professor*

**Ne'matullo MUHAMEDOV**  
*Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent*

**Qo'ldosh PARDAYEV**  
*Filologiya fanlari doktori (DSc)*

**Ahmad Sa'd DAMANHURIY**  
*Ilohiyot fanlari doktori*

**Saidjamol MASAYITOV**  
*Islomshunoslik fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)*

**Saidahmadxon G'AYBULLAYEV**  
*Islomshunoslik fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)*

**Abdurasul ABDULLAYEV**  
*Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Azizxo'ja INOYATOV**  
*Islomshunoslik fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)*

**Nasriddin MIRZAYEV**  
*Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Nashr uchun mas'ullar:**

*Bosh muharir:*  
**Muhammadolim MUHAMMADSIDDIQOV**

*Bosh muharrir o'rinbosari:*  
**Soatmurot PRIMOV**

*Adabiy muharrir:*  
**G'ulom BOBOJONOV**

*Mas'ul kotib:*  
**Ma'murjon ERKAYEV**

*Sahifalovchi-dizayner:*  
**Sobirjon TUNGATOV**

*Xorijiy tildagi matnlar muharrirlari:*  
**Ulug'bek HASANOV, Dilshod NOSIROV,  
Ozoda VALIYEVA**

2023-yil 26-aprelda ro'yxatga olingan.  
Guvohnoma raqami №077254.

Bosmaxonaga 2023-yil 16-avgustda topshirildi.  
Bosishga 2023-yil 17-avgustda ruxsat etildi.

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha  
qo'mitaning 2023-yil 2 avgustdagi 02-02/6204-sonli  
xulosa xatiga asosan tayyorlandi.

100002, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri,  
Olmazor tumani, Zaraqaynar 18-berk ko'cha, 47-uy.

Tel.: +998-71-227-42-37  
[e-mail: islom-instituti@umail.uz](mailto:islom-instituti@umail.uz)

Qog'oz bichimi 60x84 1/8.  
Adadi 50 nusxa. -sonli buyurtma.  
Bahosi kelishilgan narxda.

"MUHARRIR NASHRIYOTI" MCHJ  
bosmaxonasida bosildi.  
Bosmaxona manzili: 100185, Toshkent shahri,  
Chilonzor tumani, 20 a-mavze,  
So'galli ota ko'chasi, 5-uy.  
Elektron manzil: muharrir@list.ru

Qo'lyozmalar qaytarilmaydi, javob yozilmaydi.  
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan  
farq qilishi mumkin.  
Keltirilgan iqtibos va raqamlar uchun muallif mas'ul.  
Xat yuborilganida ismlar to'liq, manzil aniq yozilsin.

**Maqolalar ko'chirib bosilsa yoki iqtibos olinsa,  
"Islom ma'rifati" dan olingani ko'rsatilishi shart.**

## MUNDARIJA

Nuriddin Xoliqnazarov.	
<b>Ilmu ma'rifat – mustahkam tayanchimizdir</b> .....	4
Muhammadolim Muhammadsiddiqov.	
<b>Professional ta'lim – yangi islohotlar arafasida</b> .....	6

## ISLOM HUQUQI

Mavjuda Rajabova.	
<b>Islom huquqining rivoji: ilmiy-nazariy tahlil</b> .....	9
Ilhomjon Bekmirzayev.	
<b>Abu Nasr Samarqandiy va uning islom huquqida hujjat yuritish ishlariga doir asarlari</b> .....	14
Saidjamol Masayitov.	
<b>Movarounnahr muhaddislarining meros ilmiga qo'shgan hissalar</b> .....	19
Saidahmadxon G'aybullayev.	
<b>"Usulul Pazdaviy" asarning hanafiy usulul fihi rivojiga ta'siri</b> .....	23
Ma'murjon Erkayev.	
<b>Islom huquqida oriya masalasi</b> .....	29
Ilhomjon G'ofurov.	
<b>Jaloliddin Xorazmiyning ilmiy merosi</b> .....	36

## QUR'ONSHUNOSLIK

Davronbek Maxsudov.	
<b>Islom tarixida oqimlar tafsirlarining paydo bo'lishi va ulardagi farqlar</b> .....	41

## TILSHUNOSLIK

Shihata Abdurazzoq Abu Shusha.	
<b>العربية السكاكي أحد أئمة البلاغة الإمام</b> .....	49
<i>(Imam Sakkoki is one of the scientist of balogat)</i>	

## MANBASHUNOSLIK

Nurboy Jabborov.	
<b>Alisher Navoiy va islom ma'rifati</b> .....	60
Hamidulloh Aminov.	
<b>Mavlaviy Abulmakorimning "Sharhun Niqoya" asarining ikki qo'lyozma nusxasi haqida</b> .....	67
Nozima Ibragimova.	
<b>The personality of ambassadors credited in the sources</b> .....	71

## ISLOM IQTISODIYOTI

Alijon Ravshanov.	
<b>Islom investitsiya fondlari faoliyatining fihiy asoslari</b> .....	79



Nuriddin XOLIQNAZAROV,  
O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy.  
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faxriy doktori

# ILMU MA'RIFAT – MUSTAHKAM TAYANCHIMIZDIR

*Bismillahir Rohmanir Rohim!*  
*Alloh taologa cheksiz hamdu sanolar,*  
*Payg'ambarimiz Muhammad mustafo*  
*(sollallohu alayhi va sallam)ga behisob*  
*salavotu salomlar bo'lsin!*

Alhamdulillah, so'nggi yillarda islom ilmlarini tadqiq qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, diniy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan islohotlardan yurtimiz aholisi ham, xorijlik ma'rifatparvar insonlar ham mamnun. Jumladan, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Mir Arab oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari hamda kalom, hadis, aqida, tasavvuf, fiqh ilmlariga ixtisoslashgan 5 ta ilmiy maktabning faoliyati kelgusida o'lkamizdan yana buxoriylar, termiziylar, nasafiylar, naqshbandiylar yetishib chiqishiga zamin bo'ladi, insha Alloh.

Haqiqatan, O'zbekiston diniy ta'lim tizimi o'zining qadim va o'lmas an'alariga ega. O'rta asrlardayoq Buxoro o'zining madrasalari va ulamolari bilan shuhrat qozonib, haqli ravishda "Islom olamining quvvati" unvoniga sazovor bo'lgan. Samarqand va Buxoroda Mirzo Ulug'bek qurdirgan madrasalar o'rta asrlarning dorulfununlari vazifasini bajargan.

Hozirgi murakkab globallashuv sharoitida xalqimiz, ayniqsa, yoshlarga islom dini mohiyatini to'g'ri tushuntirib berish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, diniy ta'lim sifatini yanada oshirish, zaminimizdagi qadimiy diniy ta'lim an'analari va ilg'or xalqaro tajribani

o'rganish hamda yurtimizda diniy ta'lim muassasalarida tatbiq etish kabilar juda muhim vazifalardir.

Bugungi kunda Respublikada faoliyat olib borayotgan oliy va o'rta maxsus diniy ta'lim muassasalarini yuqori malakali ilmiy kadrlar bilan ta'minlash, mutaxassislarning ilmiy va kasbiy salohiyatini oshirish, Qur'on, tafsir, kalom, hadis va fiqh ilmlari mutaxassisliklari bo'yicha magistrnlarni, ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash maqsadida juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 50 yildan ziyod tarixga ega Toshkent islom institutida yuzlab talabalar tahsil olmoqda. Ularga ilm o'rgatayotgan 93 nafar o'qituvchi orasida fan doktorlari, fan nomzodlari, falsafa doktorlari va magistr ilmiy darajasiga ega bo'lganlar bor.

1971-yil 1-oktyabrdan faoliyat boshlagan, sobiq ittifoqda yagona oliy islom ta'lim maskani bo'lgan Toshkent islom institutida o'z vaqtida Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Shimoliy Kavkaz, Rossiya, Ozarbayjon, Tatariston, Afg'oniston, Yaman, Vetnam, Bolgariya kabi mamlakatlardan kelgan talabalar ham tahsil olishgan. Shuningdek, Ahmad Qodirov, shayx Tal'at Tojiddin, shayxulislom Ollohshukur Poshshozoda hamda yurtimizdan shayx Abdulaziz Mansur, shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Abdurashid qori Bahromov, shayx Usmonxon Temurxon o'g'li kabi mashhur olimlar, din va davlat arboblari ushbu ta'lim maskanining bitiruvchilari hisoblanadi.

Institutning asosiy maqsadi, islom dini asoslarini o'zlashtirgan, shar'iy ilmlarni puxta egallagan, insonparvarlik va Vatanga

sadoqat ruhida tarbiya topgan, yuksak ma'naviy fazilatlariga ega, diniy va dunyoviy fanlarni puxta o'zlashtirgan oliy ma'lumotli islomshunos, imom-xatib va arab tili o'qituvchilarini tayyorlashdan iboratdir.

Darhaqiqat, din ilmlarini puxta o'rganish muhim ekanini Hazrat Navoiy quyidagicha ta'riflaganlar:

*Bu din ilmiki xomam qildi tahrir,  
Erur fiqhu hadisu so'ngra tafsir.  
Chu takmil o'ldi bu uch ilm, sen bil,  
Yana har ilm maylin qilma, yo qil.*

Azaldan ilmu ma'rifat markazi bo'lib kelgan zaminimizda ilm dargohlariga juda katta e'tibor qilinmoqda. Mukammal ilm o'chog'i hisoblangan yurtida ilmga yangicha yondashuv, o'zgacha kuch bilan kirishilsa, u darhol gurkirab, rivojlanib ketadi.

Islom dini jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi har qanday ilmiy tadqiqot va yangilikni qo'llab-quvvatlaydi. Buni oyati karimalar va hadisi shariflar ham tasdiqlaydi. Qur'oni karimda "ilm" so'zi 811 o'rinda turli ma'nolarda keladi. Jumladan, ilm egalari shunday madh etiladi: **"Alloh sizlardan iymon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba) larga ko'tarur"** (*Mujodala surasi, 11-oyat*).

Hazrati Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) ko'p hadisi shariflarida ilm olishga da'vat qilganlar. **"Avvalo, olim bo'! Loaqal, ta'lim oluvchi yoki ularni sevuvchi yoxud ularga ergashuvchi bo'lgin. Ammo beshinchi odam (mazkur to'rt xislatdan tashqaridagi) bo'lmaginki, halok bo'lursan"** (*Imom Bayhaqiy rivoyati*), deya ilmning darajasi naqadar ulug' ekanini ifoda etganlar.

Yana bir hadisi sharifda Hazrati Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam): **"Kim dunyoni xohlasa, tijorat qilsin, kimki oxiratni xohlasa, zohid bo'lsin, kimki ikkisini ham xohlasa, ilm olsin"**, deya marhamat qilganlar.

Toshkent islom instituti jamoasi qariyb ellik yildan beri dinimiz ta'limotida ko'rsatilgan ana shu vazifani bajarish yo'lidagi kamarbasta bo'lib kelmoqda. O'tgan

yillar davomida institutning o'quv-tarbiya jarayonlari takomillashuvi, pedagogik va ilmiy salohiyati yanada taraqqiy etishi, moddiy-texnik bazasini kengaytirish, talabalar sonini oshirish bo'yicha yangi-yangi dasturlar ishlab chiqildi. Hozirda institut nafaqat mamlakatimizdagi, balki Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ham e'tiborli ilm dargohiga aynalib ulgurdi. Buni institutning xalqaro maydondagi faoliyati ham yaqqol ko'rsatib turibdi.

Endilikda esa, institut jamoasi yana bir xayrli ishga qo'l urgani barcha ilm-ma'rifat ahlini mamnun etishi tabiiy. Toshkent islom instituti muassisligida ilmiy-tadqiqot ishlari, yurtimiz olimu tadqiqotchilarining ilmiy-tahliliy maqolalarini nashr etishga mo'ljallangan ushbu "Islom ma'rifati" nomli ilmiy-adabiy, diniy-ma'rifiy jurnali ta'sis qilinib, uning birinchi soni chop etilishi tarixiy voqeadir. Yangi nashr Islom dinining asl mohiyatini anglatish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, ulamolar va ilohiyotchi olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni yoritish yo'lidagi yangi minbar bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, jurnalda Qur'on va hadis ilmlari, fiqh, kalam, islom tarixi, ilmiy manbalar tahlili va boshqa diniy-ma'rifiy mavzularda maqolalar chop etilib, xalqimiz ma'rifati yuksalishi, tolibi ilmlar bilimi ortishiga zamin bo'ladi. Bundan tashqari, yurtimiz ilmiy salohiyati, ajdodlarimizning boy ma'rifiy merosini xalqimizga taqdim etishga katta imkon beradi.

Bunday ilmiy jurnal bugungi jarayonlarda islom dinining sof mohiyatini ilmiy tahlil qilib berish va keng jamoatchilikka yetkazishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur xalqaro jurnal boshqa davlatlardagi olim va izlanuvchilar bilan ilmiy hamkorligimizni yanada mustahkamlashda o'ziga xos minbar bo'lib xizmat qilishini umid qilamiz.

Alloh taolo "Islom ma'rifati" jurnalini barchamiz uchun muborak qilsin, jurnal ijodkorlariga Yaratgandan kuch-quvvat, ilmlariga baraka tilab qolaman.



**Muhammadolim MUHAMMADSIDDIQOV,**  
*Toshkent islom instituti rektori,*  
*siyosiy fanlar doktori, professor*

## PROFESSIONAL TA'LIM – YANGI ISLOHOTLAR ARAFASIDA

*Markaziy Osiyo, Kavkazorti va Shimoliy Kavkaz davlatlarida katta ahamiyatga ega bo'lgan Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti ellik yildan ortiq ilmiy salohiyatga ega oliy ta'lim dargohi hisoblanadi. O'tgan yillar ichida institutning nufuzi muttasil oshib, rivojlanib bordi. Bugun esa, mazkur ta'lim muassasasi katta islohotlar arafasida turibdi.*

1971-yili bu oliy dargohning ochilishida muftiy Ziyouddinxon ibn Eshon Boboxon hazratlari: “Biz bu ilmiy dargohni ochar ekanmiz, o'z oldimizga turli sohalardagi diniy va zamonaviy ilmlarni yaxshi egalagan, muqaddas dinimiz uchun zarur bo'lgan bilimdon diniy xizmatchilarni tayyorlashni asosiy vazifa qilib qo'yamiz”, degan edilar. Institut o'tgan yarim asrdan ziyod vaqt mobaynida ana shu maqsad yo'lida qat'iy faoliyat olib bordi. Mintaqadagi ilk islomiy diniy oliy ta'lim muassasasi sifatida o'ndan ortiq davlatlarning talaba-yoshlari islom ilmlarini puxta egallagan mutaxassislar bo'lib yetishishida o'ziga xos hissa qo'shib keldi.

Institutning asosiy maqsadi islom ilmlari va asoslarini chuqur egallagan, dinlar tarixi va nazariyasini o'zlashtirgan, insonparvarlik va Vatanga sadoqat ruhida tarbiya topgan, yuksak ma'naviy fazilatlariga ega bo'lgan, sof islomiy e'tiqod bilan yo'g'rilgan oliy ma'lumotli diniy kadrlar tayyorlashdan iborat. Institutda ilmiy salohiyati yuqori, tajribali ustozlar tomonidan asl manbalar asosida professional diniy ta'lim berilmoqda.

Bugungi kunda institutda jami 5 ta: Aqid va fihqiy fanlar, Hadis va islom tarixi fanlari, Tillar, Tahfizul Qur'on va Ijtimoiy fanlar kafedralari faoliyat ko'rsatmoqda. Talabalarga 93 nafar professor-o'qituvchi saboq bermoqda. Ulardan 2 nafari fan doktori, 10 nafari fan nomzodi va falsafa doktori, 81 nafari magistr ilmiy darajasiga ega hisoblanadi. Professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatini yuksaltirish maqsadida 14 nafar pedogog O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti hamda Davlat adabiyot muzeyida tayanch doktoranturada ta'lim olib, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. Yana 2 nafar professor-o'qituvchi Germaniyaning Ruprext-Karl nomidagi Geydelberg universiteti va O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida doktoranturada ta'lim olmoqda. 6 nafar professor-o'qituvchimiz O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida mustaqil izlanuvchi bo'lib ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishyapti.

Bir jihatni alohida ta'kidlash joizki, institut professor-o'qituvchilari mamlakatimizdagi izchil islohotlarning faol targ'ibotchisi sifatida faoliyat yuritib kelayotgan ma'naviyat peshvolari, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash olib boruvchi jonkuyar ustozlar sanaladi. Respublikamiz miqyosida taniqli bo'lgan yetuk voizlar, soha bo'yicha katta yutuqlarni qo'lga kiritgan zabardast olimlar, bir qancha nodir ilmiy manbalarni tarjima qilib, o'zbek kitobxonlariga taqdim etgan mahoratli tarjimonlar, diniy-

ma'rifiy materiallar yuzasidan malakali ekspertlar Toshkent islom instituti professor-o'qituvchilari jamoasiga mansub ekanini biz hamisha mamnuniyat bilan tilga olamiz. So'ngi yillarda institutimiz professor-o'qituvchilarining 63 ta darslik, monografiya, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma va tarjima kitoblari nashrdan chiqdi. Shuningdek, turli nufuzli xorijiy va mahalliy ilmiy jurnallarda institutimiz ustoqlarining dolzarb mavzulardagi jami 95 ta ilmiy maqolasi e'lon qilindi.

Institutning xalqaro hamkorlik borasidagi faoliyati ham alohida diqqatga sazovor. Oliy ma'had sifatida tashkil qilinganidan boshlab o'nlab davlatlarga oliy ma'lumotli yetuk mutaxassislar yetishtirib bergan dargoh bugungi kunga kelib, o'ndan ortiq xalqaro ilmiy muassasalar bilan samarali ilmiy faoliyatni yo'lga qo'ygan. Ular bilan ikki tomonlama manfaatli munosabatlar institut ilmiy potensialini yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent islom instituti xorijiy va mahalliy miqyosdagi 11 ta ilmiy-tadqiqot markazlari va ta'lim muassasalari bilan ilmiy hamkorlik olib bormoqda.

Institut talabalarining ta'lim jarayonida va ilmiy sohada erishayotgan natijalari ham alohida e'tirofqa sazovordir. Oxirgi bir yil davomida talabalarimiz xorijiy davlatlarda o'tkazilgan bir qancha musobaqalarda ishtirok etib, nufuzli o'rinlarni qo'lga kiritib qaytishdi. Xususan, 2022-yilda Rossiya Federatsiyasi poytaxti Moskva shahrida o'tkazilgan XX Xalqaro Qur'on musobaqasida Toshkent islom instituti Qur'oni karim va tajvid o'quv kursi bo'lim boshlig'i, Tahfizul Qur'on kafedrasi o'qituvchisi Jahongir qori Ro'ziyev ishtirok etdi. Mazkur yili Qozon shahrida o'tkazilgan xalqaro Qur'on musobaqasida Toshkent islom instituti talabalari Muhammad Yusuf qori Homidov va Nozima Najmiddinova qatnashdilar. 2023-yil Iordaniya Hoshimiylar Qirolligida o'tkazilgan 30-xalqaro Qur'oni karim musobaqasida institut

talabasi Habibulloh qori Olimjonov 42 ta davlatdan qatnashgan qorilar bilan Qur'oni karimni tajvid qoidasi asosida hizf - yoddan o'qib berish yo'nalishi bo'yicha o'zaro raqobatlashdi va sovrinli o'rinni egalladi.

O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi oliy va o'rta maxsus islom ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Jaholatga qarshi ma'rifat" intellektual bellashuvining respublika bosqichida Toshkent islom institutining "Ma'rifat mash'ali" jamoasi faxrli o'rinni qo'lga kiritdi. Shuningdek, Toshkent islom instituti talabalari "Buxoro tajribasi" doirasida Toshkent viloyati va shahrining turli hududlarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, yoshlarni yot va nomaqbul g'oyalar ta'siridan saqlashga qaratilgan chora-tadbirlar vazifasiga muvofiq 900 dan ziyod tadbirlarda faol ishtirok etishdi.

Ramazon oyi mobaynida institutimizning 100 ga yaqin qorilari Toshkent viloyati va shahrida joylashgan masjidlarda Qur'on karim xatmini amalga oshirishdi. Shuningdek, institut media markazida tayyorlangan bir qancha ma'ruza, lavha, masofaviy dars va ma'rifiy suhbatlar aholi turli qatlamlarining islomiy ilmlar borasidagi sof ilmiy qarashlarini shakllantirish, ularni yot va g'arazli g'oyalar tahdididan munosib himoya qilish ishlariga samarali xizmat qilib kelmoqda. Mazkur faoliyatda institutning tajribali professor-o'qituvchilari bilan birga peshqadam talabalari ham jonbozlik ko'rsatishmoqda.

Joriy o'quv yilida institutning kunduzgi ta'lim shaklini 76 nafar (*shundan 10 nafari ayollar*), modul ta'lim shaklini 117 nafar talaba muvaffaqiyatli tugatishdi. Ular mamlakatimizning oliy ma'lumotli kadrlari safidan joy olib, endilikda o'z ustozlariga yelkadosh bo'lib, bilim va g'ayratlarini el-yurt farovonligi yo'lida sarflashni maqsad qilishgan.

Institutda eng muhim deb topilgan va asrlar davomida o'qitilib kelayotgan mashhur matn kitoblarni yodlash va





to'liq o'qib o'zlashtirish an'anasi izchil davom etib kelmoqda. Bu orqali talabalar zehnini mustahkamlash, ilmiy salohiyatini oshirish hamda o'zlashtirish ko'rsatkichini yuksaltirish maqsad qilingan. Bitiruvchilarimizning aksariyati Qur'oni karim (Osim qiroati), "Manzumatul muqaddima – Jazariy", "Tuhfatul atfol", "Sahihul Buxoriy", "Sunani Termiziy", "Shamoili Muhammadiyya", "Arbain", "Availus sunbuliyya", "Musalsalu avvaliyya", "Sharhi mulla Jomiy", "Makanatu Abi Hanifa va fiqhu ahli Iroq va hadisuhum" kitoblaridan ijoza sohibi hisoblanadi.

Bitiruvchi kurs talabalaridan 55 nafari "Sahihul Buxoriy", 40 nafari "Sunani Termiziy" kitobidan ijoza olgan. Shuningdek, 66 nafar bitiruvchidan 37 nafari hamda 10 nafar ayol bitiruvchidan 9 nafari Qur'oni karimni to'liq yod olgan. Buning amaliy ifodasi sifatida har yili institutimizning bir qancha talabarlari xorijiy davlatlarda o'tkaziladigan xalqaro Qur'on musobaqalarida hifz va mujavvidlik yo'nalishlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallab kelishmoqda.

Bugun insoniyat yanada sinovli bir davrni boshdan kechirmoqda. Tobora globallashib borayotgan dunyoda turli ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarning sarhad bilmas ta'sirlari har qanday hududga yoyilib borayotgani ham sir emas. Achinarlisi, mazkur g'arazli harakatlarning aksar qismi dinni niqob qilib olgan bir guruh fitnachilar tomonidan amalga oshirilmoqda. Sof diniy qarashlardan begona insonlarni o'z tuzog'iga ilintirishni ko'zlayotgan oqim va yo'nalishlardan keng jamoatchilikni ogoh etish va munosib himoyalash vazifasi bugun har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shunday murakkab vaziyatda katta tajriba va salohiyatga ega bo'lgan Toshkent islom instituti jamoasi

o'z faoliyatini yangicha yo'sinda davom ettirish yo'lidan bormoqda. Biz kelajakda islom ta'limotini ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan sof tarzda, moturidiy aqidasi va hanafiy fiqhini mahkam ushlagan holda ilmiy tadqiq qilish va yetkazishni maqsad qilganmiz. Talabalarga an'anaviy diniy ta'limning eng ilg'or tajribalarini o'rgatish barobarida bugungi kunimiz uchun muhim sanalgan kompyuter texnologiyalari, zamonaviy axborot va media resurslari, yuksak huquqiy savodxonlik, xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish, ma'naviy tahdidlarga qarshi faol kurash maydonida peshqadam bo'lish kabi jihatlarda ham ta'lim-tarbiya ishlarini jadalashtirishning o'quv-ta'limiy ishlari ko'zda tutilmoqda. Institutning xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshirish, ilmiy salohiyatini yuksaltirish, o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini ko'tarishda yangi rejalar ishlab chiqilmoqda. Bularni amalga oshirishda O'zbekiston Musulmonlari idorasi, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O'zbekiston fanlar akademiyasi, O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi, mamlakatimizda diniy sohada faoliyat yuritayotgan ilmiy markazlar bilan birgalikda istiqbolli faoliyatni belgilab olganmiz.

Yangi nashr sifatida taqdim etilayotgan ushbu "Islom ma'rifati" jurnali ana shu yo'lda boshlangan ishlarning kichik bir debochasi, xolos. Kelajakda mazkur ilmiy jurnal nafaqat institutimiz, balki respublika va xalqaro miqyosdagi olim va izlanuvchilar, islomshunos, dinshunos, filolog, tarixchi va faylasuflar uchun o'ziga xos katta bir ilmiy maydon bo'lishini maqsad qilganmiz. "Islom ma'rifati" jurnali jaholatga qarshi sof ilmiy nuqtai nazardan kurashishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi, degan umiddamiz.

**Mavjuda RAJABOVA,**  
Ichki ishlar vazirligi akademiyasining  
Jinoyat huquqi kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

# ISLOM HUQUQINING RIVOJI: ILMIY-NAZARIY TAHLIL

## DEVELOPMENT OF ISLAMIC LAW: SCIENTIFIC THEORETICAL ANALYSIS

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada islom huquqining rivoji, tarixiy-huquqiy jihatlari va uning mohiyatini tahlil qilishga, hozirgi holati, shuningdek O'zbekistonda islom huquqiga oid qator manbalarning, jumladan Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" asari tarjimasini amalga oshirilgani haqida tahlillar bayon qilingan.

**Tayanch so'zlar:** payg'ambar, din, islom, shariat, islom huquqi (fiqh), mazhab, jazo, jamiyat.

Bugungi davr nuqtai nazaridan baholaganda jahondagi mavjud davlatlarning (200 ortiq) huquq tizimlari ma'lum guruhlariga yoki huquq oilasiga bo'lingan. Ulardan eng ko'p tarqalgani hamda asosiysi, ya'ni birinchi guruhdagilari "romano-german yoki yevropa kontinental huquqi" deb nomlangan bo'lsa, ikkinchisi "umumiy huquq yoxud anglo-sakson huquq tizimi" deb yuritiladi. Bundan tashqari quyidagi huquq tizimlari ham ahamiyatga ega deb tasniflanadi. Ular jumlasiga:

- a) sotsialistik huquq;
- b) musulmon huquqi yoki islom huquqi;
- v) Hindiston huquqi;
- g) Xitoy va Yaponiya huquqi;
- d) Afrika va Madagaskar huquq tizimlari kiradi [1: 655-b.].

E'tiborli jihati shundan iboratki, musulmon huquqi yoki islom huquqi ayrim davlatlarda hozirga qadar qonunchilik manbai sifatida o'z nufuzini saqlab qolgani muhim ahamiyat kasb etib, bu islom huquqiga oid tadqiqotlarni amalga oshirishga zarurat borligidan dalolat beradi. Zero, islom huquqining (fiqh) paydo bo'lishi va rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bundan 14 asr ilga-

**Annotation.** The article deals with the historical and legal aspects of the evolution of Islamic law and its essence, as well as the study of unique sources on Islamic law in Uzbekistan, in particular the book "Khidaya" by Burkhoniddin Marginoni.

**Key words:** Sharia, Islamic law (fiqh), prophet, hadith, morality, generation, ancestors, responsibility.

ri Arabiston zaminida paydo bo'lgan islom davlatining huquqiy asosi hisoblanadi. Shuni unutmash kerakki, huquq kategoriyasi haqida so'z yuritganda uning davlat bilan o'zaro chambarchas bog'liq ekani e'tirof etiladi. Yanada soddaroq qilib ifodalaganda davlat va huquq bir tanganing ikki tomonidir.

Shu o'rinda islom huquqi hozirgi O'zbekiston davlati davlatchilik tarixining ildizi, huquqiy negizi ekanini qayd etish joiz. Zero, O'zbekiston Konstitutsiyasining muqaddamasi mazkur normativ-huquqiy hujjatni qabul qilishda "o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga" ham tayanilgani qayd etilgan. Sir emaski, o'tmishda yashagan ko'plab allomalar tomonidan yaratilgan qimmatli, noyob va nodir asarlar hozirgi davrda O'zbekistondagi kutubxonalarda saqlanmoqda va javonlarda huquqiy merosxo'rlari hisoblangan tadqiqotchilarni intizorlik bilan kutib turibdi.

Aholisining ko'pchiligi musulmonlardan iborat bo'lgan O'zbekiston Respublikasida zamonaviy davlatchilik dunyoviylik asosidagi Konstitutsiyaga binoan qabul qilingan qonunlarga tayangan bo'lib, asosiy Qomusda din davlatdan ajratilgan deyilgan bo'lsa-da,



aynan Qomusimizda har bir insonga vijdon va e'tiqod erkinligi huquqi kafolatlangani diniy bag'rikenglikdan darak beradi. Mazkur huquqni ta'minlanishida "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Islom huquqi islom ta'limotiga asoslangan islom davlatining asosiy mag'zini tashkil etadi. Islom dini paydo bo'lgan davrga nazar tashlasak, yettinchi asrning birinchi yarmida Arabiston yarim orolida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy o'zgarishlar o'sha makonda islom diniga asoslangan. Bu davrda arab qabilachiligi va urug'chiligiga asoslangan jamiyatda yemirilish ro'y berib, yangi siyosiy institut joriy etish imkoni tug'ilgan. O'ziga xos islom davlatining shakllanishi Allohning elchisi Muhammad alay-hissalomning bevosita rahbarliklari ostida kechgan. Payg'ambar tomonidan muqaddas islom dinining dasturiamal, ilohiy manbai hisoblangan Qur'oni karimdagi diniy, huquqiy va axloqiy g'oyalari, qoidalarni yigirma uch yil davomida asta-sekinlik, ya'ni evolyutsion tarzda ijtimoiy hayotga joriy etish orqali aholining ma'naviyatini islom g'oyalari va islom huquqiy normalari bilan boyishi va davlat mexanizmini yaratilishiga erishgan. Ayniqsa, Muhammad (*sollallohu alayhi va sallam*) tomonidan Madinada amalga oshirilgan soliq tizimini joriy etish, zakot, xayr-ehson, o'ljalar hisobidan davlat byudjeti (*baytul mol*) vujudga keltirilgani, tashqi va ichki dushmanlardan himoyalaniish maqsadida qo'shin tuzilgani, qo'mondonlik lavozimi ta'sis etilgani yoki davlat ramzi sifatida oq bayroqdan foydalanilgani huquqiy baholaganda davlatning belgilaridan darak beradi. Aynan islom davlatining huquqiy asoslari va qonunchigining manbaini Qur'on va Payg'ambar (*sollallohu alayhi va sallam*)ning sunnatlari tashkil etadi. Qur'ondagi diniy, huquqiy va axloqiy normalar o'sha davr ijtimoiy voqealari, jamiyatda ro'y bergan Payg'ambar (*sollallohu alayhi va sallam*) ishtirok etgan turli hodisalarga bevosita bog'liq bo'lgani hadis va tafsir kitoblaridan ma'lum va mashhurdir. Huquqiy nuqtai nazardan baholaganda, ilk islom davlatida jamiyatdagi ijtimoiy munosabat-

larga aloqador normalar ijtimoiy hayotning kechishiga ko'ra asta-sekinlik bilan shakllanib, ya'ni evolyutsion tarzda takomillashib, Muhammad (*sollallohu alayhi va sallam*) dan keyingi to'g'ri yo'lni tanlagan to'rt xalifa (*Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali*) davrida mukammallashgan.

Islom huquqi (*fiqh*)ning an'anaviy rivojlanishi va davriylik nuqtai nazardan tahlil qilganda uzoq muddatni, ya'ni 14 asrlik davrni bosib o'tib hozirgi holatda ham tadqiqot ob'yekti sifatida dunyo olimlarining nazari-dan chetda qolmayapti. Mazkur huquq tizimi quyidagi bosqichlarga bo'linib tadqiq qilingan. Jumladan:

1) Paydo bo'lish va shakllanish bosqichi. Bu Payg'ambar (*sollallohu alayhi va sallam*) yashagan va Qur'on nozil bo'lgan davrga to'g'ri keladi (610 – 632);

2) Qaror topish yoki o'rnatilish bosqichi. Birinchi to'g'ri yo'ldan borgan to'rt xalifa (*xulafoi roshidin*) davri (632 – 661);

3) Tuzilish bosqichi. Shomda umaviylar sulolasi taxtni egallab, xalifalikka boshchilik qilgan davrlar (661 – 750);

4) Gullab-yashnagan bosqich. Iroq abbosiylar xalifalari (750 – 1258) boshqaruvi;

5) Jamlash bosqichi. Misr abbosiylar xalifaligi (1258 – 1517);

6) Turg'unlik va qulash bosqichi. Usmonli turk xalifaligi davri (1517 – 1924).

Qayd etish o'rinliki, islom huquqi (*fiqh*) ni tarkibiy tuzilish jihatdan taxminan uch qismga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchisi, ibodatlarga taalluqli masalalar, ya'ni Alloh bilan bandalari o'rtasidagi munosabatlarga oid qonun-qoidalar; ikkinchisi, muomalot masalalari, ya'ni insonlar o'rtasidagi, shuningdek, davlat hokimiyatining fuqarolar bilan munosabati hamda boshqa dindagi aholi yoki davlatlar bilan o'zaro aloqalar; uchinchisi esa, jazolash yoki iqob yoxud uqubat [3: 62-64-b. ], ya'ni huquqbuzarlik uchun jazolash masalalari. Bir so'z bilan ifodalaganda, ibodat va muomala bilan bog'liq qonun-qoidalar yoki tartib-tamoyillarning buzilishi oqibatida kelib chiqadigan nizoli munosabatlarni hal etish yoki "jazo muqarrar" tamoyiliga rioya qilish demakdir.

E'tiborlisi shundaki, islom huquqi (*fiqh*) ning boshqa huquq tizimidan, misol uchun anglo-sakson (*Yevropava, AQSh*) yoki kontinental huquq (*Germaniya, Frantsiya va boshqalar*) tizimlaridan asosiy farqli jihati shundaki, islom huquqida huquqiy normalar, tartib-tamoyillar yoki qoidalar umumiy va bir butun yaxlit majmua sifatida ishlab chiqilgan, ya'ni universal xususiyatga ega [4: 18-b.]. Islom huquqida huquqiy normalar tuzilishi bo'yicha bir-biri bilan chambarchas uzviy bog'liq deb qaraladi va tarmoqqa ajratilmaydi. Qayd etish joizki, O'zbekistonda islom huquqi (*fiqh*) yoki shariat o'tgan asrning yigirma beshinchi yilligiga qadar davlat hokimiyati tuzilmalari, jumladan, qozilik amaliyotida qo'llanilgani bois milliy davlatchiligimizning huquq tarixi o'zagi deb qaraladi. Hozirgi kunda esa, jamiyatda milliy qadriyatlar va ma'naviyatning milliylik asosida yuksalishiga islom huquqining ibodatlariga oid qoidalarining ta'siri va o'rni beqiyos ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Islom huquqining yana bir muhim jihati uning fiqhiy mazhablarda aks etishidir. Sunniylik (*ahli sunna val jamoa*) qarashlarini o'z ichiga olgan ta'limot to'rtta huquqiy (*Hanafiy, Shofe'iy, Molikiy va Hanbaliy*) mazhab qoidalarini o'zida mujassamlashtiradi. Ularning har biri asoschilari tomonidan ishlab chiqilgan qoidalarga tayangan holda jamiyat hayotidagi huquqiy masalalarga javob topishda qo'l keladi. Tarixiy manbalarning tahlili to'rt mazhabning huquqiy ta'limoti birin-ketinlik bilan qariyb bir asrdan ortiq davrda (717 – 860) shakllanib maromiga yetgan. Ustozlar boshlagan huquqiy maktab shogirdlar tomonidan to'ldirilgan. Masalan, Hanafiy mazhabi Abu Hanifadan keyin uning eng iqtidorli shogirdlari tomonidan mukammal holatga keltirilgan. Ularning soni esa qirqaqa yaqin bo'lgan. Bu mazhab qonun-qoidalarining yengilligi, mahalliy urf-odatni hisobga olgani sabab ray ahli ham deyiladi. Boshqalari ahli hadis, faqat birinchi ikki manbaga tayangani bilan farq qiladi. Hozirgi davrda O'zbekistonda ibodatga oid masalalar aynan Hanafiy mazhabi asosida hal etiladi.

Islom huquqida Qur'oni karim va Payg'ambarimiz Muhammad (*sollallohu alayhi va sallam*) sunnatlari shariatning ikki asosiy manbasi hisoblanadi. Mazkur manbalarda huquqqa oid qoidalar zamonlar osha yoki makonlar o'zgarishi bilan takomillashib kelgan. Huquqiy maktablarning shakllanishiga ham jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning o'zgaruvchanlik xususiyatini inobatga olishga to'g'ri keladi. Ayniqsa, Payg'ambarimiz Muhammad (*sollallohu alayhi va sallam*) vafotlaridan so'ng asosiy ikki manba bilan tartibga solishning imkoni bo'lmagan yangi munosabatlarning huquqiy yechimini topishda xatoga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rib borish zarurati tug'ilgan. Chunki islom davlati hudud jihatdan izchillik bilan kengaya borib, Movarounnahrqa yetib kelgan [5: 718-b.]. Tabiiyki, bir necha jamiyatning bir davlatga birlashishi alohida olganda bir-biridan farq qiluvchi ijtimoiy hayotdagi dolzarb muammolarning huquqiy yechimini topishni taqozo etgan. Shu boisdan mazhab asoschilarining e'tibori Qur'oni karim va sunnatdan keyin ijmo' hamda qiyosni ham asosiy manbalar deb, shuningdek, fiqhga oid qator qo'shimcha usullarni qo'llab yangi-yangi huquqiy qoidalarini ishlab chiqishga qaratilgan. Huquqiy jihatdan tahlil qilganda, mazhablar ta'limotidagi qoidalar bir-biridan tubdan farq qilmaydi. Ammo biron-bir masalaga huquqiy ta'rif yoki tasnif berishda yoki tushunchalarni ifodalashda o'ziga xoslik mavjud.

Quvonarlisi shundaki, mustaqillik yillarida, ayniqsa, oxirgi yillarda yangi O'zbekistonda davlatchilik asoslarini isloh qilishga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, "insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish"ga kirishilgan, bu jarayonni to'la-to'kis bo'lishini ta'minlash uchun ajdodlarga munosib huquqiy vorislar bo'lish uchun islom huquqiga oid manbalarni batafsil o'rganish kun tartibidagi dolzarb masala hisoblanadi. Umid qilamizki, bundan-da sifatli va samarali natijalarga erishiladi. Huquqiy va ma'naviy yo'nalishdagi islohotlarda muvaffaqiyatlarga erishishimizda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan qabul qilingan qator normativ-huquqiy



hujjatlar asosiy o'rin egallaydi. Ayniqsa, yaqin yillarda tashkil etilgan islom ta'limoti, jumladan, islom huquqi (*fiqh*)ni o'rganishga moslashgan tadqiqot markazlari, oliy ta'lim muassasalarining shu yo'nalishdagi tadqiqotchilari tomonidan islom huquqiga bag'ishlangan dissertatsiyalar bo'yicha himoyalar fikrimizga dalil bo'ladi. Tadqiqotlar asnosida islom huquqiga oid ko'plab asarlar arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinayotgani ham quvonarli holdir.

Islom huquqining rivojida o'chmas iz qoldirgan "Hidoya" asarining hozirgi paytda davom ettirilayotgan o'zbek tilidagi tarjimasi, aniqrog'i, tarjimonlarning tarjima madaniyati haqida qisqacha fikr bildirmoqchiman. Yodingizda bo'lsa, o'tgan asrning 90-yillarida, ya'ni mustaqillikka erishganimizda "milliy o'zlikni anglash" shiori ostidagi targ'ibot-u tashviqotlarda bobokalonlarimizdan sanalgan Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" asari islom huquqini aks ettirgan sermazmun manba ekani qayta-qayta tilga olinib, undagi huquqiy tariximizga oid masalalar haqida qisqa axborotlar tarqatilar edi. Hattoki, mazkur asarning ingliz tilidan rus tiliga o'girilgan nusxasining bir jildi o'zbek tilida chop etildi. Quvonarli jihati shundaki, oradan yillar o'tib, aniqrog'i, 2020-yildan boshlab "Hidoya" yana to'liq hajmda arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinib chop etila boshladi. "Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin" deganlaridek, bu galgi tarjima ishlari o'z ishinig sir-asrorlarini miridan-sirigacha egallagan, qobiliyatli mutaxassislar jamoasi, jumladan, A'zamxon Qambarov, Akmaljon Ikromjonov va Ilhomjon Bekmirzayev tomonidan amalga oshirilmoqda. Kezi kelganda aytish joizki, tarjimonlar o'zbek tilining zamonaviy atamaları, so'zlari yoki iboralarini joy-joyiga ishlatishda ustasi farang, tilshunos sifatida o'ta bilimli, iqtidorli mutaxassis ekaniga asarni o'qigan olim-u mutaxassis guvoh bo'lishiga aminmiz. Mazkur asarning muqovasida "o'zbekcha izohli-akademik tarjima" deb yozilgan. Fikrimizcha, tarjimonlar kitobdagi o'sha davr amaliyotida bevosita qo'llanilgan huquqiy qoidalarni faqat tadqiqotchilarning

e'tiboriga molik, deb hisoblasalar kerak. Ammo, bizningcha qo'limizdagi mazkur tarjima har qanday ma'naviyatli, qolaversa, huquq tarixi bilan qiziquvchi insonni befarq qoldirmaydi. Hozirga qadar asarning 3 jildi chop etildi. Yana shuncha jildi chop etishga tayyorlanmoqda. Bilasizmi, alloma Burhoniddin Marg'inoniy mazkur asarni yozish uchun 13 yil umrini sarflagan ekan. Asarning mazmun-mohiyatidan unda islom huquqiga oid barcha masalalar yuzasidan nafaqat Hanafiy mazhabi, balki boshqa huquq maktablarida huquqiy qoidalarni chuqur qiyosiy tahlil qilish barobarida muallifning ham huquqiy qarashlari, fikr-mulohazalari va xulosalari bayon qilinganidan o'sha davrda huquqiy tartib-taomillar jamiyat ijtimoiy hayotida naqadar muhim o'rin egallaganidan darak beradi. Masalan, birgina o'g'rilik jinoyati uchun qo'l kesilmasligi lozim bo'lgan holatlar, ya'ni jinoyatni kvalifikatsiya qilishdagi 30 dan ortiq belgilarini aniqlash zarurligi fiqhiiy qoidalarning mukammal ekanidan va insonparvarlik prinsipi ustuvorligidan darak beradi.

Hozirgi davr, ya'ni O'zбекиstondagi zamonaviy dunyoviylik tamoyillariga asoslangan huquq tizimi uchun mazkur asar yoki shunga o'xshagan huquqqa oid manbalar qanday ahamiyat kasb etadi, degan savolga javob izlagan holda quyidagi fikrni bildirmoqchimiz. Birinchidan, islom huquqida jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ijtimoiy adolat va tenglik tamoyili qaror topishi lozim, degan g'oyalar ilgari surilgani bois mazkur tamoyillar hozirda ham yevropalik olimlar tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Ikkinchidan, islom huquqida huquqiy normalarni ishlab chiqishda o'ta sinchkovlik bilan, batafsil, ya'ni huquqiy qoidalar mohiyatini ikir-chikirigacha tahlil qilib, asosiy manbalar (*Qur'on va sunnat*) bilan qiyoslangan holda pishiq va puxta ishlab chiqilgan normalar taqdim qilish maqsadi ko'zda tutilgani kuzatiladi. Uchinchidan, huquqiy normalar yuzasidan tushuntirish, sharhlar yoki fatvo beradigan olim-u mutaxassis mansabdor shaxslar, xuddi shuningdek, shariat asosida qozilik amaliyotini

yuritayotgan har qanday mutaxassislar chuqur bilim va tajribaga ega bo'lishi shartligi haqidagi ustuvor qoidalar joriy qilingani bilan ham bugungi davrda muhim ahamiyat kasb etadi. To'rtinchidan, o'tmishda olim-u ulamolarning jamiyatda tutgan o'rni ancha yuqori bo'lgani bois ham ular tomonidan yozilgan huquqqa oid manbalar huquqni qo'llash amaliyotiga har doim ijobiy ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy adolat prinsipini qaror topishiga xizmat qilib kelgan. Ushbu o'rinda ular mehnatining hokimiyat tuzilmalari tomonidan muntazam ravishda qo'llab-quvvatlangan holda o'z vaqtida rag'batlantirib turilgani ham e'tiborga molikdir.

Islom huquqining hozirgi davrdagi ta'siri haqida to'xtalsak, uning oila, nikoh yoki vorislik huquqidagi qoidalari, aralash huquq tizimiga ega davlatlardan Afg'oniston, Iordaniya, Iroq, Malayziya, Marokash, Misr Arab Respublikasi, Pokiston, Suriya, Yaman va boshqa davlatlar huquq tizimida uchraydi. Ta'kidlash joizki, dunyoda faqat Saudiya Arabistoni podsholigining huquq tizimi islom huquqiga asoslanadi.

Xulosa o'rnida qayd etish joizki, islom huquqiga oid nodir manbalar asosida ilmiy tadqiqot ishlarini sifat jihatdan yangi ko'lamga ko'tarishda yuridik soha vakillaridan maqsadga to'g'ri yo'naltirilgan izlanishlarni tashkil etish talab etilmoqda. Fikrimizcha, islom huquqi (*fiqh*)ning zamonaviy huquq sohalari yoki tarmoqlarini

mazmunan boyitish va huquq tariximizga oid asarlarning davlatchiligimiz rivojida tutgan o'rni, ahamiyati, ayniqsa, islom huquqining muomala yoki jinoyat va jazo masalalarini fuqarolik huquqi yoki jinoyat huquqi va boshqa huquq tarmoqlari bilan bog'liq jihatlarini yuridik yo'nalishdagi tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganib, boy huquqiy merosimizning dunyo sivilizatsiyaga qo'shgan hissasi to'g'risida tadqiqotlarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, ajdodlarimiz tomonidan yozilgan, xorijiy davlatlarning kutubxonalarida saqlanayotgan islom huquqiga oid nodir, noyob va kamchil manbalarning O'zbekistonga qaytarilishi yoki xorijiy olimlar, tadqiqotchilar bilan hamkorlikda ular yuzasidan izlanishlar olib borish ham muhimdir.

Boshqa tillardagi, jumladan, arab, turk yoki fors tillarida yozilgan islom huquqiga tegishli sermazmun manbalarni nafaqat tarjima qilish, balki, tilshunos va huquqshunoslar tomonidan birgalikda ilmiy izlanish olib borishi ham foydadan xoli emas.

Islom huquqiga oid ilmiy merosimizni chuqurroq o'rganish oxir-oqibatda yosh avlodni vatanparvalik ruhida tarbiyalashda, ayniqsa internet, tarmoqlaridagi turli oqim va buzg'unchi jinoiy to'dalar ta'siriga tushib qolishining oldini olish barobarida jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishimizni ham amaliy jihatdan ta'minlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bolshaya yuridicheskaya ensiklopediya; Podgotovleno kollektivom avtorov, 2-oe izd., pererabotannoe m dopolnennoe. – Moskva: EKSMO, 2010. – 655 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. – 75 b.
3. Mavjuda Rajabova. Islom huquqi: Jinoyat va jazo. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot matbaa birlashmasi, 2021. – 281 b.
5. Burhoniddin Marg'inoniy. Hidaya (sharh bidayatil muftadiy). – Toshkent: Hilol-nashr, 2020.
6. Jahon mamlakatlarining huquqiy tizimlari qomusiy lug'at. – Toshkent: IHBO'RMM nashriyoti, 2006. – 718 b.
7. Bilyal Filips. Evolyusiya fikxa. – Moskva: 1990.
8. Bolshaya yuridicheskaya ensiklopediya. – Moskva: EKSMO, 2010.
9. Islom ensiklopediyasi. Z. Husniddinov tahriri ostida – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
10. Muqimov Z. O'zbekiston davlat va huquq tarixi. – Toshkent: Adolat, 2003.



Ilhomjon BEKMIRZAYEV,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

"Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO"  
kafedrası professori, tarix fanlari doktori

# ABU NASR SAMARQANDIY VA UNING ISLOM HUQUQIDA HUJJAT YURITISH ISHLARIGA DOIR ASARLARI

## ABU NASR SAMARKANDI AND HIS WORKS ON DOCUMENT CIRCULATION IN ISLAMIC LAW

**Annotatsiya.** X–XIII asrlar islomdagi mavjud mazhablar fatvolarining jamlanishi, qozilik mahkamalari faoliyatida tashkiliy va nazariy asoslarning shakllanishi hamda islom huquqida hujjatlar tuzish asoslariga turtki bo'lgan yangi bir tizimning yaratilishiga imkon berdi. Mazkur davrni islom ilm dunyosidagi oltin davr sifatida e'tirof etish mumkin. Movarounnahr tarixida qozilik mahkamalari bugungi sud mahkamalaridan kengroq faoliyat yuritib, X–XIII asrlarda protsessual sudlov ishlari bilan bir qatorda shurtalik (*mirshablik*), hisba va muhtasiblik (*huquqni nazorat qiluvchi organ*) vakolatiga ham ega bo'lgan; davlat adliya ishlari hamda notarial harakatlarni ham nazorat ostiga olgan.

Ushbu maqolada huquqiy hujjatlar tuzishni rivojlantirgan movarounnahrlik alloma Abu Nasr Samarqandiy (*vaf. 550/1155*) haqida va uning hayoti, ilmiy merosi va XI–XIII asrlar Movarounnahr ijtimoiy hayotida tutgan o'rni borasida ma'lumotlar keltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** qozilik, mahkama, Samarqand, faqih, fiqh, shurtalik, hisba, muhtasiblik.

**Annotation.** The 10th-13th centuries enabled the creation of a new system, which encouraged the compilation of fatwas of the existing madzhabs of Islam, the formation of organizational and theoretical foundations in the activity of qazi (judicial) courts, and the basis of drafting documents in Islamic law. This period can be recognized as the golden age in the world of Islamic knowledge. In the history of Movarounnahr qazi courts functioned more widely than today's judicial courts, and in the 10th-13th centuries, in addition to procedural court cases, they also had the authority of shurta (mirshab (police inspector)), hisba and muhtasib (body that supervises the law); the state also controlled judicial affairs and notarial actions.

This article provides information about the scholar Abu Nasr Samarkandi (died in 550/1155) from Movarounnahr, who developed the drafting of legal documents, and also about his life, scientific heritage, and his role in the social life of Movarounnahr in the 11th-13th centuries.

**Key words:** function of qazi (judgeship), mahkama (police office in the history), Samarkand, faqih (scholar of Islamic law), fiqh (Islamic law), function of shurta, hisba, function of muhtasib (body that supervises the law).

Movarounnahr qozilik mahkamalarida amalda bo'lgan hujjatlarsiz o'zbek davlatchilik tarixini tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki hujjat ishi – davlatchilik tarixi bilan izma-iz yuradi. Har bir davlat o'z hududida ish yuritish qog'ozlari hamda boshqaruv ishlari, qolaversa, yondosh ellar bilan qo'shnichilik aloqalarini huquqiy hujjatlarsiz amalga oshira olmaydi. O'zbek davlatchiligi tarixida ham hujjatchilik ishlari yuqori saviyada yo'lga qo'yilganini ko'rish mumkin.

Movarounnahrlik faqihlar azaldan o'zaro huquqiy munosabatlarini qayd etishga alohida e'tibor berishgan. Shu bois, o'tmish yozma merosimizning anchayin katta qismini rasmiy matnlar, vasiqalar va hujjatshunoslikka oid bo'lgan asarlar tashkil etadi.

“Shurut va ulumus sukuk” hamda “Ilmush shurut val-vasoiq”, “Rusumul quzot” Movarounnahr hujjatshunosligi tarixini ochib beruvchi muhim manbalar sirasiga kirib, ushbu asarlarning muallifi hokim, imom Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad Samarqandiydir. Qurashiyning fikricha, alloma 486/1093-yilda Samarqandda tavallud topgan va 550/1155-yilda shu shaharda vafot etgan [1: 215-b].

Hoji Xalifa fikricha, Abu Nasr Samarqandiy, “imomul huda”, “faqih” nomlari, “Abul Lays” kunyasi bilan mashhur bo'lgan Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ibrohim Samarqandiy (vaf. 375/985) o'ziga ustoz sanab, uning asarlaridan talabalarga dars beradi [2: 1046-b]. Yirik tabaqot asar muallifi Umar Rizo Abu Nasr Samarqandiy “hokim” kunyasi bilan ataydi [3: 109-b]. Qurashiy esa, “hokim” kunyasi o'rniga “Ibrismiy” kunyasini beradi. Qurashiyning Ibrismiy kunyasini berishi faqihni arab bo'lmaganligi, aksincha, mahalliy faqihlardan ekaniga dalolat qiladi.

Abu Nasr Samarqandiy fatvolaridan keyingi davrlarda yaratilgan asarlarda ko'p foydalanganlarini ko'rish mumkin. Masalan, Abu Bakr Zahiriddin Marg'inoniyning (vaf. 619/1222) “Fatovoi zahiriyya” asarida Abu Nasr Samarqandiy shaxsiyati, uning yozgan asarlariga yuqori baho beriladi [4: 162-176-

177-182-b.]. Ma'lumki, Zahiriddin Marg'inoniy va Abu Is'hoq Ibrohim ibn Ismoil Saffor (vaf. 534/1139) oilalaridan yetishib chiqqan faqihlar Marvdan ko'chib kelib, Buxoroda hokimlik qilgan Oli Moza oilasi (hukmronlik davri 495-636/1101-02-1238) faqihlariga muxolifda bo'lganlar. Demak, bundan ko'rish mumkinki, Abu Nasr Samarqandiy Oli Moza oilasiga muxolif bo'lgan mahalliy ulamolar bilan hamfikir bo'lgan.

Yoqut Hamaviy (vaf. 626/1229) o'zining “Mu'jamul buldon” asarida Abu Nasr Samarqandiy Samarqand hokimlari qatorida zikr qiladi [5: 67-b.].

Turk tadqiqotchisi Umar Sonar Hunkan bergan ma'lumotga qaraganda, Abu Nasr Samarqandiy qoraxoniylar sultonlaridan Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon (hukmronlik davri 495-524/1102-1130) davrida Samarqandda qozilik va hokimlik lavozimlarida ishlagan [6: 523-b.].

Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, Abu Nasr Samarqandiyga “hokim” kunyasi-ning qo'shilishi uning Samarqandda hokimlik qilganidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan “hakamlik qiluvchi qozi” degan ma'noni ham bildiradi. Faqihning yirik hajmdagi qozilik ishlarini yuritishga oid asarlari uning bu sohada boy tajribaga ega ekanini ko'rsatadi.

Abu Nasr Samarqandiy hayoti va ilmiy merosi va uning XI-XIII asrlar Movarounnahr ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni kam o'rganilgan bo'lib, borlari ham faqih bilan bog'liq ma'lumotlarni to'liq ochib berolmaydi. Demak, kelgusida vatandoshimiz bilan bog'liq ma'lumotlarni yangi ilmiy xulosalar bilan boyitish muhim ahamiyat kasb etadi.

Abu Nasr Samarqandiy hanafiy faqihi bo'lishiga qaramasdan, bizgacha uning asosan qozilik ishlarini yuritishga doir asarlarigina yetib kelgan. Bundan tashqari, faqihning ibodat, muomalot, jinoyat ishlariga oid fatvolari Hindistonda yozilgan “Al-Fatava al-hindiyya” asarida keltirilgan [7: 62-176-177-182-b. 34-b, 316-317-375-384-387-b.]. Bu faqihning fatovo janrida yozilgan boshqa turkum asarlarini izlab topish va ulardagi o'rta asrlar vatanimiz





tarixiga oid ma'lumotlarni yangi ilmiy xulosalar bilan boyitib, jamoatchilikka e'lon qilishni taqozo qiladi.

Abu Nasr Samarqandiy ba'zi hollarda Abul Qosim Ismoil ibn Muhammad Hakim Samarqandiy (vaf. 342/953) bilan chalkashtirib yuboriladi. Hakim Samarqandiy Abu Hafs Kabirdan fiqh ilmini o'rgangan. Hakim Samarqandiyning "Sualul a'zam" degan asari mavjud. Faqih hayoti va ijodi bo'yicha to'liq tadqiqotlar amalga oshmagan.

Nemis islomshunosi Karl Brokkelman Abu Nasr Samarqandiy haqida ma'lumot berib o'tmagan [8.]. Demak, faqihning xalqaro fondlarda saqlanayotgan qo'lyozma nusxalari haqidagi ma'lumotlar ham mavhum bo'lib, ularni aniqlash yurtmizdagi islomshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida ham faqih asarlari aniqlanmadi.

Faqihning hayoti va ilmiy merosiga oid fikrlar kam qamrovli bo'lishiga qaramay, kanadalik islomshunos, McGill universiteti Islom tadqiqotlari bo'limi professori Vael Hallaq Abu Nasr Samarqandiyning qozilik mahkamalari faoliyati bo'yicha bildirgan fikrlarini yuqori baholaydi.

Vael Hallaq o'zining ikkita maqolasida faqih fikrlarini tahlil etadi [9: 109-134-415-436-b.]. V. Hallaq Abu Nasr Samarqandiyning "Rusumul quzot" asarida kelgan qozilik mahkamasiga doir hujjatlarni o'n qismga bo'lib o'rganadi.

Fiqhiy istilohda qozi hujjatlari saqlanadigan devon قمطرة القاضي (Qimatratul qozi) deb atalib, birinchi bo'limda guvohlar bergan ko'rsatmalar bilan bog'liq tarixiy hujjatlar qozining muhri bilan tasdiqlangan mahzar – protokol hujjatlar saqlangan.

Ikkinchi bo'limda olti oygacha bo'lgan guvohlarning ko'rsatmalari kun va oyi tasdiqlangan holda saqlangan.

Uchinchi bo'lim – mahbuslar va ularning jinoyatlari bilan bog'liq ishlariga doir hujjatlar.

To'rtinchi bo'lim – ayol jinoyatchilar va ularning ishi bilan bog'liq hujjatlar.

Beshinchi bo'lim – vaqf mulklari va ular joylashgan manzilga oid hujjatlar.

Oldinchi bo'lim – vaqf mulklariga mas'ul shaxslar haqidagi ma'lumotlar va har bir vaqf mulklarining moliyaviy kirim-chiqimlariga oid hujjatlar.

Yettinchi bo'lim – vaqf mulklari bo'yicha mas'ul shaxslar tomonidan qoziga taqdim etib borilgan hisobotlar.

Sakkizinchi bo'limda qozilik devoni amalda bo'lib turgan shahar yoki viloyatda yashaydigan va yashagan qozilar, faqihlar, sultonlar, amirlar, payg'ambar avlodlari, vazirlar, harbiy sarkardalar va boshqa davlat idoralari vakillariga qarashli ma'lumotlar saqlangan.

To'qqizinchi bo'limda qozilik mahkamasi nazoratidagi vakillarga oid hujjatlar saqlangan.

O'ninchi bo'limda har bir shahardagi vakillar olib borayotgan ishlar hisoboti saqlangan.

Abu Nasr Samarqandiy ishlab chiqqan ushbu o'nta devon tasnifi butun Movarounnahr markaziy shaharlari va viloyatlari uchun umumiy qoida hisoblangan [10: 415-436-b.].

Vael Hallaq xulosasidan shuni anglash mumkinki, Abu Nasr Samarqandiy ijtihod metodiga tayangan holda O'rta asr Movarounnahr markaziy shaharlarida ish yurituvchi qozilik mahkamalarini tubdan isloh qilib, yangicha uslub va metodlarga tayanadigan "Shurut va ulumus sukuk", "Ilmush shurut valvasoiq", "Rusumul quzot" kabi nodir asarlarni ta'lif etgan.

Tadqiqot olib borish jarayonida shu narsaga amin bo'lindiki, Abu Nasr Samarqandiy yashagan davrda Movarounnahrda yozilgan qozilik ishlariga oid asarlar ko'proq Iroq hanafiy maktabida yaratilgan Ahmad ibn Umar ibn Muhiir Shayboniy Xassof (vaf. 261/875), Abu Ja'far Muhammad ibn Ahmad ibn Salama ibn Abdulmalik Azdiy Tahoviy (vaf. 321/933), Abu Bakr Ahmad ibn Ali Hanafiy Roziy Jassos (vaf. 370/981) tomonidan yozilgan "Adabul qozi" turkumidagi asarlarga yozilgan sharhlar ko'rinishida bo'lgan. Bunga misol tariqasida shamsul aimma darajasiga yetishgan Saraxsiy,

Halvoiy va Faxruddin Qozixon [11: 343-408-b.], Husomuddin Sadrush shahid, Zahiriddin Marg'inoniy [12: 1-2-b.] tomonidan ta'lif etilgan sharhlarni keltirish mumkin. Ikkinchi tomondan esa, ba'zi fatvo janrida asarlar ta'lif etgan faqihlar qozilik mahkamalarining ish yuritish tartiblarini yirik furu'ul fiqhga oid asarlaridagi bir bo'lim ichida tahlil etib ketganlar.

Abu Nasr Samarqandiy ulardan boshqacharoq yo'l tutib, qozilik mahkamalari ish yuritish tartiblariga bag'ishlangan uchta mustaqil asar yaratgan. Abu Nasr Samarqandiyning ushbu "Shurut va ulumus sukuk", "Ilmush shurut val-vasoiq", "Rusumul quzot" kabi nodir asarlari Iroq davlat qo'lyozmalar muzeyi fondida saqlanadi. Ushbu qo'lyozmalar ustida iroqlik tadqiqotchi Muhammad Jasim Hadisiy tadqiqot olib borib, ularni 1985-1988-yillar orasida nashrga tayyorlagan [13: 450-b, 620-b, 226-b.].

Muhammad Jasim Hadisiy, Abu Nasr Samarqandiyning asarlarini 5739 inventar raqam ostida beradi. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, tadqiqotchi nashrga tayyorlagan faqihning uch asari asli bitta qo'lyozma manba bo'lib, tadqiqotchi uni uchga bo'lib tahqiq etgan.

Abu Nasr Samarqandiyning asari 509/1116-yilda Umar ibn Abu Hasan Tamimiy tomonidan suls arab xatida ko'chirilgan. Ushbu nodir qo'lyozma Iroq davlat qo'lyozmalar muzeyiga asli marvlik bo'lgan va 1889-yilda Iroqqa ko'chib kelgan Abdulmajid Sanaviy oilasi tomonidan hadya etilgan.

Muhammad Jasim Hadisiy, qo'lyozmalar muzeyida Abu Nasr Samarqandiyning yana Abu Bakr Ahmad Jassosning (*vaf. 370/981*) "Adabul qozi" asariga yozgan sharhi ham saqlanadi degan ma'lumotni beradi [14: 22-b.].

Keyingi tadqiqotlar Abu Nasr Samarqandiy asarlarini Iroq nusxalaridan boshqa xalqaro fondlarda saqlanayotgan qo'lyozma nusxalarini izlab topish va ularni manboshunoslik va tarixnavislik nuqtai nazaridan ilmiy tadqiq etish alloma asarlari haqidagi yangi va asosli ilmiy xulosalarni ilgari surishga xizmat qiladi.

Nemis tadqiqotchisi Ulrix Rebshtok Abu Bakr Ahmad Jassos yirik hanafiy faqihi bo'lishiga qaramay, uning fatvolari Iroq va Shom hanafiy maktablariga xos bo'lgan. Movarounnahrlik faqihlar esa, Jassosdan ko'ra Xassofning "Adabul qozi" asariga sharhlar yozishni afzal ko'rishgan, degan xulosaga kelgan [15: 110-122-b.].

Abu Nasr Samarqandiyning Abu Bakr Ahmad Jassosning (*vaf. 370/981*) "Adabul qozi" asariga yozgan sharhi aniqlanib, ilmiy tahlil etilsa, nemis tadqiqotchisi xulosasini yangilash imkoniyati paydo bo'ladi. Ya'ni movarounnahrlik faqihlar ham Jassos asarlariga o'z munosabatlarini bildirgan, degan xulosani keltirib chiqaradi.

Ajdodlarimizning huquqiy tafakkuri to'g'risida nemis sharqshunos olimi Le Kokning fikrini keltirish o'rinli bo'ladi. U shunday deydi: "Rasmiy yozmalarning salmoqli bo'lagida oldi-berdi munosabatiga kirishayotgan kishilardan biri shaxsan, o'z qo'li bilan hujjatni tuzgani ochiq ko'rsatilgan. Hujjatlar tuzish jarayonini biror-bir huquqshunos yoki notarius nazorat qilgani rasmiy matnning hech qayerida qayd etilmaydi.

Bundan kelib chiqadigan muhim xulosa shuki, hujjat tuzishning yo'l-yo'riqlari va unda qo'llaniluvchi huquqiy formulalar jamiyatning barcha qatlami kishilari tomonidan o'zlashtirilgan ko'rinadi" [16: 2-b.].

Xulosa yasab shuni aytish mumkinki, Abu Nasr Samarqandiyning Movarounnahr hujjatshunosligiga bag'ishlangan asarlarini tadqiq etish sohasida to'plangan tajribalarni qo'llagan holda, manbalarda bitilgan rasmiy yozmalarning barini mujassamlashtirib, bir tadqiqot doirasida jamlab jamoatchilikka yetkazish davri keldi. Shu yo'lgina o'rta asrlardagi o'zbek davlatchiligining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tarixi, qonunchilik tizimining shakllanishi, o'lkamizda mulkchilik xizmatlarining yuzaga kelish tarixini o'rganishda, shuningdek, ajdodlarimiz bunyod etgan davlatlarda yuqorida tahlil etilgan nazariy hujjat tuzish qoidalari qanchalar muhim o'rin tutganini to'g'ri tushinib yetish imkonini beradi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Qurashiy Abu Muhammad Abdulqodir ibn Abilvafo Muhammad ibn Muhammad al-Misriy. Al-Javohir al-muziy'a fi tabaqot al-hanafiyya. 5 jildli / Abdulfattoh Muhammad al-Xulv tahriri ostida. – Qohira: Hijr, 1993. J. 1. – 215 b.
2. Hoji Xalifa. Kashf az-zunun. Makka: Maktaba al-faysaliya, 1981. J. II. –1046 b.
3. Kahhola Umar Rizo. Mu'jam al-muallifin. 15 jildli. – Bayrut: Dor ihyo at-turos al-arabiy, 1980. J. 2. – 109 b.
4. Zahiruddin Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Umar al-Buxoriy al-Marg'inoniy. Al-fatovo az-zahiriyya. – Bag'dod: Iroq davlat qo'lyozmalar muzeyi // Qo'lyozma № 009654, varaq. – 692 b.
5. Hamaviy Yoqut. (vaf. 626/1229). Mu'jam-l-buldon. 5 jildli. – Bayrut. Dor al-fikr, 1980. – J. 2. 67 b.
6. Ömer Soner Hunkan. Türk Hakanlığı (Karahanlılar) Kuruluş-Gelişme-Çöküş (766-1212). – Istanbul: Tanıtım Hizmetleri Ticaret Limited Şirketi, 2007. – 523 b.
7. Al-Fatovo al-hindiyya. 6 jildli / Abdulloh Nizomuddin tahriri ostida. – Bayrut: Dor ihyo at-turos al-'arabi, 1406/1986, J. 1. – B. 162, 176, 177, 182, J. 3. – 34, J. 6. – 316, 317, 375, 384, 387 b.
8. Qarang: Brockelmann C. Geschichte der arabischen Litteratur. 3 jildli. – Weimar-Berlin: Hay'a al-misriyya, 1898-1993.
9. Hallaq Wael. B. Model Shurut Works and the Dialectic of Doctrin and Practice // Jurnal, Islamic Law and Society, Vol. II. (Leiden: E. J. Brill, 1995). – B. 109-134; Shu muallif. the qadi'sdiwan(sijill) before the Ottomans // Bulletin of the School of Oriental and African Studies, University of London. Vol. 61, –№ 3. (1998). – 415-436 b.
10. Qarang: Hallaq Wael. B. the qadi'sdiwan(sijill) before the Ottomans // Bulletin of the School of Oriental and African Studies, University of London. Vol. 61, –№ 3. (1998). – 415-436 b.
11. Imam Fakhr ad-din Hasan b. Mansur al-Uzjandi al-Fargani. Fatowo al-Qadihan. ed. Moulvy Wilayat Husein Vol. 1-2. – New Delhi: Kitob Bhavan, 1994/1986). – 343 p, 408 p.
12. Zahiruddin al-Marg'inoniy. Al-fatovo az-zahiriyya. – Bag'dod: Iroq davlat kutubxonasi // Qo'lyozma № 009654. – 692 b. – V. 1a-2b.
13. Abu Nasr as-Samarqandiy. Rusum al-quzot / Muhammad Jasimal-Hadisiy tahriri ostida. – Bag'dod: Doral-huriyya li-t-tiba'a, 1985. – 450 b (Bundan keyin. Samarqandiy. Rusum al-quzot); Abu Nasr as-Samarqandiy. Kitob ash-shurut va-'ulumas-sukuk / Muhammad Jasimal-Hadisiy tahriri ostida. – Bag'dod: Vizarat as-saqofava-l-i'lam, Dorash-shu'un as-saqafiyya al-'amma, ofoq 'arabiyya, 1987. – 620 b (Bundan keyin. Samarqandiy. Shurutva-s-sukuk); Abu Nasr as-Samarqandiy. Kitob ash-shurut va-l-vasaiq / Muhammad Jasim al-Hadisiy tahriri ostida. – Bag'dod: Vizarat as-saqofava-l-i'lam, Dorash-shu'un as-saqafiyaal-'amma, ofoq 'arabiyya, 1988. – 226 b.
14. Samarqandiy. Shurut va-l-vasaiq. – 22 b.
15. Qarang: Ulrich Rebstock. Abwägen als Entscheidungshilfe in den usûl al-fiqh: Die anfänge der targîh-Methode bei al-Gassos // Der Islam (zeitschrift für geschichte und kultur des Islamischen orientes) // 2003. – № 80. – Walter de Gruyter. Berlin. –110-122 b.
16. Willi Heffening. Das Islamische Fremdenrecht: bis zu den islamisch-fränkischen Staatsverträgen. Biblio Verlag. Osnabrück, 1975. –2 p.

**Saidjamol MASAYITOV,**  
O'zbekiston musulmonlari idorasi  
Fatvo markazi bosh mutaxassisi,  
Islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

# MOVAROUNNAHR MUHADDISLARINING MEROS ILMIGA QO'SHGAN HISSALARI

## THE CONTRIBUTION OF THE OF CENTRAL ASIAN MUHADDITHS TO THE SCIENCE OF INHERITANCE

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'rta asrlarda ilm-fan markazlariga aylangan O'rta Osiyo shaharlari va shu markazlardan yetishib chiqqan va turli sohalar rivojiga katta hissa qo'shgan olimlar haqida so'z yuritiladi. Mahalliy xalq tomonidan islom dinining kirib kelishi va Movarounnahrda siyosiy vaziyat ilm-fan rivojiga katta turtki bo'ldi va shu sababdan islom ilmlarining ko'plab sohalarida, xususan, fiqhda ko'plab olimlar yetishib chiqdi.

Islom huquqida meros masalasi o'ta murakkab masala bo'lsa-da, shu bilan birga u joriy qilingan ayrim mavhum va murakkab qoidalardan ko'ra huquqiy tizimga muvofiq mahorat bilan hal qilingan huquqiy masaladir. Meros ilmi Qur'on bilan bir qatorda Payg'ambarimiz (sollallahu alayhi va sallam)ning sunnatlariga ham tayangani sababli bu ilmning rivojiga muhaddislarning ham salmoqli hissa qo'shganini kuzatish mumkin. Maqolada Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Dorimiy kabi taniqli muhaddislar faroiz masalasini hal etishda qanday hissa qo'shganlari haqida misollar keltiriladi.

**Tayanch so'zlar:** fiqh, meros, faroiz, farz, balog'at, arab tili, mantiq, Movarounnahr.

**Annotation.** In this article, the researcher talks about the cities of Central Asia, which became centers of science in the Middle Ages, and the scientists who grew out from that centers and made a significant contribution to the development of various fields. Advent of Islam by the local people and the political situation in Mawerannahr was a great impetus for the development of science, and for this reason appeared many scholars in many fields of Islamic sciences, especially in fiqh. The issue of inheritance in Islamic law is a very complex one, but at the same time it is a legal issue that has been dealt with more skillfully in accordance with the legal system than some of the abstract and complex rules that have been introduced. Since the science of inheritance is based on the Qur'an as well as the Sunnah of the Prophet (s. a. w. ), it can be observed that the hadith scholars have also made a significant contribution to the development of this science. The article provides examples of how well-known hadith scholars like Imam Bukhari, Imam al-Tirmidhi, and Imam al-Darimi, contributed to the solution of the issue of faraid.

**Key words:** fiqh (Islamic jurisprudence), inheritance, faraid (science of inheritance), farz (obligations from Allah), puberty, Arabic language, logic, Mawerannahr.



Markaziy Osiyolik allomalar Islom dini va unga tegishli bo'lgan barcha sohalar-da, shuningdek, arab tili, mantiq, balog'at kabi fanlar bilan birgalikda dunyoviy ilmlar rivojiga ham katta hissa qo'shganlar. Movarounnahrda o'sha vaqtda mavjud bo'lgan ilmlardan tashqari bir qancha yangi ilmlarga asos solgan ulug' zotlar ham yetishib chiqdi. Islom madaniyatining rivojlanishi, musulmon o'lkalarining yuksak taraqqiyotga erishishi kabi ijobiy suratlar bir tomondan Islom dinining ilm-fanga bo'lgan o'ta yaxshi munosabatidan, ya'ni, ilm olishni har bir erkak va ayol uchun beshikdan lahadgacha farz qilganidan, deyilsa, boshqa tomondan o'sha vaqtdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat ham bu narsaga katta imkoniyat yaratib berganidan ham deyish mumkin [5: 36-b.].

Tarixiy voqealar ham o'sha davrda (IX-X asrlar) "... Movarounnahrda kechayotgan jarayon hali mahalliy ahamiyatga ega bo'lib, bu mintaqada islom markazlarida Xurosonning bir qismi hisoblanardi. Faqih guruhlar, Somoniylar (875-999) amaldorlari zo'ravonliklaridan aholi turli tabaqalarining yagona himoyachisi sifatida chiqqanliklari natijasida ularning ijtimoiy obro'si va ta'sir doirasi kengaya bordi" [3: 43-b.]. O'sha davrda fiqh ilmi turli jihatdan, masalan, yaratilgan asarlarning ozligi nuqtai nazaridan ham shakllanish va kuchga to'lish davrini boshdan kechirmoqda edi.

Davlat hokimiyati Qoraxoniylar (999-1212)ga o'tgandan keyin Movarounnahrda fiqh ilmining rivoji va takomili yuzaga kela boshladi. Qoraxoniylar davlati qaror topishi natijasida "Movarounnahrning Xuroson bilan aloqalari zaiflashib, oyoqqa turgan mahalliy maktablarning mustaqil rivojlanishiga asos yaratildi. Markaziy shaharlarda avtonom boshqaruvning kuchayishi ulamo guruhlar ta'sir doirasining kengayishiga olib keldi. Buxoro va Samarqand haqiqiy ilm markazlariga aylantirildi. Bu shaharlarda Nasaf, Marv, Farg'ona faqihlari ham faoliyat ko'rsatdilar" [3: 44-b.].

Ushbu maktablarning vakillari bo'lgan fuqaholarning deyarli hammalari faroiz bo'yicha katta ishlarni amalga oshirganlar. Fuqaholarning ko'pchiligi meros haqida o'zlarining fiqhga oid asarlarida gapirib o'tishgan bo'lsa, ularning orasida ayrimlari, mavzuga doir mustaqil kitoblar ham ta'lif qilishgan.

Umuman fiqhning usul va furu'lari bo'yicha Markaziy Osiyo ulamolarining soni cheksizdir. Usulul fiqh ilmi rivojlanishida hissa qo'shgan o'rta osiyolik ulamolar qatorida Abu Mansur Moturidiy, Imom Abu Zayd Dabusiyy, Imom Ali ibn Muhammad ibn Abdulkarim Faxrul Islom Bazdaviy, Imom Abul Barakot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Hofiziddin Nasafiy, Shamsul-aimma Saraxsiy va boshqalarni keltirish mumkin. Furu'ul fiqh borasida yurtimizda "Mabsut", "Hidoya", "Badoe'us-sanoe'", "Viqoya", "Kofiy", "Tuhfatul fuqaho", "Fatovoi Qozixon", "Muhitul Burhoniy" va boshqa ko'plab kitoblar tasnif qilindi. Ushbu kitoblar mualliflarining meros ilmi rivojiga qo'shgan hissalarining beqiyosligi ma'lum. Zero, meros ilmi fiqh ilmiga kiruvchi bo'limlarning biridir.

Meros ilmiga taalluqli hukmlar Qur'oni karim [1: 4/11-b.], sunnat va ijmo'ga suyanigani uchun Movarounnahrda hadis ilmi sohasida yetishib chiqqan va butun dunyo tan olgan olimlardan Is'hoq ibn Rohavayh Marvaziy (161-238/778-853), Abdulloh ibn Muborak Marvaziy (118-181/726-797), Imom Nasaiy (215-303/829-915), Imom Buxoriy (194-256/810-870), Imom Termiziy (209-279/824-892), Imom Dori-miy (182-255/797-869) kabi ulamolarmizni ham ushbu ilmning rivojiga katta hissa qo'shgan ulamolar sifatida keltirishimiz mumkin [4: 141-b.].

Islom olamidagi eng ishonchli olti to'plamning uchtasi - Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Nasaiylarni mana shu yurtdan chiqqanligi yurtimiz ulamolarining bu sohadagi o'rinlarini ko'rsatib turibdi.

Imom Buxoriy "Al-Jomi' as-sahih" kitobida meros va vasiyat ahkomlariga keng to'xtalib o'tgan. Kitobning 85-bobini "Kitabul faroiz", deb nomlagan. Ushbu kitobda 43 ta, ulardan bittasi muallaq, qolgani mavsul hadis hamda sahoba va ulardan keyingilarning asarlaridan yana 24 tasini keltirgan.

Imom Buxoriyning fiqhdagi qarashlari boblarning sarlavhalaridan olinadi. Shundan ko'rish mumkinki, faroizdagi kam sonli ixtilofli masalalardan bo'lgan bobo bilan aka-ukalar merosi masalasida imom Buxoriy jumhur ulamolarga xilof ravishda Abu Hanifa mazhabidagi kabi fikrni tanlaganini ko'rish mumkin. Shuning uchun imom "bobo bilan aka-ukalarning meros olishlari haqida"gi bob, deb sarlavha qo'yadi va bob ostida Abu Bakr, ibn Umar va ibn Zubayrlar: bobo otadir, deganlar, deydi [6: 12/19-b.]. Shuningdek, Imom Buxoriy fuqaholar o'rtasidagi tortishuvli masalalardan bo'lgan marhuma ayolga merosxo'r bo'lgan ikki amakining o'g'illari masalasida ham hazrati Alidan kelgan rivoyatga binoan marhumaning ham eri, ham amakisining o'g'li bo'lgan amakivachchasiga molning yarmi, ham ona bir akasi bo'lgan ikkinchi amakivachchasiga 1/6 berilganidan so'ng qolgan mol o'rtalarida teng bo'linishini aytadilar [6: 28-b.].

Faroiz kitoblarining aksarida yoritilgan muloana merosi, nasab da'vosi qilganiga meros berilishi, laqit (topib olingan inson) merosi, va losini biron olmaslik sharti bilan ozod qilingan (saiba)ning merosi, asirning meros olishi, farzand meniki, deb da'vo qilgan ayol masalasi kabi va boshqa qator hukmlarni oyat, hadis va asarlar orqali ochib berishga harakat qilib, faroiz ulamolarga juda katta yengilliklar bo'lishiga sababchi bo'lgan [6: 31-b.].

Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan mashhur muhaddislardan boshqa biri Abu Muhammad Abdulloh ibn Abdurrahmon ibn Fazl ibn Bahrom ibn Abdussamad Tamimiy Samarqandiy Dorimiy (181/798-255/869) ham o'zi-

ning shoh asari bo'lgan "Sunan"ning 21-kitobini "كتاب الفرائض" ("Meros huquqi haqidagi kitob") deb atagan. Ushbu kitob "Faroiz ilmini o'rganish" haqidagi bob bilan boshlanadi. Shuningdek, unda er va xotin, qiz va o'g'il, aka-uka va opa-singillar, bobo va buvilarning merosdagi ulushlari, mamluklar va Ahli kitoblarning meroslari masalalariga bag'ishlangan hadislar jamlangan. Kitobda uzoq va yaqin qarindoshlarning ulushlari, qotil, asir tushgan kishi, merosxo'r bo'lmagan vaziyatlar, qul ozod qilish sabab merosxo'r bo'lish (الولاء) va boshqa mavzulardagi ko'plab hadislar keltirilgan. Imom Dorimiyning ushbu "كتاب الفرائض" ("Meros huquqi haqidagi kitob") kitobi hammasi bo'lib 56 bob, 324 ta hadisni o'z ichiga olgan [2: 20-b.].

Abu Iso Muhammad Termiziy ham o'zlarining "Sunani Termiziy" nomi bilan mashhur bo'lgan jome'ida "أبواب الفرائض عن رسول الله" ("Rasulullohdan faroiz bo'yicha kelgan hadislar") deb nomlangan umumiy sarlavha ostida 20 ta bob, 27 ta hadis keltirgan [7: 264-b.]. Imom Termiziy ko'plab fuqaholar, jumladan, Abu Hanifa, Shofe'iy, Molik va boshqalarga xilof ravishda musulmon qo'li ostida islomga kirgan mushrikning boshqa merosxo'ri bo'lmagan o'rinda merosiga ega bo'ladi, deydi. Mazkur hukmni ular Tamim Dariydan rivoyat qilingan quyidagi hadis bilan quvvatlaydi: u kishi Payg'ambar (sollallohu alayhi va sallam) dan musulmonning qo'lida islomga kirgan mushrik borasida qanday yo'l-yo'riqlar bor, deb so'raydi. Payg'ambar (sollallohu alayhi va sallam) "U (musulmon) uning (islomga kirganning) hayoti va o'limi uchun hammadan haqli", deydi [7: 295-b.].

Shuningdek, Imom Termiziy eri o'ldirilgan ayolni nafaqat erining molidan balki, xuni (diya)dan ham meros oladi, deydi va bu so'zlariga Payg'ambar (sollallohu alayhi va sallam)ning Kilobiyga yozgan mak-tublarini keltiradi. Unda, jumladan, bunday aytilishicha, Payg'ambar (sollallohu



alayhi va sallam) unga xat yozib, Ashyam Dobabiyning xotinini erining diyasiga voris qilgin, deganlar.

Xulosa qiladigan bo'lsak, movarounnahrlik muhaddislar ham fiqh va ayniqsa, uning katta boblaridan biri bo'lgan faroiz sohasida qilgan ishlari beqiyos ekani va undagi ko'plab nozik masalalarning hal

qilinishida ular tomonidan yozilgan asarlar ularning o'rinlari salmoqli ekanini ko'rsatib turibdi. Shuni alohida qayd etish kerakki, agar muhaddislarning mazkur mehnatlari bo'lmaganda faroiz ilmiga doir masalalarning katta qismi, garchi bu fiqhiy mavzu bo'lishiga qaramay, to'g'ri hal qilinishi juda ham mushkul bo'lib qolar edi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. T. : Toshkent islom universiteti. 2004.
2. Dorimiy Samarqandiy Abu Muhammad Abduloh ibn Abdurrahmon. Sunani Dorimiy (saylanma). Tarjimonlar: Usmonov I. Alimova M. va boshq. "Toshkent islom universiteti", 2011. – 233 b.
3. Mo'minov A. "Movarounnahr musulmonlari: hanafiylar", Sharqshunoslik, 9-son, 1999 y.
4. O'rta asr Sharq allomalari ensiklopediyasi. Ziyodov Sh. rahbarligidagi olimlar jamoasi. 2016. – 287 b.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Movarounnahrlik ulamolarning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi. Toshkent. 2013. – 251B.

۶. ابن حجر العسقلاني. فتح الباري شرح صحيح البخاري. ج 21 , ص - 82

۷. المباركفوري أبو العلي محمد عبد الرحمن. تحفة الأحوذى بشرح جامع الترمذى دار الفكر 9791 . ج 6 . ص - 462

**Saidahmadxon G'AYBULLAYEV,**  
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
o'qituvchisi, Islomshunoslik fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)

## “USULUL PAZDAVIY” ASARINING HANAFIY USULUL FIQHI RIVOJIGA TA'SIRI

### THE IMPACT OF THE WORK “USUL” ON THE DEVELOPMENT OF HANAFI USUL AL-FIQH

**Annotatsiya.** Maqolada “Usul” asarining hanafiy usulul fiqhi rivojidadagi o'rni, unda usulul fiqh ilmiga olib kirilgan yangi tushunchalar, asardagi ma'lumotlarni izohlash orqali hanafiylik asoslarini ilmiy tarzda o'rganish rivojlangani va yangi adabiyotlar bilan boyigani tahlil etilgan. Asarda hanafiylik usulul fiqhi qoidalari ilk bora tizimlashib, tartibga solingani sabab uni muallif davridayoq sohaga oid yozilajak manbalarga asos qilib olishgan. Jumladan, olimning saboqdoshi Abu Bakr Saraxsiy va shogirdi Alouddin Samarqandiy usulga oid asarlaridan “Usulul Pazdaviy” dan foydalanishgan.

**Tayanch so'zlar:** Pazdaviy, faqih, usulul fiqh, sunnat, matn, sharh, taxrij, qo'lyozma, dalil.

Abul Hasan Ali Pazdaviy ibn Muhammad ibn Husayn ibn Abdulkarim ibn Muso ibn Iso ibn Mujohid ibn Abdulloh Pazdadan yetishib chiqqan yirik olimlardan biri bo'lib, taxminan 400/1009-yilda Pazdada tug'ilgan. Faxrul islom Pazdaviy 80 yoshdan o'tib, 482/1089-yili Keshda vafot etgan. Olim Markaziy Osiyoda ilm-fan rivojlangan XI asrda yashab o'z davridagi barcha ilmlarni chuqur bilgani, ko'plab shogirdlarni tarbiyalagani va islom huquqi hamda falsafasiga oid muhim ilmiy asarlar ta'lif etgani uchun ilm ahli tomonidan “Faxrul islom” (islomning faxri) unvoni bilan qadrlangan.

Faxrul islom Pazdaviyning *اصول البزدوي* – “Usul” (“*Usul qoidalari*”) asari hanafiy usulidagi uchinchi manba bo'lib, undan avval yozilgan Abu Bakr Jassos (*vaf. 370/981*)ning “Fusul fil usul” (*Usulga oid fasllar*) asari mazhab usuliga oid qarashlarni to'plashga, Abu Zayd Dabusiy (978–1038) “*Taqvimul adilla*” (“*Dalillarni asoslash*”) asari esa hanafiy usulining o'ziga xos jihatlarini tahlil etishga, asoslab berishga qaratilgan edi. Pazdaviyning ta'lifdan maqsadi asar muqaddimasida o'zi bayon etganidek: “Ushbu kitob shar'iy hujjatlarni, ularning ma'nolari bilan, usuliy qoidalarni amaliy masalalar ila ixcham va muxtasar tarzda bayon qilish” [15: 94-b.] edi.

**Annotation.** In the article the role “Usul” (conception) work in the development of Hanafi “usul al-fiqh” (the conception of jurisprudence), the new concepts introduced into the science of “usul al-fiqh”, the development of the scientific study of the foundations of Hanafiya through the interpretation of the information in the work, and the fact that it is enriched with new literature are analyzed. In the work, the rules of Hanafi “usul al-fiqh” (the conception of jurisprudence) were systematized and organized for the first time. In particular, the scientist's classmate Abu Bakr Sarakhsi and his student Alauddin Samarkandi used “Usulul-Pazdawi” in their works on usul.

**Key words:** Pazdawi, islamic jurisprudence, sunnah, text, comment, takhrij, manuscript, evidence.





Natijada doktor Abul Vafo Afg'oniy aytganidek, asarda fanning mavzulari tahrirlandi, tuzatishlar qilindi. Bu bilan manbada gi xulosalar faqihlarning asosiy tayanchiga aylanib, mazhabdagi muttafaqun alayh (*barcha tomonidan tan olingan*) qavl sifati da qabul qilindi [19: 3-b.].

“Usul” asari muxtasar bo'lishiga qarmay keng qamrovli bo'lganidan muallif davridayoq ilmiy doiralar e'tiborini qozongani ni ko'rish mumkin. Manbaning zamonaviy nashrini tayyorlagan Doktor Said Bektosh Pazdaviy va uning zamondoshi shamsul aimma Saraxsiy (*vaf. 1090*)ning usulga oid asarlarini qiyosiy tahlil qilib, ular orasida ma'lumotlarni berish va mavzularni taqsimotidagi ko'pgina o'xshash o'rinlarni misollar orqali ko'rsatib o'tgan. Shuningdek, Saraxsiy o'z asarini vafotidan biroz oldin – 479-yil shavvol (*1087-yil, fevral*) oyida yozishga kirishgani haqidagi tarixiy dalilga tayanib, shamsul aimma Saraxsiy “Usul” asarini Pazdaviyning shu nomdagi kitobidan foydalangan, degan xulosani beradi [15: 30-b.].

Alouddin Samarqandiy (*vaf. 539/1144*) “Mezonul usul” asarini yozishda “Usulul Pazdaviy”ga tayanganini ko'rish mumkin. Jumladan, “Fima yarji'u ilal ibara” (Qur'on iboralari) mavzusida:

”قال أستاذي الشيخ الإمام الزاهد علي بن محمد البزدوي رحمه الله بأن الإضممار غير الاقتضاء. وهو الأصح.“

“Ustozim shayx imom zohid Ali ibn Muhammad Pazdaviy rahimahulloh: “Iz-mor iqtizodan boshqa narsa”, degan va bu eng to'g'ri qarashdir”, deydi [4: 273-b.].

Asarning Movarounnahrda tashqarida ko'chirilgan qo'lyozma nusxalari Pazdaviy vafotidan bir asr o'tmay uning kitobi butun musulmon dunyosi bo'ylab tarqalganini ko'rsatadi. Jumladan, Bag'dod shahridagi “Avqoful omma” kitoblar fondida 3551-raqam bilan saqlanayotgan 212 varaqli qo'lyozmasi 546/1151-yilda Muhammad ibn Is'hoq Roziy tomonidan ko'chirilgan va kolofonida ustozidan ushbu kitobni o'qib o'rganganini xususida berilgan ijoza (shahodatnoma) mavjud [17: 451-b.]. Shuningdek, “Ko'nya

Milliy kutubxonasi”da 270-raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozma kolofonida “692-yil 12-jumodul avval (*1293-yil 14-aprel*) juma kunida Mahmud ibn Mahmud ibn Hajjoj Samarqandiy Damashqdagi Usmoniya madrasasida ko'chirib tamomladi”, deb yozilgan [15: 49-b.]. AQShning Nyu-Jersi shtati Prinston universitetida 3808, 3750-raqamlar bilan asarning ikkita qo'lyozmasi saqlanadi va ularning avvalgisi Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad G'uriy Tabriziy tomonidan 713/1313-yil, keyingisi esa Xizr ibn Ramazon Rumiy tomonidan 724/1323-yilda ko'chirilgan [16: 2-b.].

Kotiblar nisbalari “Usulul Pazdaviy”dan muallif vafotidan 62 yil o'tiboq, Eronning Ray shahri, keyinroq Damashq, Tabriz, Rum (*Turkiya*) o'lkalarida nusxa ko'chirilganidan darak beradi. Shuningdek, asardan nusxa ko'chirilgani uni darslik sifatida o'rganilib, yangi nusxalarga ehtiyoj bo'lganini bildiradi.

XIII asrda yozilgan usulul fiqhga oid manbalarda Pazdaviyning “Usul” asari madrasalarda darslik sifatida o'qitilgani zikr etilgan. Jumladan, “Usulul Pazdaviy”ning mashhur shorihi Abdulaziz Buxoriy (*vaf. 730/1330*) “Kashful asror an usuli faxril islom Pazdaviy” (*“Faxrul islom Pazdaviyning Usul” asaridagi sirlarini ochish*) nomli sharhi muqaddimasida shunday deydi: “Usulul Pazdaviy” asarini ustozim va amakim Faxriddin Muhammad Moymurg'iy huzurida Saraxs shahridagi Malik Abbos madrasasida to'liq o'qib o'rgandim” [1: 4-b.].

Asarning yana bir mashhur shorihi Akmaliddin Bobartiy Misriy (*vaf. 786/1398*) “Taqrir li usuli Pazdaviy” (*“Usulul Pazdaviy”dagi ma'lumotlarini aniqlash*) nomli sharhi muqaddimasida: “Usul” asarini 743/1343-yil 7-Shavvol (1343-yil 26-fevral) sanasidan boshlab ikki yil davomida Qohiradagi Mardoniy ta'lim dargohida ustozim Qivomiddin Kokiyan o'qib o'rgandim. U ustozini Abdulaziz ibn Ahmad Buxoriydan Buxorodagi Mujtariya madrasasida o'qib o'rgangan, Abdulaziz Buxoriy ustozini va amakisi Faxriddin

Muhammad Moyamurg'iydan Saraxs shahridagi Malik Abbosiyya madrasasida o'qib o'rgangan, u (*Moyamurg'iy*) Xoharzoda Muhammad ibn Mahmud ibn Abdulkarim Kardariydan, u tog'asi shamsul aimma Muhammad ibn Abdusattor Kardariydan, u Burhoniddin Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil Roshidoniyan, u Najmiddin Abu Hafs Umar ibn Ahmad Nasafiydan, u muallif shayx Faxrul islom Pazdaviy rahimahullohdan o'qib o'rgangan" [3: 4-5 b. ] deya, Misrdagi Mardoniy, Buxorodagi Mujtariya va Saraxsdagi Malik Abbosiya kabi madrasalarning asosiy darsliklari qatorida bo'lganini zikr etadi.

Madrasa talabalarining "Usulul Pazdaviy" dagi asosiy qoidalar va ma'lumotlarni yodlab olishlarini qulaylashtirish maqsadida ba'zi olimlar undagi ma'lumotlarni qisqartirib, mo'jaz risolalar tasnif etishgan. Abul Barakot Nasafiy (1232-1310) "Manorul anvor" ("*Nurlar manbai*") risolasi ana shu maqsadda yozilgan bo'lib, bu haqda muallif shunday degan: "Buxoro va ko'plab musulmon shaharlaridagi talabalarni Faxrul islom Pazdaviy va shamsul aimma Saraxsiylarning usul kitoblariga katta qiziqishi borligini kuzatdim va o'zimning ham shogirdlarimdan iltimos bo'lgani uchun ushbu ikki kitobni asosiy mazmunini saqlab qolgan holda hajman qisqartirdim. Dalillar va amaliy misollarni keltirib, mavzularni Faxrul islom Pazdaviy kitobi asosida tartiblab chiqdim. Zarurat tug'ilmasa ushbu ikki manbadan boshqasiga qo'shmadim" [2: 4-b.]. Nasafiyning mazkur risolasi 25 varaqdan iborat bo'lib, talabalarga fanning asosiy mavzularini yodlab olishlari uchun tayyorlangan. Risolaning eng qadimiy qo'lyozmasi 762/1361-yilda ko'chirilgan bo'lib, O'zR FA SHI qo'lyozmalar fondida 5243/1-raqam bilan saqlanadi [9: 18-b.]. "Manorul anvor" ikki asar mazmuni jamlangani sabab unga yigirmadan ortiq sharhlar yozilgan. Muallif o'zining ham "Kashful asror sharhul "Manor" ("*Manor risolasi sirlarini ochish*") nomli sharh ta'lif etgan.

Hanafiy usulida katta e'tibor qozongan "Muntaxabul Husomiy" ("*Husomiy saylan-*

*masi*") risolasi ham "Usulul Pazdaviy" dagi ma'lumotlar asosida yozilgan bo'lib, muallif Husomiddin Muhammad Axsikatiy (*vaf.* 644/1246)ni Qurashiy, Toshko'brizoda, Laknaviyning tarojim asarlarida "Sohibul muxtasar" deya zikr qilishgan [5: 170-b.]. Har ikkala asar tavhid masalalari bilan boshlanib, asosiy mavzuga "Bilingki, shariatning manbalari uchta, Kitob, sunnat, ijmo va to'rtinchi manba qiyos bo'lib, qiyos ushbu uch manbaga tayanadi. Shariatning birinchi manbasi sanalgan Qur'oni karim Rasulullohga nozil bo'lgan, mus'haflarda yozilgan, Nabiy alayhissalomdan mutavotir holda naql qilingan va unda hech shubha yo'qdir. U barcha ulamolar so'ziga ko'ra nazm (*ibor*) va ma'nodan iborat" degan so'zlar bilan kirishilgani va masalalarni keltirish tartibi aynan Pazdaviyni asariga monand ekanidan ularni "Usulul Pazdaviy" ning qisqartmasi ekanidan darak beradi [5: 52-b.]. Qolaversa, "المُنْتَخَبُ – Muntaxab" – so'zi "saralab, ajratib olingan" ma'nosini bildiradi.

"Usulul Pazdaviy" ilmiy doiralarda katta qiziqish bilan o'rganilgani natijasida undagi ma'lumotlarni izohlash, sharhlash nafaqat hanafiy faqihlar o'rtasida keng ommalashgan, balki Shofe'iy ulamolar tomonidan ham asarga sharh yozilganini ko'rish mumkin. Jumladan, XIV asr Faxriddin Abul Makorim Ahmad ibn Hasan ibn Yusuf Jorbardiy Tabriziy (*vaf.* 746/1346) "Sharhu Usulul Pazdaviy" ("*Usulul Pazdaviy sharhi*") nomli sharh yozgan. Jorbardiy mashhur shofe'iy faqihi bo'lib, o'z davrida Tabriz shahri olimlari raisi bo'lgan. Uning bobosi Yusuf va o'g'li Ibrohim ham ushbu vazifa egalari bo'lishgan [13: 13-b.].

Hoji Xalifa (1609-1657) tilidan aytilganda "U – sha'ni ulug', hujjati mustahkam, qisqa iboralar bilan daqiq ma'nolarni bayon qilgan, uni o'rganishga olimlar intilgan, uni tushunish talabalarni charchatgan, so'zlari bir qadar jumboqli, ishora va dalolatlari yashirin asardir. Zabardast olimlar asardagi daqiq ma'nolarni bayon qilish, jumboqli iboralarni yechishda go'yoki musobaqa qildilar" [18: 182-b.].



XIV-XV asrlarda asarga Movarounnahrda to'rtta sharh: Hamididdin Ali ibn Muhammad Romishiy Buxoriy (vaf. 667/1268)ning "Favaidu Pazdaviy" ("Pazdaviydan olingan foydalar"), Husomiddin Husayn ibn Ali ibn Hajjoj Sig'noqiy (vaf. 714/1314)ning "Kofiy" ("Kifoya qiluvchi asar"), Abdulaziz ibn Ahmad ibn Muhammad Alouddin Buxoriy (vaf. 730/1330)ning "Kashful asror an usuli faxril islom Pazdaviy" ("Faxrul islom Pazdaviyning Usul" asari sirlarini ochish"), Jaloliddin ibn Shamsiddin Xorazmiy Go'rloniy (vaf. 767/1365)ning "Shofiy" ("Tuzatuvchi asar") [7: 7-b.] yozilgan.

Ayni asrlarda Misrda ham to'rtta: Qivomiddin Muhammad ibn Muhammad Kokiyy Misriy (vaf. 749/1349)ning "Bunyanul vusul fi sharhil usul" ("Usul" asarini sharhlashda vosita asoslar") nomli, Akmaliddin ibn Muhammad Bobartiy Misriy (vaf. 786/1398)ning "Taqrir li usuli Pazdaviy" ("Usulul Pazdaviy" ma'lumotlarini aniqlash") nomli, Amir Kotib ibn Umar Itqoniy Farobiy Misriy (1286-1351)ning "Shomil" ("Keng qamrovli asar") nomli, Jaloliddin Rasulan ibn Ahmad Tabboniy Misriy (vaf. 713/1313)ning "Ta'liq" ("Qo'shimchalar") nomli sharhlari bitilgan [3: 5-b.].

Makka va Yaqin Sharq mintaqasida ushbu davrga oid beshta: Abul Baqo Muhammad ibn Ahmad ibn Ziyu Makkiy (1387-1450)ning "Sharhu Usulul Pazdaviy" ("Usulul Pazdaviy sharhi") nomli, Mavlono Qutbiddin Sheroziy (vaf. 674/1276)ning yakunlanmagan 50 jildlik sharhi [7: 4-b.], Vajihiddin Umar ibn Abdulmuhsin Arzinjoniy (vaf. 700/1301)ning "Takmil sharh Usulul Pazdaviy" ("Usulul Pazdaviy"ning ma'lumotlarni to'ldirish") nomli, Abul Makorim Ahmad ibn Hasan Jorbardiy Tabriziy (vaf. 746/1346)ning "Sharh Usulul Pazdaviy" ("Usulul Pazdaviy sharhi") nomli, Mulla Husrav Muhammad ibn Faromuz Bursaviy (vaf. 885/1480)ning "Sharh usulul Pazdaviy" ("Usulul Pazdaviy sharhi") nomli, Xalil Rumiyy Bofiy (800/1403 sanada hayot bo'lgan)ning sharhlari yozilgani aniqlandi [10: 67-b.].

Janubiy Osiyo mamlakatlarida mazkur davr faqihlari tomonidan "Usulul Pazdaviy"ga yozilgan va bizgacha yetib kelgan uchta sharh: Alouddin Ali ibn Muhammad Hiraviy Musannafak (vaf. 775/1376)ning "Tahrir" ("Tuzatuvchi asar") nomli, Sulaymon ibn Ahmad Sindiy (XV asr)ning "Sharhu Usulul Pazdaviy" ("Usulul Pazdaviy sharhi") nomli, Mahmud ibn Muhammad Junfuriy Foruqiy Hindiy (vaf. 1062/1652)ning "Sharhul komil lil usul" ("Usul asariga mukammal sharh") mavjud [11: 17-b.].

Asarga yozilgan sharhlar mazkurlar bilan cheklanib qolmaydi. Sababi manbaning qo'lyozma nusxalari juda ko'p va dunyo bo'ylab keng tarqalgan. Birgina Iordaniya qirolligidagi "Oli Bayt islom bilimlari va madaniyati" nomli tadqiqot muassasasi tomonidan tayyorlangan qo'lyozmalar katalogida "Usul" asarining 108 ta qo'lyozmasi haqida ma'lumot berilgan. Ulardan muallifga eng yaqin davrda yozilgani Pazdaviy vafotidan 62 yil o'tib, 546/1151-yili Muhammad ibn Is'hoq Roziy tomonidan ko'chirilgan nusxasi bo'lib, kolofonida ustozidan ushbu kitobni o'qib o'rgangani xususida berilgan ijoza (shahodatnoma) mavjud. Asarning 612/1218-yilda ko'chirilib, hozirda Istanbuldagi Valiyuddin Jorulloh kutubxonasida 506-raqam bilan va 651/1253-yilda ko'chirilib, hozirda Parij milliy kutubxonasida 836-raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozmalari keyingi darajadagi eng qadimiy nusxalaridir [17: 451-b.].

Asarning ayni kunda O'zR FA ShIning qo'lyozmalar fondida 3 ta va O'zbekiston musulmonlar idorasi kutubxonasida 1 ta qo'lyozma nusxasi mavjud bo'lib, ular qadimiyligi, yozuvlarining aniq va chiroyliligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Jumladan, Sharqshunoslik instituti asosiy fondida 4739-raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozma kotib Shams ibn Ustod Xurdak Xaffiy tomonidan hijriy 776-yil Ramazon (milodiy 1375-yil fevral) oyida ko'chirib tugatilgan bo'lib, to'liq holatda saqlangan, hajmi 238 varaqdan iborat [12: 187-b.]. O'zbekiston musulmonlar idorasida 677-inventar raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozma ta'liq xati

elementlari bilan bezatilgan nasx xatida ko'chirilgan. Harflar yirik-yirik bo'lgani sabab sahifadagi satrlar atiga yettita, asosiy matn 1-b varaqdan boshlanib, 346-b sahifada muoraza bobi bilan yakunlangan. Bu esa, asarning ikkinchi yarmi yo'q bo'lib, nusxa to'liq emasligini bildiradi [14: 1-2-b.].

Manbaning zamonaviy nashri Madina universiteti ustoz doktor Said Bektosh tomonidan 2016-yil shaharning "Dorus siroj" matbaasida chop etilgan.

XIII-XIV asrlarda "Usulul Pazdaviy"ga yozilgan keng qamrovli sharhlar islom tafakkuridagi nazariy sohalar rivojlanishi va falsafa-mantiq mezonlarini umumiy-ilmiiy til sifatida yuzaga chiqishidagi asosiy omillardan biri bo'ldi. Mazkur jarayonlarda shofe'iylik va hanafiylik nazariy qoidalarini qiyosiy tahlil qilish va har ikkala tomonning ham afzal jihatalarni birlashtirish orqali usulul fiqhda yangi uchinchi yondashuv – muhaqqiqlar yo'nalishiga asos solindi. Yo'nalish asoschisi Muzaffariddin Ibn Soatiy (*vaf. 694/1295*) ustoz Abul Barakot Nasafiy "Manor" asarida Pazdaviy va Saraxsiy asarlari mazmunidan jamlagan tajribasini rivojlantirib, turli xil usul maktablari manbalarini, ya'ni, faxrul islom Pazdaviy Hanafiyning "Usul", Sayfiddin Omidiy Shofe'iyning (1156–1233) "Ihkam fi usul" asarlari mazmunini o'zining "Badi' an nizam bayna "Usulul Pazdaviy" val "Ihkam" ("*Usulul Pazdaviy*" va "*Ihkam*" asarlari o'rtasini go'zal tizimlashtirish") asarida jamlashga va ularni yangi ilmiy yondashuv asoslarida tahlil etishga erishdi [8: 17-b.]. Muzaffariddin Ibn Soatiyga deyarli zamondosh bo'lgan Ubaydulloh ibn Mas'ud Buxoriy ham muhaqqiqlar yo'nalishida

"Tanqih" ("*Tuzatuvchi*") asarini hanafiy usulidagi "Usulul Pazdaviy", shofe'iy usulidagi "Usul Ibn Hojib" va "Mahsulur Roziy" asarlari asosida yozdi. Natijada shofe'iy va hanafiylik usuli nazariy jihatdan ko'p masalalarda mushtarak ekani isbotlandi.

Xulosa qilib aytganda, faxrul islom Pazdaviyning "Usul" asari hanafiylik usulidagi uchinchi manba bo'lib, unda hanafiylik mazhabining shar'iy-huquqiy qonunlar ishlab chiqishdagi metodlari to'liq tartibga solinib, dalillar va amaliy misollar mo'jaz tarzda izohlab berildi. Asar uslub va mazmunan boy va asosli bo'lganidan, hanafiylik usulul fiqhi xulosasi va eng ustuvor qarashlari majmuasi sifatida qabul qilinib, uning asosida mazhab usulini o'rganish faqihlar uchun qulaylashdi. Natijada, "Usulul Pazdaviy" asari orqali hanafiy usuli mavzularini akademik tarzda o'rganish jadallashdi va mazhab usuliga oid keng qamrovli adabiyotlar bilan boyidi. XIV-XV asrlarda "Usulul Pazdaviy" asariga Movarounnahrda to'rtta, Misrda to'rtta, Hijoz, Eron va Turkiya hududlarida beshta, Hind diyorlarida ham beshta sharhlar yozilgani, hanafiylik mazhabi ta'limotlari ushbu mintaqalarda chuqur o'rnashib qolishiga nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

"Usulul Pazdaviy" asarining madrasalarda darslik sifatida o'rganilishi hanafiy usulining mustaqil fan sifatida shakllanishi va asardan Husomiddin Axsikatiyning "Muntaxab", Abul Barakot Nasafiyning "Manor" kabi darslik risola va qo'llanmalari yozilishiga sabab bo'ldi. Asardan hozirgacha islom bilim yurtlarida darslik sifatida foydalanishi manbada ko'tarilgan masalalar ayni kungacha dolzarb ahamiyatga ega ekanini bildiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulaziz Buxoriy. Kashful asror. – Bayrut. Dor kutub al-ilmiiya, 1997. J-1, – 688 b.
2. Abul Barakot Nasafiy. Kashful asror fi sharhil manor. – Bayrut: Darul kutubil ilmiya, 2009. J-1. – 625 b.
3. Akmaliddin Bobartiy. Taqdir sharh Usul Bazdaviy. – Makka: Jomi'a Ummul quro, 1997. J-1. – 458 b.
4. Alouddin Samarqandiy. Mezonul-usul (nashrga tayyorlovchi Muhammad Zaki Abdulbar). – Qatar Matba'atul kutub, 1404/1984. – 422 b.



5. Ahmad ibn Mustafo Toshkubrizoda. Miftahus Saoda. – Bayrut: Dorul kutubul ilmiya, 1995. J-2. – 632 b.
6. Ahmad ibn Muhammad Nosir Abbos Avdiy. Tahqiqul Muntaxabil Husomiy. – 752 b.
7. Jaloliddin Go'rloniy. Kashful asror. – Bayrut. Dorul kutubul ilmiyya, 2019. J-1. – 524 b.
8. Ibn So'atij. Badi'un nizom. – Makka: Ummul Quro universiteti nashriyoti, 2006. – 745 b.
9. Maqsudov D. Abul Barakot Nasafiyning tafsir ilmida tutgan o'rni: Tar. fan. nom. ... diss. avtoref. – T. : TIU, 2008. – 45 b.
10. Mulla Husrav Bursaviy. Mirqot al-vusul ila ilm al-usul. Bayrut, Dor al-ma'rifa, 2012. – 467 b.
11. Sulaymon ibn Ahmad Sindiy. Sharh usul al-Pazdaviy. Bayrut, Dor al-muqtabis, 2021. – 786 b.
12. O'zSSR Fanlar akademiyasining sharq qo'lyozmalari to'plami // A. A. Semyonov tahriri ostida/. T. : O'zSSR FA nashriyoti, 1957. J-15. – 488 b.
13. Faxriddin Ahmad Jorbardiy. Sharh ala ash-Shofi fi-s-sarf. – Bayrut. Dor ihyo at-turos al-arabiy, 2014. – 368 b.
14. Faxrul-islom Ali Pazdaviy. Usul al-Pazdaviy. Toshkent: O'MI kutubxonasi, № 677 qo'lyozma. – 346 b.
15. Faxrul islom Pazdaviy. Usulul Pazdaviy // nashrga tayyorlovchi: Said Bektosh. – Madina: Dor as-siroj, 2016. – 836 b.
16. Faxrul islom Pazdaviy. Usul. – Nyujersi: Prinston universiteti kutubxonasi, qo'lyozma №472/363.  
<https://dpul.princeton.edu/islamicmss/catalog/r494vn78f>. – 498 b.
17. Fihris ash-shomil lit turos arabiy al-islomiy al-maxtut (Qo'lyozmalar katalogi). – Amman: Muassasa Oli Bayt li-l-fikr al-islamiy, 2002. J-8. – 542 b.
18. Hoji Xalifa. Kashf az-zunun an asami al-kutub va-l-funun. – Bayrut. Dor kutub al-ilmiya, 1992. J-1. – 682 b.
19. Shamsulaimma Saraxsiy. Usul: tashrga tayyorlovchi Abul Vafo Afg'oniy. – Haydarobod: Dor al-ma'orif an-No'moniya. J-1. – 416 b.

**Ma'murjon ERKAYEV,**  
Imom Buxoriy nomidagi  
Toshkent islom instituti ilmiy tadqiqot faoliyatini  
tashkil etish bo'limi boshlig'i

## ISLOM HUQUQIDA ORIYA MASALASI

### THE MATTER OF ORIYA IN ISLAMIC LAW

**Annotasiya.** Ushbu maqolada hanafiy mazhabining klassik davri manbalarida ijtimoiy-huquqiy munosabatlarga oid oriya masalasi, uning lug'aviy va ilmiy istilohiy ma'nolari hamda oriya masalasining hanafiylarga, ahli sunna val jamoaning boshqa mazhablariga ko'ra tushunilishi o'rganilgan. Islom huquqiga ko'ra oriya, omonat, garov, ijara bitimlari o'rtasidagi farqlar va ularga xos fiqhiy tushunchalar qiyosiy tahlil etilgan. Shuningdek, oriya beruvchi va oluvchining huquq hamda majburiyatlari o'rganilgan.

Ilmiy maqolada oriya masalasida fikr bildirgan movarounnahrlik va islom dunyosida taniqli faqihlarning asarlari, jumladan, Burhoniddin Mahmud Buxoriyning "Muhitul Burhoni" asari, Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" asari, shamsul aimma Saraxsiyning "Mabsut" asari, shuningdek, hozirgi zamon olimlaridan Vahba Zuhayliyning "Fiqhul islomiy va adillatuhu" asarlaridagi oriya doir masalalar qiyosiy tahlil qilindi va ilmiy xulosalar berildi.

**Kalit so'zlar:** oriya, omonat, garov, ijara, klassik, savob, gunoh, ittifoq, mazhab.

Islom huquqida har bir fiqhiy atamaning tilshunoslik nuqtai nazardan asos deb qaraladigan ma'nolari bo'lib, fiqhning muayyan sohasini o'rganishda atamaning ikki xil jihatini bilish muhim sanaladi. Oriya masalasini o'rganishdan oldin ham uning lug'aviy va istilohiy ma'nolari bilan tanishish maqsadga muvofiqdir.

**Annotation.** The matter of oriya (contract for free use of something without any compensation) related to socio-legal relations in the sources of classical period of Hanafi madzhab, its lexical and scientific terminological meanings, as well as the understanding of oriya by Hanafi and other madzhab of ahli sunna wal jamaa is studied in this article. The differences between oriya, deposit, pledge, and lease agreements and their specific jurisprudential concepts are comparatively analyzed according to Islamic law. Also, the rights and obligations of the giver and receiver of oriya are studied.

The matters concerning oriya were comparatively analyzed in the works of well-known scholars from Movarounnahr and in the Islamic world who expressed their opinions on this matter including the work "Muhitul Burhani" by Burkhaniddin Mahmud Bukhari, the work "Hidaya" by Burkhaniddin Marginani, the work "Mabsut" by Shamsul Aimma Sarakhsi, as well as the work "Fiqhul Islami and Adillatuhu" by one of the contemporary scholars Vahba Zuhayli and scientific conclusions were given in the scientific article.

**Key words:** oriya (contract for free use of something without any compensation), deposit, pledge, lease, classic, sawab (reward from Allah for a good deed), sin, alliance, madzhab.



*Oriya so'zining lug'aviy ma'nosi:* arab tili-da العارية (*al-'aariyatu*) so'zining oxiridagi "yo" harfi tashdidli, gohida tashdidsiz ham kelishi mumkin. Ko'pligi عواري (*'avaariyyu*) shaklida keladi. "Biror narsani talab qilmoq" ma'nosini anglatadi.

Shuningdek, *oriya* so'zi or-nomus, izzat-nafs ma'nolarini ifoda qiladi. U *oriya* aqdi (*kelishuvi*) uchun ham ishlatiladi. Shunda mazkur so'z عار (*'aaro*) fe'lidani yasalgan bo'lib, "keldi, ketdi", ma'nolarini ifoda qiladi [13: 446-b.].

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida *oriyat* – birovdan vaqtincha olingan narsa, qarzga olingan buyum, or-nomus, izzat-nafs [19: 137-b. ], ma'nolarini ifoda qiladi, deb keltirilgan.

Badriddin Ayniy (*vaf. 1451*) "Sahihul Buxoriy" asariga yozgan sharhida *oriya* so'zi arab tilida uch xil ma'noda qo'llanishi haqida ma'lumot bergan. Ular:

عارة – (*'aarrotun*), buni Javhariy (*vaf. 1003*) va Ibn Sayyida (*vaf. 1066*) aytgan. عارة – (*'aaroo-tun*) "alif" bilan yoziladi. Buni Munziriy (*vaf. 1258*) aytgan. عارة – (*'aarotun*), buni Azhariy (*vaf. 981*) aytib o'tgan. Barchasining o'zagi عار (*'aarun*) bo'lib, "keldi, ketdi" ma'nosini ifoda qiladi. Shuning uchun ko'p kelib-ketadigan odamni arablar العيار (*al-ayyaaru*) deb ishlatganlar [9: 257-b.].

Abu Nasr Javhariy (*vaf. 1003*) "Sihoh" ("Eng to'g'ri") asarida bayon qilishicha: "*Oriya*" so'zi "or" so'ziga mansub bo'lib "or-nomus, ayb" ma'nosini ifoda qiladi. Odatda birovdan biron bir narsa so'rab borgan shaxs or-nomusini oyoq osti qilib va biroz bo'lsa-da o'zini aybdor his qilib boradi"[12: 761-b.].

Asma'iy (*vaf. 831*) "Faxir fil amsal" ("Misollarda maqtalgan") asarida ma'lumot berishicha: "*Oriya* bir narsani bir joydan boshqa joyga o'zgartirish, ma'nosini ifoda qiladi. Masalan, أعزني ثوبك (*a'irni savbaka*) "Kiyimingizni menga *oriya* bering", degan so'zining ma'nosi "Kiyimingizni menga berib, uni o'zgartiring" [15: 256-b. ] deganidir.

Abul Abbas Fayyumi (*vaf. 1368*) "Misbahul munir" ("Nur taratuvchi chir-oq") kitobida shunday keltirgan: "Abu Lays

Samarqandiy (*vaf. 393/1003*) bu so'zning عارية (*'aariyatun*) deb aytilishiga sabab, talab qiluvchisi or-nomus va aybga qoladi, dedi. Javhariy ham xuddi shu fikrni bildirgan. Ayrimlar bu so'z عار القرس arablardagi (*'aar-ol-farosu*) ya'ni, "Ot qochib ketdi" jumlasidagi عار (*'aaro*) fe'lidani yasalgan, degan fikrni ilgari surgan. Bu fikrlar haqiqatga xilofdir. العارية (*al-'aariyatu*) so'zi فعالية (*fa'aliyyatun*) vaznida bo'lib, uning "ayn" barobaridagi "alif" aslida "vov"dan qalb (ya'ni, almashtirmoq) qilingan. Shu bois, arablar odatda qaytarib beriladigan narsalarni o'zaro bir-birlariga berib yana qaytarib olsalar quyidagicha ishlatadi: يتعاورون العواري ويتعاورونها (*yata'aavaruuna-l-'avariyya va yata'avvarunaha*) ya'ni, "qaytarib beriladigan narsani o'zaro bir-birlariga berib turadilar, degan ma'noni ifoda qiladi" [5: 166-b.].

*Oriya* so'zining lug'aviy ma'nosi haqida arab tilidagi lug'at, qomus, mo'jam kitoblarida bir-biriga yaqin bo'lgan fikrlar tahlili shuni ko'rsatadiki, *oriya* so'zining "ayn" barobaridagi "alif" aslida "vov" yoki "yo"dan qalb qilingani xususida olimlar bir-biridan farqli qarashlarni ilgari surishgan. Mazkur ixtilofdan kelib chiqib, *oriya* so'zining "ayn" barobaridagi "alif" aslida "vov"dan qalb qilingan bo'lsa, bir narsani vaqtincha foydalanish uchun berish, qarzga berish, ma'nolarini ifoda qilgan. Agar "yo"dan qalb qilingan bo'lsa, keldi-ketdi, or-nomus, ayb ma'nolarini ifoda qiladi.

*Oriya so'zini o'zbek tilida qo'llanishi:* arab tilidagi العارية (*al-'aariyatu*) so'zi "O'zbekiston milliy ensiklopediyasida" va "O'zbek tilining izohli lug'ati" kitoblarida "*oriyat*" deb keltirilgan. Islom huquqiga oid o'zbek tilidagi manbalarda, xususan, 1994-yil o'zbek tiliga tarjima qilinib nashr etilgan "Muxtasar" kitobida "*Oriyat*" [17: 196-b. ], "Majma'ul maqsud" asarining 2015-yilda qayta ishlangan nashrida "*Oriyat*" [14: 234-b.], deb qo'llanilgan. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (*vaf. 2015*) "Kifoya" asarida *oriya* deb qo'llagan.

Mazkur masalada *oriya* deb qo'llanishi maqsadga muvofiqdir. Chunki arab tilida-

gi oxiri “tai marbuta” bilan tugagan ismlar o‘zbek tilida talaffuz qilinganda ko‘pincha so‘zning oxiri “a” yoki “ya” harflari bilan ifodalanadi. Masalan: arab tilidagi الفَاتِحَةُ “al-fatihatatu”, حَبِيبَةُ “Habibatu”, الكِفَايَةُ “al-kifayatu” so‘zlari o‘zbek tilida “fotiha”, “Habiba”, “ki-foya” deb qo‘llaniladi. Shu bois, arab tilidagi العَارِيَةُ (*al-‘aariyatu*) so‘zini o‘zbek tilida *oriya* deb qo‘llash to‘g‘ri, degan fikrni xulosa qilish mumkin.

*Oriya so‘zining ilmiy-istilohiy ma‘nosi: oriya* so‘zining ilmiy-istilohiy yoki ilmiy-nazariy ma‘nosini faqihlar turli ta‘riflar bilan ifodalagan. Jumladan, Burhoniddin Marg‘inoniy (*vaf. 1197*) “Hidoya” asarida “*Oriya* – foydani evazsiz mulk qilib berish” [10: 246-b. ], deb ta‘rif bergan.

Mazkur asarni sharhlagan faqih Badriddin Ayniy “Binoya fi sharhil hidoya” (“*Hidoya*”ning sharhida bino qiluvchi”) asarida shunday keltirgan: “Ta‘rifda keltirilgan “mulk qilib berish” deyilishi ijara va boshqa har qanday tijoriy-mulkiy munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Ammo “evazsiz” deyishi bilan esa, yuqoridagi ijara va boshqa tijoriy-mulkiy munosabatlar *oriya* kelishuvining tarkibiga kirmasligini bildiradi” [8: 168-b.].

Vahba Zuhayliy (*vaf. 2015*) “Fiqhul islamiy va adillatuhu” (“*Islom fiqhi va uning dalillari*”) asarida *oriyaning* istilohiy ma‘nosi xususida fikr bildirgan faqihlarni ikki turga ajratgan:

Shamsul aimma Saraxsiy va molikiy mazhabi faqihlari: *oriya* – bu biror narsadan evazsiz (ijara haqisiz) foydalanish uchun mulk qilib berish, deb ta‘rif berganlar.

Muhammad Shofe‘iy va hanbaliy mazhabi faqihlari: *oriya* – bu biror narsadan evazsiz (ijara haqisiz) foydalanishni muboh qilish [20: 54-b. ], deb ta‘rif berganlar.

Demak, mazhab ulamolarning *oriya* so‘zining istilohiy ma‘nosiga bergan ta‘riflaridan quyidagi masalalar yuzaga keladi.

Birinchiidan, hanafiy va molikiy mazhabi faqihlarining fikriga ko‘ra, *oriya* kelishuvi mulkni ifoda qiladi. Shu bois, *oriyaga* oluvchi vaqtincha foydalanish uchun olgan mol-mulkn, ya‘ni narsani boshqa bir insonga *oriyaga* berishi mumkin bo‘ladi.

Ikkinchidan, shofe‘iy va hanbaliy mazhabi faqihlarining fikriga ko‘ra, *oriya* kelishuvi mol-mulkdan (*narsadan*) foydalanishning mubohligini ifoda qiladi. Shu bois, *oriyaga* oluvchi vaqtincha foydalanish uchun olgan narsani boshqa insonga *oriyaga* berishi joiz emas.

Shuningdek, *oriyaning* istilohiy ma‘nosi islom huquqshunosligiga oid kitoblarda bir-biriga yaqin bo‘lgan ta‘riflar bilan ifodlangan. Jumladan, Shayxzodaning (*vaf. 1078*) “Majma‘ul anhur” (“*Daryolar jamlanmasi*”) kitobida *oriya* – bu foydani badalsiz mulk qilib berish [2: 479-b. ], deyilgan.

Ibn Mavdud Mavsiliyning (*vaf. 1284*) “Ixtiyor li ta‘lilil muxtor” (“*Muxtor (kitobi)ning illatlariga ixtiyor qilingan so‘zlar*”) kitobida *oriya* – bu foydani hiba (*hadya*) qilish [3: 55-b. ], deyilgan.

Alouddin Hasfakiyning (*vaf. 1677*) “Durrul muxtor” kitobida *oriya* – bu foydani tekinga mulk qilib berish [7: 556-b. ], deyilgan.

Hanafiy va molikiy faqihlarining fikrlariga ko‘ra, *oriya* kelishuvi garchi mulkni ifoda qilsa-da, *oriyaga* oluvchi olingan narsani to‘liq tasarruf qilish huquqiga egaligini anglatmaydi. Balki *oriyaga* oluvchi qisman tasarruf qilish huquqiga ega bo‘ladi. Masalan, *oriyaga* oluvchi belgilangan qoidalar asosida mol-mulk, ya‘ni narsani boshqa insonga *oriyaga* berishi, garovga qo‘yishi, omonatga qo‘yishi, qarzga berishi joiz. Ammo uni ijaraga berishi, hadya, sadaqa qilib yuborishi mumkin emas.

Islom huquqida insonlar o‘rtasidagi turli bitim, kelishuv va boshqa munosabatlar belgilangan shart va ruknlar asosida bo‘lmasa, mazkur bitim, kelishuv va boshqa ijtimoiy munosabatlar huquqiy ahamiyatga ega emas, deb qaraladi.

*Oriya* kelishuvining asoslaridan biri uning rukni va shartlariga amal qilishdir. Aks holda, kelishuv tuzilgan hisoblanmaydi va turli kelishmovchiliklarga olib keladi.

Vahba Zuhayliy: “*Oriyaning* rukni hanafiy faqihlari nazdida ijob va qabuldir. Hanafiy mazhabining ko‘plab ulamolari (*Abu Hanifa, Abu Yusuf va Muhammad*) nazdida esa, *oriyaga* beruvchining (*keyingi o‘rinlarda, mulk-*





*dor*) taklif bildirishi rukn hisoblanadi. Ammo *oriyaga* oluvchining qabul qilishi rukn emas, deganlar. Imom Zufarning fikriga ko'ra, bu asl qoida bo'lib, u ham rukndir" [20: 55-b. ], degan.

Demak, *oriya* kelishuvida taklif bildiruvchining (*vojib qiluvchi*) taklif bildirishi ijob deyiladi. Bu mulkdor yoki *oriyaga* oluvchi tomonidan bildirilishi mumkin.

Faqihlarning yuqoridagi ixtilofi sababli ushbu masala yuzaga keladi. Agar bir kishi "Mana bu narsamni falonchiga *oriyaga* bermayman", deb qasam ichib, so'ng *oriyaga* berish maqsadida u bilan *oriya* kelishuvini tuzish istagida ekanini bildirdi, ammo u (*falonchi*) uning taklifini qabul qilmadi. Faqihlarning nazdida, u xonis (*qasamini buzuvchi*) bo'ladi. Zufarning nazdida esa, xonis bo'lmaydi [20: 56-b.].

Faqihlarning nazdida *oriya* kelishuvida taklif bildiruvchining taklifini qabul qilish *oriya* kelishuvida rukn hisoblanmaydi. Shu bois, u taklif bildirishi bilan *oriya* kelishuvi tuzilgan hisoblanadi va yuqoridagi masaladagi holatda xonis bo'ladi. Ammo Imom Zufar qasam ichuvchi taklif bildirgani bilan qabul qiluvchi tomonidan rozilik bildirilmasa, kelishuv tuzilgan hisoblanmaydi, shu bois, u xonis bo'lmaydi, degan.

"Fatavoi Olamgiriya" ("*Olamgirning fatvolari*") asarida ta'kidlanishicha: "*Oriyaning asosiy rukni ijobdir. Qabul esa, uch as'hoimiz (Abu Hanifa, Abu Yusuf va Muhammad) nazdida rukn emas*"[18: 403-b.].

Shu o'rinda islom huquqida ko'plab savdo-sotiq va boshqa munosabatlarda rukn hisoblangan ijob va qabul tushunchalarining mazmun-mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Iyjob (*arab. – lozim qilish, vojib qilish, majburiyatni yuklash*) – islom iqtisodiyotida savdo ruknlaridan biri (*savdo munosabatlari sotuvchi tomonidan sodir bo'ladigan so'z, holat, ish*) [18: 403-b.].

*Oriya* masalasida ijob ikki tarafdano birining *oriya* kelishuvini tuzish haqida avval aytgan gapidir. U mulkdor bo'ladimi yoki *oriyaga* oluvchi bo'ladimi, farqi yo'q. Misol

uchun, mulkdorning "Mana shu narsani senga *oriyaga* berdim", deyishi. Bu bilan u *oriyaga* berish niyatida ekanini ma'lum qilgan bo'ladi. Shuningdek, *oriyaga* oluvchining "Mana shu narsani menga *oriyaga* bering", deyishi. Bu bilan u biron moddiy narsani, ya'ni mol-mulkni *oriyaga* olish niyatida ekanini bildirgan bo'ladi.

Qabul – (a. قبول –) ma'qullash; ijozat berish; bitishuv, rozilik. U turli ma'noni, birinchidan, taklif, iltimos va shu kabilarga bildirilgan rozilik, ma'qullash. Ikkinchidan, beriladigan, taqdim etiladigan, topshiriladigan narsani olish; qabul qilish [16, 198-b. ]ni anglatadi.

*Oriya* masalasida "qabul" ikki tarafdano birining *oriya* kelishuvini tuzish haqida keyin aytgan gapi yoki uning o'rniga o'tadigan ishidir. Misol uchun, mulkdorning yuqorida aytgan gapidan keyin oluvchining "*Oriyaga oldim*", deyishi yoki indamasdan molni olishi. Shuningdek, *oriyaga* oluvchining yuqorida aytgan gapidan so'ng mulkdorning "*Oriyaga berdim*" deyishi yoki indamasdan unga molni topshirishi tushuniladi.

Abul Husayn Quduriy (*vaf. 1037*) "Muxtasarul Quduriy" asarida ta'kidlanishicha: "*Oriya* kelishuvi "Senga *oriyaga* berdim", "Senga mana bu yerni yeb turishing uchun berdim", "Senga mana bu kiyimni berdim", "Seni ushbu ulovimga mindirdim" (*bu holatda hadyani iroda qilmagan bo'lishi shart*), "Mana bu xodimni xizmatiga berdim", "Hovlim senga maskan" yoki "Umrbod maskandir" kabi so'zlar bilan yuzaga keladi"[4: 133-b.].

Qozixon O'zgendiy (*vaf. 1196*) "Fatavoi Qozixon" ("*Qozixonning fatvolari*") asarida bayon qilinishicha: "Agar bir kishi bironing mulkini *oriyaga* so'rasa, egasi sukut saqlab tursa, *oriya* kelishuvi yuzaga kelgan hisoblanmaydi. Chunki shamsul aimma Saraxsiy: "*Oriya* sukut bilan sobit bo'lmaydi", degan"[11: 278-b.].

Faqihlarining fikriga ko'ra, hanafiy mazhabida *oriya* kelishuvining yuqorida aytilgan asosiy rukni ya'ni, ijob topilsagina to'g'ri bo'ladi. Shuningdek, "tamlik" (*mulk qilib berish*) ma'nosini ifoda qiluvchi so'zlar bilan ham joiz bo'ladi. Agar *oriya* masalasida tara-

flardan biri kelishuvni vojib qiluvchi so'zni aytsa, ikkinchi taraf qabul qilmasa yoki sukut saqlab tursa, kelishuv yuzaga kelgan hisoblanmaydi. Balki, bu inkor ma'nosini ifoda qiladi. Ammo kelishuvni vujudga keltiruvchi (*vojib qiluvchi*) so'z aytilgach, qabul qiluvchi mol-mulkni indamasdan topshirishi yoki olib ketishi taraflar o'rtasida kelishuv yuzaga kelganini ifoda qiladi.

*Oriyaning shartlari* xususida Alouddin Kosoniy (*vaf. 587/1191*) "Badoeus sanoe' fiy tartibish sharoe'" asarida quyidagi bir necha jihatlarni sanab o'tgan.

Birinchi, oqil bo'lishi: *oriya* kelishuvini tuzuvchi oqil, ya'ni aqli rosa bo'lishi shart. Majnun, ya'ni aqli norosa yoki voyaga yetmagan bola tomonidan kelishuv amalga oshirilmaydi. Ammo hanafiy mazhabi ulomlarining nazdida bola balog'atga yetishi shart emas. *Oriya* kelishuvi savdo-sotiq va shu kabi ishlarga izn berilgan bola tarafidan amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, hur (*ozod, qul emas*) inson bo'lishi ham shart qilinmagan, chunki kelishuv savdo-sotiq ishlariga izn berilgan qul tarafidan ham tuzilishi mumkin.

Ikkinchi, *oriyaga* oluvchi mol-mulk, ya'ni narsani qabz (*qo'lga olishi*) qilib olishi; *oriya* kelishuvi ixtiyoriy xususiyatga ega bo'lgan xayr-u saxovat amallaridan hisoblanadi. Shu bois, vaqtincha foydalanishga roziligining o'zi kifoya qilmaydi. Demak, *oriyaga* oluvchi mol-mulk, ya'ni narsani qabul qilib qo'lga olishi shart.

Uchinchi, *oriya* kelishuvida mol-mulk, ya'ni narsa foydalanish davomida yo'q bo'lib ketmaydigan yoki jinsi o'zgaraydigan narsa bo'lishi; chunki *oriya* kelishuvi biror narsadan vaqtincha foydalanishni ifoda qiladigan kelishuvdir. Maqsad narsani ma'lum bir mudat ushlab turish emas [6: 372-b.].

Islom huquqida foydalanish davomida yo'q bo'lib ketadigan narsalar qatoriga oziq-ovqat mahsulotlarini, jinsi o'zgaradigan narsalar sirasiga esa pul birliklarini kiritish mumkin.

"Fatavoi Olamgiriya" (*"Olamgirning fatvolari"*) asarida shunday keltirilgan: "Ulamolar *oriya* kelishuvini tuzish uchun balog'at shart

qilinmaydi. Har ikki taraf ham balog'atga yetmagan bo'lsa-da, tasarruf qilishga izn berilgan bo'lsa, kelishuv tuzishi, mol-mulkni topshirishi va qabul qilishi mumkin" [18: 403-b.].

Shu o'rinda, *oriya* kelishuvida balog'atga yetmagan bolalar bilan bog'liq masalaga alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Faqihlar balog'atga yetmagan bolalarning tasarrufi xususidagi masalalarni ikki turga bo'lib o'rganganlar:

Valiysi (*ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar*) tarafidan (*savdo-sotiq va boshqa shu ma'nodagi tasarruflarga*) izn berilmagan bolalar; ayrim bolalar rivojlanishining kechikishi yoki qobiliyatining pastligi sababli foydani zarardan ajrata olmaydi.

Valiysi tarafidan tasarruflarga izn berilgan bolalar; bunda bolalar foydani zarardan to'liq ajrata olmasa-da, tasarruf qilishga ko'nikmasini hosil qilishi, ijob va qabulni anglashi hamda boshqa tajribalarni shakllantirishni inobatga olingan bo'lishi mumkin.

Faqihlar yosh bolaning tasarrufi joizligiga quyidagi oyatni dalil qilib keltirganlar.

"Yetimlarni, to balog'at yoshiga yetgunlariga qadar nazorat qilib (*voyaga yetish vaqtini kuzatib*) turingiz: voyaga yetganlarini sezsangiz, (*qo'lingizdagi omonat*) mol-mulkklarini o'zlariga topshiringiz!" [1: 77-b.].

Mazkur oyatdagi "Yetimlarni, to balog'at yoshiga yetgunlariga qadar nazorat qilib (*voyaga yetish vaqtini kuzatib*) turingiz" deyilgan. Hali balog'atga yetmagan bolalarni kuzatib, nazorat qilish va biror narsaga ya'ni, oldi-berdi amaliyotlariga tayyorgarligini tekshirish uchun uni mazkur sohalarida sinab ko'rish lozim. Bu esa, islom huquqida hali balog'atga yetmagan bolalarga tasarruf qilish huquqi joizligiga dalolat qiladi.

Sufyon Savriy: "Abu Hanifa, Ahmad, Is'hoq kabi faqihlar: "Yosh bola valiysining izni bilan biror narsani sotishi yoki sotib olishi joiz bo'ladi. Abu Hanifadan kelgan rivoyatlarning birida, yosh bolaga valiysi izn bermasa ham tasarruf qilishi joiz bo'ladi. Ammo mazkur kelishuv valiysining iz-



niga bog'liq bo'ladi. Ibn Munzir (*vaf. 930*): "Ahmad va Is'hoq: "Yosh bola arzimas narsalarni valiysining iznisiz sotishi yoki sotib olishi joiz bo'ladi. Ammo tamyiz (foйда-zararni ajratish) qobilyatiga ega bo'lmagan yosh bolalarning barcha turdagi tasarrufi joiz bo'lmaydi. Bu o'rinda valiysining izn berishi yoki bermasligining ahamiyati yo'q. Lekin arzimas narsalarda bo'lsa tasarrufi joiz bo'ladi. Abu Dardodan rivoyat qilinadi: u kishi bir boladan chumchuq sotib oldilar va qo'yib yubordilar. Buni Ibn Abu Muso zikr qilgan".

Arzimas narsa deganda – non, holva bo'lagi, ko'katlar va boshqa kam miqdordagi narsalar tushuniladi.

Tamyiz yoshidagi bolaning *oriya* kelishuvini amalga oshirishi joiz. Ammo mazkur kelishuvning joiz bo'lishi valiying izniga bog'liq bo'ladi. Chunki yosh bolaga qiymati yuqori bo'lgan narsalarda oldi-sotdi qilishga ruxsat berish oilaning iqtisodiy ahvoriga katta zarar keltirishi mumkin.

*Oriya* so'zi lug'aviy va ilmiy-istilohiy ma'nolaridan kelib chiqib, u biror bir narsa

yoki mol-mulkdan kelishuv asosida evazsiz, ya'ni ma'lum miqdordagi ulushsiz (*tekin*) foydalanishni ifoda qiladi.

*Oriya* kelishuvida tomonlar uning rukn va shartlariga amal qilsalargina kelishuv haqiqiy hisoblanadi. Odatda, odamlar bir-birlaridan "falon narsangizni berib turing" deb so'raydi. Mulkdor "Xo'p, mayli" deb beradi. Foydalanib bo'lgach, qaytarib beradi. Mana shu kelishuv *oriya* masalasining rukn va shartlariga to'g'ri keladi.

Xulosa qilib aytganda, *oriya* masalasi garchi insonlar o'rtasida keng tarqalgan urf-odat, qadriyatlardan biri hisoblansa-da, bugungacha faqatgina yirik hajmdagi mulk ob'yektlardan va naqd puldan boshqa narsalarni *oriya* ga berish bo'yicha huquqiy normalar ishlab chiqilmagan. Ba'zan odamlar orasida o'zaro og'zaki kelishuv asosida tuzilgan bitimlar turli tortushuvlarga sabab bo'lmoqda. Shu bois, qo'shnichilik, qarindosh-urug'chilik munosabatlarini mustahkamlashda *oriya* masalasini jamoatchilikka tushuntirish va uning huquqiy normalarini ilmiy tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulaziz Mansurov. Qur'oni karim ma'nolar tarjimasini va tafsiri. – T. : "O'zbekiston islom universiteti" 2018. – 621 b.
2. Abdurrahmon ibn Muhammad ibn Sulaymon Kalibuliy. Majma'ul anhur fi sharhi multaqil abhur. – Bayrut. "Dorul kutubul ilmiyya". 1998. 4 mujallad/3. – 567 b.
3. Abudlloh ibn Mahmud ibn Mavdud Mavsiliy Hanafiy. Al-Ixtiyor lita'lil-muxtor. – Barut. "Dorul kutubul ilmiyya". J. 3. – 183 b.
4. Abul Husayn Quduriy. Muxtasarul quduriiy fil fiqhil hanafiy. – Bayrut. "Dorul kutubul ilmiyya". 1997. – 671 b.
5. Ahmad ibn Muhammad ibn Ali Al-Fayyumiyy al-Muqriy. Misbahul Munir fi g'aribish-sharhil-kabir. – Bayrut. "Maktabutul Lubnan". 1987. – 280 b.
6. Aloduddin Kosoniy. Badoeus sanoe' fi tartibish sharoe'. – Bayrut. "Dorul kutubul ilmiyya". 2003. J. 8. – 520 b.
7. Alouddin Hasfakiy. Durrul muxtor sharhu tanvirul absor va jame'ul bihar. – Bayrut. "Dorul kutubul ilmiyya". 2002. – 782 b.
8. Badriddin Ayniy. Al-Binoya fi sharhil hidoya. – Bayrut. "Dorul-fikr", 1990. J. 9. – 564 b.
9. Badriddin Ayniy. Umdatul Qoriy sharhi sahihul Buxoriy. – Bayrut. "Dorul kutubul ilmiyya". 2001. J. 13. – 440 b.
10. Burhoniddin Marg'inoniy. Hidoya sharhi bidoyatul mubtadiy. – Bayrut. "Dorul kutubul ilmiyya". 1990. J. 3. – 360 b.

11. Faxriddin Qozixon. Fatavoi Qozixon (Qozixonning fatvolari). – Bayrut. “Dorul kutubul ilmiyya” 2009. J. 3. – 660 b.
12. Ismoil ibn Hammod Javhariy. As-Sihoh tojul lug’ati va sihohul arabiyya. – Bayrut. : “Dorul ilm lil-Maloyin” 1979. J. 3. – 1287 b.
13. Majduddin Muhammad ibn Yoqub Fayruzabodiy. Qomusul muhit. – Damashq: “Al-Muassasatul-Risala” 1998. – 1500 b.
14. Maqsudxo’ja ibn Mansurxo’ja. Majma’ ul-maqsud: 2-kitob/ Mas’ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. – T. : “Sharq” 2015. – 608 b.
15. Mufazzal ibn Salama. Al-Faxir fil amsal. – Liviya. “Dorul kutubul ilmiyya”. 2011. – 320 b.
16. O‘zbek tilining izohli lug’ati. T. Mirzayev (rahbar) va boshqalar. – T. : “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 592 b.
17. R. Zohid, A. Dehqon. Muxtasar: (Shariat qonunlariga qisqacha sharh). Nashrga tayyorlovchilar. ; – T. : Cho’lpon, 1994. – 336 b.
18. Shayx Nizom va ulamolar jamoasi. Al-Fatavo hindiyya. – Bayrut. “Dorul kutubul ilmiyya”. 2000. 6 mujallad/ №4. – 616 b.
19. T. Mirzayev (rahbar) va boshq. ; O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. O‘zR FA Til va adabiyot in-ti. – T. : “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 3-kitob, 2008. – 306 b.
20. Vahba az-Zuhayliy. Fiqhul islam va adillatuhu. – Damashq: “Dorul-fikr” 1985. – 8 mujallad/J. 5. – 870 b.



**Ilhomjon G'OFUROV,**  
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
tayanch doktoranti

## JALOLIDDIN XORAZMIYNING ILMIY MEROSI SCIENTIFIC HERITAGE OF JALOLIDDIN KHORAZMI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hanafiy olim Jaloliddin Xorazmiy rahmatullohi alayhning yozib qoldirgan asarlari, ularning ilmiy qiymati va olimlar tarafidan birdek qabul qilingani haqida so'z boradi. Shuningdek, olim tarafidan Burhoniddin Marg'inoniy rahmatullohi alayhning "Hidoya" kitobiga yozgan sharhi – "Kifoya fi sharhil Hidoya" asari mo'tabar sharhlardan va "Hidoya"ga yozilgan avvalgi sharhlardan ekani, uning boshqa sharhlardan ustunlik taraflari ochib berilgan. Bundan tashqari maqolada olimning qalamiga mansub asarlar haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** fuqaho, mazhab, rivoyat, muxtasar, matn, sharh, qo'lyozma nusxalar, asarlar.

Hijriy VIII asrdan boshlab hozirgi kuni-mizgacha islom olimlari tarafidan, asosan, ulardan oldingi ulamolar yozib qoldirgan matn va muxtasar kitoblarni sharhlash, hoshiya va ta'liqotlar bitish hamda raddiya ko'rinishida asarlar ta'lif etildi.

Bu davrda yashab ijod qilgan fuqaholar, hanafiy mazhab imomlari va mashoyixlari rivoyat qilgan so'zlar doirasidan chiqmaganda holda kitoblar tasnif etishdi. Imom Zayla'iy, [1: 147-b. ] (vaf. 762/1361 y.) Bobirtiy, [8: 255-b. ] (vaf. 786/1385 y.) va Kamol ibn Humom (vaf. 861/1457 y.) singari olimlar o'zlaridan o'ta daqiq va foydasi tengsiz meroslar qoldirganlar. Mana shu olimlarning avvalida mashhur hanafiy olim Jaloliddin Xorazmiy rahmatullohi alayh (vaf. 767/1366) turadi. Zero, yuqorida sanab o'tilgan olimlarning barchasi o'z tasnifotlarining ko'p o'rinlarida Jaloliddin

**Annotation.** This article deals with about the writings of Hanafi scholar Jalaluddin Khorazmi, their scientific value and recognition by scientists.

Also, it was revealed the commentary on the book "Hidaya" – "Al Kifoya fi sharmil Hidaya" by scholar Burhoniddin Marginani. They are one of the most authoritative commentaries and was previous commentaries which was written on the work "Hidaya" The advantages over other reviews are revealed too. In addition, the article provides information about works of the scientist.

**Key words:** scientist on fiqh, madhab, narration, summary, text, commentary, manuscript copies, works.

Xorazmiy rahmatullohi alayhning asarlaridan foydalanganlarini ko'rish mumkin.

Jaloliddin Xorazmiy rahmatullohi alayh umri davomida islom fanlari – hadis, fiqh, usul, aqida, Qur'on ilmlarini mukammal o'rganib, o'zidan bir qancha barakali asarlarini meros qoldirgan qomusiy olim hisoblanadi. Quyida u kishi ta'lif etgan asarlarini zikr qilamiz:

1. Jaloliddin Xorazmiy rahmatullohi alayhni mashhur qilgan shoh asari bu "Kifoya fi sharhil Hidoya" bo'lib, Burhoniddin Marg'inoniy rahmatullohi alayhning "Hidoya" asariga yozilgan to'rt jildli sharh hisoblanadi.

Manbalarda asar "Kifoya" deb yuritilsa-da, uning to'liq nomi "Kifoya fi sharhil Hidoya" shaklida keltiriladi. Qolaversa, bu asarning nisbatini Jaloliddin Xorazmiyga bergan har bir olim mazkur nom bilan atashgan.

Xossatan, muallifning o'zi ham asar muqaddimasining oxirida shunday degan: "Hidoya" kitobidan mubham va mushkul bo'lgan joylarini to'liq izohlagan, muxtasar va katta hajmdagi sharhlarga murojaat qilishdan kifoya qiluvchi bu kitobni "Kifoya fi sharhil Hidoya" deb nomladim. Alloh taolodan ziyoda ilm va ibodatga muvaffaq qilishini va oxirimni xayrli qilishini so'rayman. Albatta, Alloh har bir qiyin ishni oson qiluvchi, xohlagan narsasiga qodir va ijobat qilishga loyiq Zotdir" [4: 3-b.].

"Kifoya fi sharhil Hidoya" asari "Hidoya" kitobiga yozilgan sharhlarning eng afzallari-dan sanaladi. Zero, bu asar muallif Jaloliddin Xorazmiy rahmatullohi alayh muqaddimada aytib o'tganidek, sharh zarur bo'lmagan ma'lumotlar bilan ko'paytirib ham yuborilmagan, aksincha qilib kerakli ma'lumotlar tashlab qisqa qilib ham yuborilmagan. Balki, asar yozilishda o'rta yo'l tutilgan. Bu esa asarning ilmiy qiymatini yanada oshishida muhim o'rin tutadi.

Asarning ahamiyatli taraflaridan biri, uning "Hidoya" kitobiga avvalgi yozilgan sharhlardan ekanligidir. Shuning uchun ham hanafiy mazhabi ulamolarining aksari o'zlari ta'lif etgan fihqiy kitoblarida "Kifoya fi sharhil Hidoya" asariga ko'p murojaat qilishgan. Xossatan, Jaloliddin Xorazmiy rahmatullohi alayhdan keyin yashab "Hidoya" asariga sharh bitgan ulamolardan Abdulhay Laknaviy, Alloma Ayniy, Kamol ibn Humom sharhlarga hoshiyalar ta'liq etgan ulamolardan Ibn Obidin va boshlqalar, fatvo kitoblari sohiblaridan "Fatavoul hindiya", "Mavsu'aul fiqhiya" singari asarlarda "Kifoya fi sharhil Hidoya" asaridan juda ko'p foydalanilganini ko'rish mumkin.

Jaloliddin Xorazmiy rahmatullohi alayhning "Kifoya fi sharil Hidoya" asari qo'lyozma nusxalari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. Arab-islom qo'lyozmalar merosi mazkur asarning 20 dan ortiq nusxalari mavjud ekanini aytib o'tgan. Biroq u nusxalardan aksari asosan 5 ta nusxadan olinganini ta'kidlash lozim. Ular quyidagilar:

Birinchi, Turkiyaning Istanbul shahrida joylashgan "Fayzulloh Afandi" kutubxonasi-

da "Kifoya fi sharhil Hidoya" asarining 647 sahifadan iborat ikki jildi nusxasi saqlanadi. Birinchi juzi 874 raqam bilan, ikkinchi juzi esa 875 raqam ostida qayd etilgan.

Ikkinchisi, Turkiyaning Istanbul shahrida joylashgan "Sulaymoniya" kutubxonasida "Kifoya fi sharhil Hidoya" asarining ikki jildi yana bir nusxasi 550 raqam ostida saqlanadi. Ikki jildning umumiy sahifalari soni 721 varaqni tashkil etadi.

Uchinchisi, "Kifoya fi sharhil Hidoya" asarining yana bir nusxasi Turkiyaning Istanbul shahrida joylashgan "Otif Afandi" kutubxonasida 550 raqam ostida qayd qilingan. Bu nusxa yuqoridagi ikki nusxadan farqli o'laroq bitta jildga ko'chirilgan bo'lib, 519 varaqdan tashkil topgan. Sahifalar o'lchami 16,5x26,5 sm. ni tashkil etadi. Bir sahifada 29 qator joylashgan, so'zlar soni 18-19 tadan iborat.

To'rtinchisi, Istanbulda joylashgan "Rog'ib Posho" kutubxonasida 558 raqam ostida saqlanadi. Bu nusxaning faqat birinchi juzi mavjud.

Beshinchisi, Suriyadagi "Asad" kutubxonasida "Kifoya fi sharhil Hidoya" asarining ikki jildi yana bir nusxasi saqlanadi. Birinchi juzi 61953 raqam ostida saqlansa, ikkinchi juzi 62134 raqam bilan qayd etilgan. Bu nusxa nasx xatida juda chiroyli qilib ta'lif etilgan. Birinchi juz 356 varaq, ya'ni 712 sahifadan iborat. Har bir sahifa 24 qatordan iborat. Har bir qator taxminan 18 so'zni o'z ichiga oladi.

O'z navbatida "Kifoya fi sharhil Hidoya" asari bir necha marotaba nashr etilgan:

Birinchi, hijriy 1247 – milodiy 1832 yili Kalkuttada "Hidoya ma'a sharhil Kifoya" nomi ostida toshbosma qilib katta-katta to'rt jildli holatda nashr etilgan.

Ikkinchisi, hijriy 1319 yilda Misrdagi "Maymaniya" matbaasida nashr etilgan. Bu nashr "Hidoya" asariga sharh kitoblar sanalgan Ibn Humom rahmatullohi alayhning "Fathul qadir" va Bobartiy rahmatullohi alayhning "Inoya" asarlari bilan birga qo'shib to'qqiz jilddan iborat shaklda bosilgan. Nashrga tayyorlovchi Muhammad Zuhriy



G'imroviy rohmatallohi alayh hisoblanadi.

Uchinchisi, eng oxirgi nashr hijriy 1441 yilda Livanning Bayrut shahrida joylashgan "Dorul kutubil ilmiyya" matbaasida sakkiz jild qilib nashr etilgan.

Mazkur nashr Muhammad Ahmad Haqqoniy tomonidan ikkita qo'lyozma nusxalardan: ya'ni Suriyadagi "Asad" kutubxonasida saqlanadigan ikki mujalladli "Kifoya fi sharhil Hidoya" asarining nusxasi va Turkiyadagi "Fayzulloh Afandi" kutubxonasida saqlanadigan ikki juzli nusxalarni bir-biriga solishtirib tahqiq qilingan, matnlari to'g'rilangan, zarur joylarga ta'liqlar chiqarilgan va shundan so'ngra nashr etilgan.

Mazkur nashrning birinchi jildi 590 sahifadan iborat bo'lib, kitobning avvalida tahqiq qiluvchining muqaddimasi keltirilgan. Unda Burhoniddin Marg'inoniy rahmatullohi alayhning "Hidoya" asari hanafiy fiqhida yozilgan eng sara asarlardan ekani, shu bois Marg'inoniydan keyin yashab ijod qilgan ulamolar uni sharhlashga ko'p e'tibor qaratgani, ana o'sha sharhlarning ichida Jaloliddin Xorazmiy rahmatullohi alayhning qalamiga mansub "Kifoya fi sharhil Hidoya" asari o'ziga xosligi va malol berib yuboradigan darajada cho'zib yubolirmagani yoki aksincha, ma'nolarni tushunishda qiyinchilik tug'diradigan darajada qisqartirib yubormagani bilan "Hidoya"ga yozilgan boshqa sharhlardan ajralib turishini ta'kidlagan [6: 4-b.].

Shundan so'ng birinchi juzning beshinchi sahifasida, imom Marg'inoniy rahmatullohi alayhning hayoti va ijodiga qisqacha to'xtalib o'tilgan. Keyin oltinchi sahifadan boshlab Jaloliddin Xorazmiyning hayoti haqida ham qisqa lekin juda kerakli ma'lumotlar berilgan. Ana undan keyin mazkur nashrda amalga oshirilgan ishlar aytib o'tilgan. Va muqaddima oxirida bu nashrga asos qilib olingan ikki qo'lyozma nusxadan namunalar keltirilgan.

Mazkur nashrning birinchi juzi tahorat va namoz kitoblarini o'z ichiga olgan. Ikkinchi juz zakot kitobidan boshlanib nikoh kitobi bilan yakunlanadi, ya'ni bu juz to'rt kitobni:

zakot, ro'za, haj va nikoh kitoblarini o'z ichiga oladi. Uchinchisi juz rasoat kitobidan boshlanib, taloq, qul ozod qilish va qasamlar kitoblarini o'z ichida qamragan va kitob hajmi 552 sahifani tashkil etgan. To'rtinchi juz hadlar kitobidan boshlanadi va o'g'irlik, siyar, laqit, luqata (topib olingan narsa), qochib ketgan qul, yo'qolgan odam, shirkat, vaqf va savdo kitoblarini o'z ichiga olgan. Biroq savdo kitobi oxiriga yetmasdan xiyorul ayb bilan tugallangan. Bu jild 549 sahifadan tashkil topgan. Beshinchi juz savdo kitobining "Fosid savdo" bo'limidan boshlangan va yetti kitobni o'zida qamragan. Ular: savdo kitobining qolgan qismi, sarf (pul-ayriboshlash), kafolat, havola, qozining odoblari, guvohlik va vakolat kioblaridan tashkil topgan. Oltinchi juz da'vo kitobidan boshlanadi. Bu juz da'vo, iqrar, sulh, muzoraba, vadi'a, oriyat, hiba, ijara, mukotab va valiylik kitoblarini o'z ichiga qamragan. Yettinchi juz ikroh kitobidan boshlanib, soyd (ov) kitobida tugaydi. Bu juzda ikroh, hajr (tasarrufdan to'silish), ma'zun, g'asb, shuf'a, qismat, muzoraa, musoqot, zaboih, uzhiya (qurbonlik), karohiyat, ihyaul mavot (qo'ruq yerlarni o'zlashtirish), ashriba, soyd (ov) kitoblari bor. Sakkizinchi juz rahn (garov) kitobidan boshlanadi, undan so'ng jinoyatlar, diyalar, oqilalar, vasiyatlar va xunasa kitobi bilan yakunlanadi.

2. Faxrul islom Pazdaviyning (vaf. 482/1089) "Usul" asariga yozilgan "Shofiy fil usul" kitobi. Olim asarni 743/1342 yilda ta'lif etgan bo'lib, Pazdaviyning usullarini qamragan ta'liqotlardan iborat. Jaloliddin Xorazmiy rahmatullohi alayh mazkur kitobini yozishda bundan oldin "Usuli Payzdaviy"ga bitilgan sharhlardan foydalangan. Asarda Pazdaviy kitobida keltirib o'tgan masalalarni yanada izohlash maqsadida ko'proq misollar keltirilgan [2: 734-b.].

Asarning uslubiga keladigan bo'lsak, muallif har bir usuliy masalaga uning dalilini ham keltirishga harakat qilgan. Ko'pincha illat orqali dalillansa, ba'zi o'rinlarda naqlardan ham foydalangan. Shuningdek, olim usuliy masalalardagi ixtilofli o'rinlarga juda oz holatda e'tibor qaratgan.

Asar qo'lyozma holatida bo'lib, haligacha nashr qilinmagan. Uning bir nusxasi Damashqdagi "Zohiriya" maktabasida saqlanadi. Mazkur nusxadan suratga olingan ikki jildli nusxasi Madinadagi Islom universitetida 4418-raqam ostida saqlanmoqda. Yana bir to'liq bo'lmagan nusxasi Turkiyaning "Valiyuddin" maktabasida 959-raqam ostida saqlab kelinmoqda.

Asar hanafiy mazhabi usulida birlamchi manba sanalgan "Usuli Pazdaviy"ga sharh ekani e'tiboridan ham qiymatli hisoblanadi [7: 734-b.].

3. Xatib Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulloh Tabriziy rahmatullohi alayhning (vaf. 741/1341) "Mishkotul Masobih" asariga yozgan "Xoshiyatun alal mishkot" kitobi [3: 74-b.]. Mazkur asarning Jaloliddin Xorazmiy rahmatullohi alayhga tegishli ekanligini bir qancha olimlar aytib o'tishgan. Jumladan:

Abdulloh Muhammad Habashiy rahmatullohi alayh: "Turkiyadagi "Kubrili" kutubxonasida 281-raqam ostida saqlanayotgan "Hoshiyatun alal mishkot" asari 766/1365-yilda vafot etgan Jaloliddin ibn Muhyiddin Xorazmiy Gurlaniy Hanafiyga tegishli", degan [7: 150-b.]. Karl Burklamen esa: "Hoshiyatun alal mishkot" asari Jaloliddin Gurlaniyning qalamiga mansub", degan [5: 241-b.].

4. Irlandiyaning Dublin shahrida joylashgan "Chester Bitti" kutubxonasida 4417-raqam ostida saqlanayotgan ikki juzli "Kifoyatul muntahiy fi sharhi bidoyatil muftadi" asarini Jaloliddin Xorazmiy rahmatullohi alayhga nisbat berilgan. Biroq mazkur qo'lyozma nusxani nomlashda xatoga yo'l qo'yilgan. Chunki u nusxa "Kifoya fi sharhil Hidoya" asarining nusxasi

hisoblanadi. Qolaversa, "Kifoyatul muntahiy fi sharhi bidoyatil muftadi" asari "Hidoya" sohibi imom Burhoniddin Marg'noniyning kitobi bo'lib, hozirda bu manba yo'qolib ketgan [9: 56-b.].

Jaloliddin Xorazmiy rahmatullohi alayhning mashhur asarlari mana shulardan iborat. Bundan tashqari bir necha qo'lyozma nusxalar, jumladan, "Munojot fid du'ai val ibtihol (Duodagi munojot va yolvorish)", "Mafatihul solat va yanabi'ul hayat (Namoz kaliti va hayot buloqlari)", "Fuyuzul itqon fi vujudil Furqon (Furqon - Qur'on - vajhlarini mustahkamlash)", "Hoshiya ala lavami'il asror fi sharhi matoli'il anvor", "Ta'rifotul qova'idil mantiqiyya (Mantiq qoidalarining ta'riflari)", "Risalatun fil vaz' (Va'z-nasihah borasida risola)", "Arba'una hadisun (Qirq hadis)", "Risalatun fil falak (Falakiyot borasida risola)", "Risala fi isbati iymani abavay nabiiy sallahallohu alayhi vasallam (Rasululloh sallahallohu alayhi va sallam ota-onasining iymonini isbot qilish haqida risola)", "Tuhfatush shamoil (Siyrat tuhfasi)" kabi asarlar ham Jaloliddin Xorazmiy rahmatullohi alayhning qalamiga mansub ekani aytiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Jaloliddin Xorazmiy rahmatullohi alayh o'zidan keyingi avlodlarga boy ilmiy meros qoldirgan. U kishidan keyin yashab ijod qilgan olimlar, xususan, hanafiy mazhabida qalam tebratgan fuqaholar alloma Xorazmiyning asarlaridan foydalanib kitoblarni ta'lif etishgan.

Jaloliddin Xorazmiy rahmatullohi alayh qoldirgan merosni o'rganib, uni kelajak avlodga yetkazish yoshlarimizda asrlar osha vatanimiz musulmonlari hayot tarzi bo'lib kelgan hanafiy mazhabidan og'ishmasligida katta ahamiyat kasb etadi.





**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abdulloh ibn Yusuf ibn Muhammad Zayla'iy hanafiy mazhab imomlaridan va hadis ilmi mohirlaridan sanaladi. "Nasbu-r-roya fi taxriji ahadisi-l-hidoya" va "Taxriju ahadisi-l-kashshof" kabi asarlari bor. Xayruddin Zirikliy. Al-A'lom. – Bayrut: Doru-l-ilm li-l-malayin, 1998.
2. Ahmad Muhammad Nasiruddin Naqib. Al-Mazhabu-l-hanafiy. – Riyod: Maktabatu-r-rushd, 2001.
3. Ahmad Shavqiy. "Kashshaful maxtutotil arabiyya". – Dublin. Chester Bitti, 2016.
4. Imom Bag'aviy. "Masobihus sunna". – Bayrut: Dorul kutubil ilm, 1971.
5. Jaloliddin Xorazmiy. "Kifoya fi sharhil Hidoya". – Qozon: 1886.
6. Karl Burklamen. "Tarix al-adab al-arabiy". – Bayrut: Doru-l-kutubi-l-ilm, 1971.
7. Muhammad Ahmad Haqqoniy. "Kifoya fi sharhil kifoya". – Bayrut: Doru-l-kutbi-l-ilmiya, 2019.
8. Muhammad Habashiy. "Jami' ash-shuruh va al-havashiy". – Birlashgan arab amirliklari, Abu Dabi: Al-majma'u-s-saqofiy, 2004.
9. Muhammad ibn Abdulvohid ibn Abdulhamid Kamoliddin hijriy 790 yilda tavallud topgan hanafiy faqihlari imomlaridan. Mufassir, hofiz va mutakallim olim. Mashhur asarlaridan "al-Hidoya" kitobiga yozgan "Fathu-l-qadir" va usuli fiqh haqida ta'lif etgan "at-Tahrir" kabi asarlar sohibi. Xayruddin Zirikliy. Al-A'lom. – Bayrut: Doru-l-ilm li-l-malayin, 1998.

**Davronbek MAXSUDOV,**

Din ishlari bo'yicha qo'mita raisining birinchi o'rinbosari,  
tarix fanlari doktori, professor

## ISLOM TARIXIDA OQIMLAR TAFSIRLARINING PAYDO BO'LISHI VA ULARDAGI FARQLAR

### THE APPEARANCE OF THE INTERPRETATIONS OF SECTS IN ISLAMIC HISTORY AND THEIR DIFFERENCES

**Annotatsiya.** Qur'oni karimni tushunish va talqin qilishda davr o'tishi bilan turlicha yondashuvlar paydo bo'ldi. Ushbu talqinlarda ularning o'z aqida va qarashlariga burish hollari ham uchradi. Aynan mana shunday tafsirlar natijasida oqimlarning tafsirlari paydo bo'ldi.

Islom tarixida vujudga kelgan xorijiyalar, mo'tazila va boshqa turli oqimlar o'z g'oyalarini isbotlash uchun Qur'oni karimga murojaat etganlar. Buning natijasida oyatlar buzib talqin qilindi, o'z qarashlariga moslab sharhlandi. Bu esa, oyatlar mazmun-mohiyatidan uzoq, arab tili va islom ta'limotini yaxshi bilmaganlarni osongina chalg'itish vositasiga aylandi.

Shu bilan birgalikda o'zlari faylasuf va tilshunos bo'lib, islom dinini yaxshi bilmaydiganlar tomonidan ham oyatlarga noto'g'ri baho berish holatlari tarixda kuzatiladi. Mazkur maqolada bu kabi tafsirlarning vujudga kelishi, sabablari va xususiyatlari o'rganiladi.

**Tayanch so'zlar:** oqimlar, toifalar, bid'at, noto'g'ri talqin qilish, mo'tazila, xorijiyalar, mazhabsizlik, botil, havo va nafsga ergashish.

**Annotation.** Different approaches to understanding and interpreting the Holy Qur'an have emerged over time. In these interpretations, there were also cases of turning to their beliefs and views. It was the result of appearing of interpretations of sects.

The Kharijites, Mu'tazilites and other various sects that arose in the history of Islam turned to the Holy Qur'an to prove their ideas. As a result, the verses were distorted and interpreted according to their views. It has become a tool to mislead easily those who are far from the essence of the verses and do not know Arabic and Islamic teachings.

At the same time, there are examples from the history where some philosophers and linguists, who do not know the religion of Islam well, interpreted the verses incorrectly. This article examines the emergence, causes and characteristics of such interpretations.

**Key words:** sects, groupings (a small group inside a sect), heresy, misinterpretation, Mu'tazilites, Kharijites, not refer to any mazhab, falsehood, to be the slave of one's own passion

#### 1. Islom tarixida oqimlar tafsirlarining paydo bo'lishi.

Islom tarixida ko'plab oqimlar bo'lgan. Ular o'z navbatida Qur'on oyatlarini o'z qarash va g'oyalari asosida tafsir qilganlar. Natijada, bunday oqimlarga mansub tafsirlar vujudga kelgan. Bu kabi tafsirlar sekin-asta aholi orasida ham tarqala boshlagan va ma'lum

bir davrlarda noto'g'ri sharh va izohlar musulmonlarga sezilarli ta'sir o'tkazgan.

Noto'g'ri talqin qilingan tafsirlar "no-maqbul", "joiz bo'lmagan", "mohiyatga zid" kabi nomlar bilan ham atalib, asosan aqidaviy va fiqhiy yo'nalishlarda ko'p kuzatiladi.

Noto'g'ri talqin qilingan aqidaviy tafsirlarga misol tarzida xorijiy, mo'taziliy, shia kabi



toifalarning tafsirlarini aytish mumkin. Botiniylar har bir oyatning botini va zohiri bor, botinni faqatgina xos odamlar biladi, deb da'vo qiladilar.

Shialar ne'matlar va xushxabarlar berilgan oyatlarni o'zlari va ma'sum imomlariga nisbat berishadi, aksincha, tahdid va azob oyatlarini dushmanlariga taalluqli deb hisoblashadi. Bunday tafsirlar qatorida shia imomiy faqih va mufassiri sanalgan Abu Ali Fazl ibn Hasan Tusiyning (vaf. 548/1153) "Majma' al-bayon fi tafsir al-Qur'on" hamda Abul Qosim Hasan ibn Muhammad Naysoburiyning (vaf. 406/1015) "G'aroib al-Qur'on" va "Rag'oib al-Furqon" asarlarini aytib o'tish mumkin.

Mo'taziliylar "manzila bayna manzilatayn", aqlning yomon va yaxshi sanashi shariat normasida qabul qilinishi, ilohiy sifatlarni inkor etish kabi masalalarda oyatlarni o'z qarashlari asosida sharhlaganlar.

Yuqorida sanab o'tilgan oqim tarafdorlari aqidaviy oyatlarni o'z e'tiqodlari doirasida sharhlashlari bilan bir qatorda fiqhiy oyatlarni ham o'z usul va qoidalari asosida izohlaganlar. Shu sababli ularning tafsirlarida fiqhiy masalalarda ham bir qator xatoliklarni ko'rish mumkin.

## 2. Mohiyatan bir-biriga zid bo'lgan tafsirlar.

Mohiyatan bir-biriga zid bo'lgan va biri ikkinchisiga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan tafsirlar ham uchrab turadi. Odatda bu holatda birisi to'g'ri, ikkinchisi noto'g'ri bo'ladi. Mohiyatan bir-biriga teskari tafsirlar quyidagi holatlarda bo'ladi:

- e'tiqodiy masalalarda uchraydi va yakdillik bilan qabul qilingan aqidaviy qoidalariga teskarilik kuzatiladi. Buni mutashobih oyatlarda ko'rish mumkin;

- qat'iy qabul qilingan masalalarga zid bo'lgan holatlarda uchraydi. Masalan, Oli Imron surasi, 130-oyatida: "Ey imon keltirganlar, riboni bir necha barobar qilib yemang" deyiladi. Muhammad Rashid Rizo (vaf. 1354/1935) oyatdagi bir necha barobar - *اصعافا مصاعفا* ni johiliyat davridagi ribo deb tafsir qiladi. Vaholanki, riboning ozi ham, ko'pi

ham taqiqlangani musulmon olimlarining ko'pchiligi tomonidan aytilgandir;

- musulmon ummati ijmo qilgan masalalarga xilof qilish yoki ijmo masalalarini bilmaslik va ularni naql qilishda xatoliklarga yo'l qo'yish kabi holatlar. Ayrim mufassirlar Baqara surasi, 57-oyatdagi *السوى* so'zini "asal" deb tafsir qilganlar.

Niso surasi, 93-oyatida: "Kimda-kim bir mo'minni qasddan o'ldirsa, uning jazosi jahannamda abadiy qolishdir. Yana unga Alloh g'azab qilgay. Va Alloh unga ulkan azobni tayyorlab qo'ygay" [1: 93-b.].

Jumhur mufassirlar oyatdagi qasddan mo'minni o'ldirgan shaxs agar tavba qilmay vafot topsa, Allohning ixtiyorida bo'ladi, xohlasa azoblaydi va xohlasa mag'firat qiladi, deganlar. Tohir ibn Ashur "jahannamda abadiy qoladi" iborasini ahli sunna ulamolari "unda uzoq qoladi" deb izohlaganlar, deydi. Chunki odam o'ldirish kufr amali emas, jahannamda abadiy qolish esa, faqat kofirlargagina xos. Chunki arab she'riyatida "abadiy" so'zi uzoq muddatni bildiradi. Biroq xavorijlar gunohi kabira qilganlarni abadiy jahannamga mahkum qiladilar.

Imom Zamaxshariy esa, qotilning abadiy jahannamda qolishi haqida quyidagi fikrlarni beradi: "Ushbu oyatni o'qiydigan, undagi mazmunni anglab, bu boradagi hadislarni o'qiydigan, Ibn Abbosning qotilning tavbasini qabul qilmaslik borasidagi qarorini bilgandan (*qotilni abadiy jahannamga hukm qilmaganidan*) ajablanmasa ham bo'ladi" [2: 130-131-b.].

Yuqoridagi holatlar asl (*usuliy*) masalalarga taalluqli. Bu holda ixtilofli aytilgan tafsirlarning biri to'g'ri, qolgani noto'g'ri bo'ladi. Biroq juz'iy (*furu'iy*) masalalarda ham bir-biriga teskari ma'nolar kuzatiladi. Biroq ular juz'iy bo'lgani sababli hamma bildirilgan sharhlar ham birdek qabul qilinadi. Jumladan, Baqara surasi, 228-oyatdagi *quru'* - *قروء* so'zining ma'nosida hanafiy va shofiiy mazhabi vakillari o'rtasida qarama-qarshi fikr mavjud. Hanafiylar "hayz" deb ma'no bersalar, shofiiylar "poklik" deb izohlaydilar, lug'at kitoblarida ushbu so'z ikki ma'noda ishlatilishini ko'rish mumkin.

Sahobalardan ham bu borada ikki xil rivoyat kelgan.

### 3. Nomaqbul tafsirlar va ulardagi farqlar.

Asrlar osha mufassirlar Qur'oni karim oyatlarini dinning asl maqsadlariga muvofiq sharhlashlari bilan bir qatorda ayrim noto'g'ri talqin qilingan tafsirlar ham bo'lgan. Shu ma'noda qabul qilingan tafsirlar bilan bir qatorda, nomaqbul bo'lgan tafsirlar ham mavjud.

Bunga sabab sifatida:

- asl tafsirlardan uzoqlashish;
- aqidaning buzilishi;
- faqatgina arab tili lug'ati va qoidalarining o'zigagina tayanish;
- faqatgina aqlning o'ziga suyanish;
- nafs-havoga ergashish;
- isroiliyot va zaif hadislarini qabul qilish;
- majozda chuqur ketish kabi holatlarni aytish mumkin.

Ushbu sabablarni birma-bir va misollar keltirilgan holda alohida ko'rib chiqamiz.

A) Keltirilgan sabablardan birinchisi, **asl tafsirlardan uzoqlashish** bo'lib, bunda tafsiurning asli sanalgan Qur'onni Qur'on, hadis, sahobalar va tobeinlar so'zlari, arab tili bilan izohlashdan uzoqlashish nazarda tutiladi. Chunki ushbu asllarga tayanmay turib, Qur'onni anglash amri maholdir.

Bunga ayrim misollarni keltirish mumkin:

*Birinchi misol:* Duxon surasi, 28-oyat:

كَذَلِكَ وَأَوْرَثْنَا قَوْمًا آخَرِينَ

"Mana shunday! Biz u (*ne'matlar*)ni boshqa qavmga meros qilib berdik!" [1: 490-b.].

Ko'plab mufassirlar "bir qavm"ni Bani Isroil deb aytgan va bunga A'rof surasi, 137-oyatini dalil qiladilar:

وَأَوْرَثْنَا الْقَوْمَ الَّذِينَ كَانُوا يُسْتَضَعُونَ مَشَارِقَ الْأَرْضِ وَمَعَارِبَهَا الَّتِي بَارَكْنَا فِيهَا وَتَمَّتْ كَلِمَتُ رَبِّكَ الْحُسْنَىٰ عَلَىٰ بَنِي إِسْرَائِيلَ بِمَا صَبَرُوا وَدَمَّرْنَا مَا كَانَ يَصْنَعُ فِرْعَوْنُ وَقَوْمُهُ وَمَا كَانُوا يَعْرِشُونَ

"Yerning biz barakatli qilib qo'ygan mashriq va mag'riblariga kamsitilayotgan qavm (Muso qavmi)ni merosxo'r qilib qo'ydik. Sabr qilganlari sababli Isroil avlodiga Rabbingizning chiroyli so'zlari (bergan va'dasi) o'z adosini topdi. Fir'avn va (uning) qavmi qurgan (bino)

lari hamda ko'targan (qasru burj)larini vayron qildik" [1: 166-b.].

Biroq ayrim mufassirlar tarixiy dalillarga tayanib, ushbu qavmni qibtiylardan keyin Misrga hukmronlik qilgan qavm deb aytadilar. Bu gapni Ibn Atiyyaning "al-Muharrar al-va-jiz" (8-jild, 73-bet), Saolibiyning "al-Javohir al-hison" (3-jild, 111-bet), Ibn Oshurning "at-Tahrir vat tanvir" (25-jild, 303-bet) kitoblarida uchratish mumkin.

Abu Hayyon Tavhidiy bunga raddiya sifatida shunday deydi: "Tarixga e'tibor berilmaydi, chunki yolg'onlar ko'p uchraydi. Allohning Kalomi (*bu oyat sharhi borasida*) to'g'ridir. Alloh shunday deydi:

كَذَلِكَ وَأَوْرَثْنَا بَنِي إِسْرَائِيلَ

"Yana ularga (xazina va maskanlarga) Isroil avlodini voris qildik" [1: 370-b.].

Xuddi shunday fikrlarni Olusiyning "Ruh al-maoniy" tafsirida ham uchratish mumkin.

*Ikkinchi misol:* An'om surasi, 82-oyat:

الَّذِينَ آمَنُوا وَمَا يَلْبِسُوا إِيمَانَهُمْ بِظُلْمٍ أُولَٰئِكَ هُمُ الْأَمْنُونَ وَهُمْ مُّهْتَدُونَ

"Iymon keltirgan va iymonlariga zulm (shirk)ni aralastirmaganlar - aynan o'shalarga xavfsizlik (bordir) va ular hidoyat (to'g'ri yo'l) topgan zotlardir" [1: 138-b.].

Ushbu oyat sharhida Imom Buxoriy Ibn Mas'ud roziyallohu anhudan rivoyat qiladi: "Ushbu oyat nozil bo'lganda, odamlarda og'irlik paydo bo'ldi va "Ey Rasululloh, qaysi birimiz o'ziga zulm qilmaydi (*ya'ni hammamiz ham o'zimizga zulm qilamiz-ku*)", deyishdi. U zot: "Bu siz o'ylagan zulm emas, solih bandaning "Albatta shirk ulkan zulmdir" (*Luqmon surasi, 13-oyat*), deganini eshitmaganmisiz, albatta u shirkdir", dedilar.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam zulm ma'nosini shunday sharhlagach, ayrim mufassirlarda o'zgacha sharhlash holatlari ham kuza-tilgan. Jumladan, Abul Qosim Zamaxshariyning "al-Kashshof" tafsirida: "Iymonlarini fosiqlik ma'siyatiga arashtirmagan" deb sharhlaydi. Qosimiy aytadi: "Xulosai kalom shuki, biror bir sahoba va tobein ham zulmni shirk deb tafsir qilishga qarshi chiqmagan. Chunki bu borada sahoh hadis vorid bo'lgan".



Uchinchi misol: Yunus surasi, 3-oyat:

إِنَّ رَبَّكُمُ اللَّهُ الَّذِي خَلَقَ السَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضَ فِي سِتَّةِ  
أَيَّامٍ ثُمَّ اسْتَوَىٰ عَلَى الْعَرْشِ يُدَبِّرُ الْأَمْرَ مَا مِنْ شَفِيعٍ إِلَّا مِنْ  
بَعْدِ إِذْنِهِ ذَلِكُمُ اللَّهُ رَبُّكُمْ فَاعْبُدُوهُ أَفَلَا تَذَكَّرُونَ

“Albatta, Rabbingiz osmonlar va Yerni olti kunda yaratib, so'ngra arsh uzra “mustaviy” bo'lgan Allohdir. Ish tadbirini (puxta) ko'rar. Uning iznisiz biror shafolat qiluvchi bo'lmas. Ana o'sha Alloh Rabbingizdir, Unga ibodat qilingiz! Bas, (bundan) eslatma olmaysizmi?!” [1: 208-b.].

Ushbu oyatda “Arshga istivo qilish” borasida salafi solihlardan birortasi “Arshning ustiga o'tirib olgan” deb aytmagan bo'lsa-da, ayrim zohiriylikni da'vo qiluvchilar oyatni noto'g'ri talqin qilishmoqda.

B) Tafsirlarning nomaqbul bo'lishiga ikkinchi sabab **aqidaning buzilishi** deb aytilgan edi. Bu borada gapirganda, mo'taziliy, shia, botiniy, faylasuflar kabi ta'limotlarni aytish mumkin bo'ladi.

**Mo'taziliylar** Oli Imron surasi, 18-oyati: “Alloh, farishtalar va ilm ahllari – adolat bilan hukm qilguvchi yolg'iz Allohdan o'zga hech qanday tangri yo'q, faqat Uning O'zi borligiga guvohlik berdilar. Hech qanday tangri yo'q, faqat Uning O'zi bor. U qudratli, hikmat egasidir”. Mazkur oyatdagi “ilm ahllari”ni “tavhid va adl ahli” (*mo'taziliylar o'zlarini shunday nomlaydi*) deb izohlaydilar. Chunki oyatda “Allohdan o'zga tangri yo'q”ni “tavhid”, “adolat bilan hukm qilguvchi”ni “adolat” deb izohlaydilar. Xuddi shu tarzda “Albatta, Alloh nazdida din bu – islom” (Oli Imron surasi, 19-oyat) oyatini ham islom tavhid va adl ekaniga izn berilgan” deb tafsir qiladilar. Bunday sharhni “al-Kashshof” tafsirida uchratish mumkin [4: 537-b.].

A'rof surasi, 178-oyat:

مَنْ يَهْدِ اللَّهُ فَهُوَ الْمُهْتَدِي وَمَنْ يُضِلِّلْ فَأُولَئِكَ هُمُ  
الْخَاسِرُونَ

“Kimniki Alloh hidoyat qilgan bo'lsa, bas, (o'sha) odam to'g'ri yo'l topuvchidir. Kimniki adashtirgan bo'lsa, bas, ana o'shalar ziyon ko'ruvchilardir” [1: 174-b.].

Qozi Abduljabbor Mo'taziliy ushbu oyat sharhida aytadi: “Ushbu oyat U hidoyat va

zalolatni yaratishiga dalolat qiladimi?! (inkor savoli) Bizning javobimiz shuki, Alloh kimni jannat va savobga yo'llasa u dunyoda hidoyat topadi, kimni hidoyatdan zalolatga yo'llasa, u dunyoda xasratda bo'ladi. Buning yo'li shuki, Alloh tomonidan toatga yo'llash bo'ladi. Xuddi shu tarzda A'rof surasi, 186-oyatida – “Kimni Alloh adashtirib qo'ysa, uning uchun biron hidoyat qilguvchi bo'lmas. (Alloh) undaylarni o'z tug'yonlarida adashib-uloqib yurgan hollarida tark qilur” ham tushuniladi. Ya'ni kimni oxiratdagi savobdan adashtirsa, sababini ketkazib, toatga yo'lni osonlashtirib qo'ygan bo'lsak-da, uni hidoyatga yo'llovchi yo'q”.

Aslida mo'taziliylar hidoyat va zalolat insonning o'zi tomonidan bo'ladi, Alloh esa, bandaga hidoyat yo'lini bayon qilib beradi xolos, deyishadi. Ahli sunna aqidasiga ko'ra, hidoyat va zalolatni berish hamda yaratish Alloh tomonidan bo'ladi, bandada ixtiyor bor xolos, deyiladi.

Shundan kelib chiqib, Imom Moturidiyning “Ta'vilot ahl as-sunna”, Abul Barakat Nasafiyning “Madorik at-tanzil”, Ahmad Shokirning “Umda at-tafsir”, Shayx Sa'diyning “Taysir al-Karim ar-Rohman al-Mannon” va boshqa tafsirlarda hidoyat va zalolatni beruvchi Allohligi ta'kidlanadi.

Mo'taziliylar Fotiha surasidagi “*Ihdinas sirotol mustaqim*” oyatini “bizlarga hidoyatni bayon qilib ber”, deb izohlaydilar. Sunniylar tafsirida esa, “bizlarni hidoyatda sobit qil” yoki “xos bandlaring yoki omma musulmonlar yo'lga boshla” tarzida sharhladi.

**Shialardan** sanalgan Abu Ja'far Tusiy aytadi: “Biling: albatta Qur'onni sharhlash faqatgina Payg'ambar sollallohu alayhi va sallam va so'zlari Payg'ambar so'zidek dalil sanaladigan imomlardan kelgan sahih xabarlar asosida mumkin bo'ladi”. Abdullatif Karzoni o'zining “Mir'ot al-anvor va mishkot al-asror” kitobida shunday deydi: “Juda ma'lum va mashhur bo'lgan narsa shuki, albatta, Alloh Kalomining har bir oyatida zohir va botin, tafsir va ta'vil bordir. Balki har birida yettita butun va yetmishta botin ham bor. Ko'plab mutavotir darajasiga yaqinlashgan hadislar botin va ta'vil, ahli olning pokligi borasida

kelgan. . . O'zida fazl va in'om, madh va ikrom mazmuni bo'lgan oyatlarning deyarli barchasi ahli ol haqida nozil bo'lgandir. Tavbix, tahdid, so'kish ma'nosidagi oyatlar esa, ahli olning dushmanlari to'g'risidadir" [2: 35-36-b.].

Imomlik masalasida shialar bilan boshqa mazhab vakillari o'rtasida ixtiloflar mavjud. Masalan, shialardan hisoblangan imomiylar dunyoda doimo Husayn farzandlaridan biri imom bo'lishi kerakligini ta'kidlashsa, ja'fariylar (*ja'fariylar – shia oqimlaridan biri. Ushbu oqim nomlanishi Ja'far Sodiq ismi bilan bog'liq,*) Qur'onni o'z aqida va qarashlariga mos ravishda tafsir qiladilar. Jumladan, Anbiyo surasi 26-27-oyatlari – "Yo'q, ular (farishtalar) azizu mukarram bandalardir. Undan ilgari biror so'z aytmaydilar. Ular Allohning amri bilangina ish qilurlar" farishtalarga taalluqli bo'lsa-da, biroq shia shayxlaridan biri Muhammad Rizo: "Alloh bu oyatni imomlar (Ali avlodlari) haqida nozil qilgan", – deydi.

Shu kabi Moida surasining 67-oyati – "Ey Rasul! Rabbingizdan Sizga nozil qilingan narsa (oyatlar)ni (odamlarga) yetkazing! Agar (buni) qilmasangiz, Uning risolatini yetkazmagan bo'lasiz" oyati ahli kitoblarga nisbatan aytilgan. Lekin u Hamadoniyning kitobida "Muhammad bu oyatni o'qigach, Alini o'zining xalifasi etib tayinladi", tarzida sharhlanadi.

Shialik aks ettirilgan tafsirlar sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

– "Tafsir Ali ibn Ibrohim al-Qumiy" (*"Ali ibn Ibrohim al-Qumiyning tafsiri"*);

– Hoshim ibn Sulaymon ibn Ismoil al-Husayniy al-Bahroniy (*vaf. 1107/1695-96 y*)ning "al-Burhon" (*"Dalil"*) tafsiri;

– Muhsin ibn Muhammad ibn Karoma al-Mo'taziliy Zaydiy (*vaf. 494/1100-01 y.*)ning "at-Tahzib" (*"Saralangan"*) tafsiri.

Xorijiyatlardan Muhammad ibn Yusuf Attaf fish (*Muhammad ibn Yusuf ibn Iso ibn Solihning nasabi Tunisidagi hafsiylar oilasidan Umar ibn Hafsga borib taqaladi. O'z davrida ibodiylarning "qutbi" sanalgan hamda ijthodda eng yuqori cho'qqigacha chiqqan. Kitoblari orasida "Taysir at-tafsir", "Vafo az-zimona" kabilari mavjud. 1332/1914 yilda vafot etgan.*) Iboziy (*Ibodiyy*) Jazoiriy Baqara surasi, 170-oyati:

"Qachon (mushriklarga): "Alloh nozil qilgan hukmlarga bo'ysuningiz", deyilsa, ular: "Yo'q, biz otalarimizni qanday yo'lda topgan bo'lsak, o'shanga ergashamiz", deyishadi. Agar otalari hech narsaga aqlari yetmaydigan, to'g'ri yo'lni topolmaydigan bo'lsalar, ham-a?" izohida shunday deydi: "Biling: albatta haq bu – Qur'on va sunnat hamda unga zid kelmagan xabarlar. Kim shunga amal qilsa, agar yolg'iz bo'lsa-da, u (ahli sunna val) jamoa va savodi a'zamdur. Chunki u Payg'ambar, hidoyat topgan sahoba va tobeinlar hamda har bir to'g'ri yo'l topganning o'rinbosaridir. Kim bunga xilof qilsa, bid'atchi va adashgan bo'ladi, agar ular ko'pchilik bo'lsalar ham. Bu menga zohir bo'lgan ijthoddir.

Men 1279/1863-yilda shogirdlarga saboq berardim. Bizning ibodiy jamoamiz, agar ular ozchilik bo'lsa-da, ahli sunna va savodi a'zam sanaladi. Chunki ular tavhid, kalom ilmi, valoyat, baroat, usul va boshqa masalalarda musibatga duchor bo'lgandirlar" (*"Tafsir Attaf fish", 2-jild, 355-356*).

Xorijiyatlardan bu qarashlari bilan mo'taziliylar aqidasi juda yaqin turishadi.

Muhammad ibn Yusuf o'zining "Tafsir Attaf fish" kitobida Hud surasi, 112-oyatini quyidagicha izohlaydi:

فَاسْتَقِمَّ كَمَا أُمِرْتَ وَمَنْ تَابَ مَعَكَ وَلَا تَطْغَوْا إِنَّهُ بِمَا تَعْمَلُونَ بَصِيرٌ

*Tarjimasi:* "Bas (ey Muhammad!) buyurilganingizdek to'g'ri bo'ling! Siz bilan birga tavba qilganlar ham (to'g'ri) bo'lsinlar! Haddan oshib ketmangiz, (ey mo'minlar), U qilayotgan ishingizni, albatta, ko'rib turuvchidir" [1: 234-b.].

"Bilgin, ey birodarim, Alloh senga rahm qilsin, men ibodiylik mazhabini boshqa molikiy, shia, hanafiy, hanbaliylik mazhablari kabi manqul va ma'qullar asosida saraladim. Tavhid va sifot masalasida mazhabimizdan boshqasini tashbih va ta'tildan xoli ko'rma-dim, uning dalillariga boshqa biror dalil teng kelmaydi, alhamdu lillah".

Ushbu fikrlar xorijiylikka taalluqli bo'lib, tavhid va sifat borasida mo'taziliylarning qarashlari bilan bir xil. Usmon va Hazrati Aliga nisbatan ta'nalarni ham uchratish mumkin.



Nur surasi, 55-oyatda:

وَعَدَ اللَّهُ الَّذِينَ آمَنُوا مِنكُمْ وَعَمِلُوا الصَّالِحَاتِ لَيَسْتَخْلِفَنَّهُمْ فِي الْأَرْضِ كَمَا اسْتَخْلَفَ الَّذِينَ مِن قَبْلِهِمْ وَلَيُمَكِّنَنَّ لَهُمْ دِينَهُمُ الَّذِي ارْتَضَىٰ لَهُمْ وَلَيُبَدِّلَنَّهُم مِّن بَعْدِ خَوْفِهِمْ أَمْنًا يَعْبُدُونَنِي لَا يُشْرِكُونَ بِي شَيْئًا وَمَن كَفَرَ بَعْدَ ذَلِكَ فَأُولَٰئِكَ هُمُ الْفَاسِقُونَ

“Alloh sizlardan iymon keltirgan va solih amallar qilgan zotlarga xuddi ilgari o'tgan (iymonli) zotlarni (yer yuziga) xalifa (hukmron) qilganidek, ularni ham yer yuzida xalifa qilishni va ular uchun O'zi rozi bo'lgan (Islom) dinini g'olib-mustahkam qilishni hamda ularning (ahvolini Makkada ko'rgan) xavfu-xatarlaridan so'ng (Madinada) tinchlik-xotirjamlikka aylantirib qo'yishni va'da qildi. Ular Menga ibodat qilurlar va Menga biron narsani sherik qilmaslar. Kim mana shu (va'da)dan keyin kufroni (ne'mat) qilsa, bas, ular itoatsiz kimsalardir” [1: 357-b.].

Attaf fish ushbu oyat sharhida aytadi: “Albatta, birinchi bo'lib, ushbu ne'matga kufr keltirgan va uni inkor etgan Usmon bin Affondir. Musulmonlar uni joni va moliga omonatchi deb qabul qilgandilar, lekin u xiyonat qildi. Rasulullohning masjidlarini kegaytirdi”.

**Botiniylardan** Abu Ya'qub Sijistoni ayta-di: “Bilgin: Qur'onda kelgan jannat, anhorlar, xurmo, uzum, zaytun, anor, anjir va barcha ne'matlar imomlarga ishora qiladi. Aksincha, Kalomullohda kelgan jibt, tog'ut, iblis, Horut, Morut, Yag'us, Ya'uq, Nasr, Vadd, Suvo' va ular-ga o'xshashlar ahli zohir va ularning yetakchi hamda ulamolariga dalolat qiladi”.

Bunga raddiya sifatida firqalarga oid “al-Farq baynal firoq” nomli mashhur kitob mu-allifi Abdulqohir Bag'dodiy shunday deydi: “Bilinglar: Alloh sizlarni saodatli qilsin, botiniylarning islomga keltirgan zararlari yahud, nasoro, majus va hatto dahriy hamda bosh-qalarnikidan ham kattaroqdir. Balki Dajjolning zararidan ham ulkanroqdir”.

Bundan tashqari, ayrim so'fiylar tafsirida Nuh surasi, 27-28-oyatlari:

إِنَّكَ إِن تَدْرَهُمْ يُضِلُّوا عِبَادَكَ وَلَا يَلِدُوا إِلَّا فَاجِرًا كَفَّارًا  
{۷۲} رَبِّ اغْفِرْ لِي وَلِوَالِدَيَّ وَلِمَن دَخَلَ بَيْتِي مُؤْمِنًا  
وَلِلْمُؤْمِنِينَ وَالْمُؤْمِنَاتِ وَلَا تَرِدِ الظَّالِمِينَ إِلَّا تَبَارًا {۸۲}

“Chunki Sen agar ularni (yer yuzida) qoldirsang, ular bandalaringni yo'ldan ozdirurlar va ular faqat ko'rnamak, nopok (kimsalar)ni tug'ib-ko'paytirurlar. 28. Parvardigorim, O'zing meni, ota-onamni, mening uyimga mo'min holda kirgan kishilarni va barcha mo'minu mo'minalarni mag'firat qilgan, zolim kimsalarga esa faqat halokatni ziyoda qilgin!” [1: 571-b.].

Ushbu oyat tafsiri borasida Ibn Arabiy shunday deydi: “Chunki sen ularni qoldirsang, ularni bandalikdan rububiyat sirlari tomon chiqarurlar, shunda ular banda bo'la turib, o'zlarini arbob deb o'ylab qoladilar. Ular zohir narsalarni berkitadiganlarni o'zlaridan natija sifatida chiqarurlar. Keyin yashiringan narsalarni zohir qiladilar, so'ngra zohir bo'lganidan keyin satr qilurlar (yashirurlar). Nazar soluvchi hayratda qoladi va fojirning fujur ishlaridagi hamda kofirning kufrdagi qadrini ham bilmay qoladi, vaholanki (ikki) shaxs birdir. Rabbim, meni yashir, o'zim sababli satr qil, bas, ular mening maqomim va qadrimni bilmaslar, sening qadringni bilmaganlaridek “Ular Allohning qadrini to'g'ri bilmadilar (Zumar surasi, 67-oyat)”. Men ulardan (ota-onam bo'lgan) natija sifatida paydo bo'lgan aql va tabiatni ham, ilohiy xabarlar makoni bo'lgan tasdiqlovchi qalbimni, aqllarni va nafslarni ham kechir. Zulm pardasi ortida g'ayb ahliidan iborat zolim zulmatlarni faqatgina halok qilasan. Ular nafslarini ham shuhudlarini ham haq darajasida bilmaslar” [3: 123-b].

Faqatgina arab tili lug'ati va qoidalarining o'zigagina tayanish holati ham tafsirlarda uchrab turadi. Aslida Qur'oni karimni tushu-nishda arab tili lug'ati va qoidalarining alohi-da o'rni bor. Imom Shotibiy aytadi: “Shariatni anglashda ummiylar (Qur'on nozil bo'lgan paytdagi arablar) tilini hisobga olish zarur. Chunki Qur'on ular so'zlashadigan tilda nozil bo'lgan. Odatda arablar tushunib, angelaydigan ma'no-mazmunni qabul qilish kerak bo'ladi. Agar ular odatda qo'llaydigan tushunchalar bo'lmasa, uni qabul qilib ham bo'lmaydi”.

Shu bilan birgalikda, Qur'on ma'nolarini faqat arab tiligagina tayanib tafsir qilish to'g'ri

bo'lmaydi. Balki shariat ilmlarini ham bilish taqozo qilinadi. Imom Navaviy ham "Tafsir qilishda faqatgina arab tilini bilish kifoya qilmaydi" deb ta'kidlaydi.

Masalan: Oli Imron surasi, 39-oyat:

فَتَادَتُهُ الْمَلَائِكَةُ وَهُوَ قَائِمٌ يُصَلِّي فِي الْمِحْرَابِ أَنَّ اللَّهَ يُبَشِّرُكَ بِيحْيَى مُصَدِّقًا بِكَلِمَةٍ مِنَ اللَّهِ وَسَيِّدًا وَحَصُورًا وَنَبِيًّا مِنَ الصَّالِحِينَ

"So'ng mehrobda namoz o'qib turgan vaqtida unga farishtalar nido qildilar: "(Ey Zakariyo), Alloh senga Allohning so'zini tasdiq etadigan, (o'z qavmiga) xoja bo'ladigan, (shahvatlardan o'zini) tiyadigan va solih payg'ambarlardan bo'ladigan Yahyo ismli farzand xushxabarini berur" [1: 55-b].

Imom Tabariy ba'zi tilshunoslarning anshdini kalmata kadam ayi so'zini arablarning kalmata kadam qasidat kadam Falonchi menga ushbu so'zni, ya'ni ushbu qasidani aytib berdi" degan gaplariga tayanib (*chunki arab tili lug'ati va qoidalari arablarning iste'molida bo'lgan so'z va iboralariga asoslangan*), "Allohdan bo'ladigan kitob" deb sharhlashlarini noto'g'ri, deb baholaydi. Ibn Kasir ham ushbu so'zni Ibn Abbas, Hasan Basriy, Qatoda va boshqalarning gapiga tayanib, Iso ibn Maryam deya izohlaydi.

Demak, bu yerda "kitob" deya ma'no berish xato sanaladi.

Shuningdek, Imom Tabariy arab tili-ning o'zigagina tayanib tafsir qiluvchilar haqida gapirib, ayrimlarning Yusuf surasi, 49-oyatidagi *و فيه يعصرون* "unda qahatchilikdan yomg'irlar yordamida najot toparlar" deb tafsir qilishlarini xato deya baholaydi. Chunki ayrim lug'atshunoslar *يعصرون* fe'lida "najot" ma'nosi bor deydi.

Bugungi kunda ayrim tilshunoslar oyatlarga ma'no berishda arab tilining o'zigagina tayanib qolish holatlari uchrab turadi. Jumladan, buni zamonaviy tafsirlar, ijtimoiy tarmoqlardagi ayrim chiqishlar, hatto yurtimizdagi ba'zilarining fikrlarida ham ko'rish mumkin. Jumladan, doktor Oisha bint Shoti Takosur surasidagi "*hatta zurtumul maqobir*" so'zini "Ziyorat muqim va doimiy bo'lmaydi. Biz hammamiz ham ziyoratchimiz, ziyoratchi esa, muqim bo'la olmaydi. Shunday

ekan, ziyorat qayta tirilish kunigacha bo'ladi, xolos. Oyatlardagi barcha ehtimoliy ma'nolarni jamlashga intilgan mufasssirlar ushbu ma'noni e'tibordan chetga qoldirishlari ajoyib emasdir" deya izohlaydi.

Ayrim faylasuf va aqlgagina tayanuvchilar tomonidan faqatgina aqlning o'ziga suyanish holati kuzatilgan. Aslida aql insonga berilgan ulkan ne'mat bo'lib, uni to'g'ri ishlatish va ilohiy ko'rsatmalar doirasida foydalanish bilan to'g'ri yo'l topiladi. Shu ma'noda aql dinga tobe bo'lsa, u xato qilmaydi. Lekin musulmonlar orasida aqlni shariatdan ham ustun qo'yib, uni mutloqlashtiradiganlar ham borki, bu bilan nuqsonga yo'l qo'yadilar. Jumladan, Qozi Abdujabbor (mo'taziliy) "Allohni tanish faqat aql orqali bo'ladi", Johiz (*Abu Usmon Abr ibn Bahr ibn Mahbub Kinoniy, Laysiy 163/780 yilda tavallud topgan. Johiz nomi bilan mashhur bo'lib, arab adabiyotida katta olim bo'lgan. Mo'taziliylarning johiziya firqasi asoschisi. Ko'plab asarlari orasida "al-Hayavon", "al-Bayon va at-abyin" kabilari mavjud. Basrada 255/869-yilda vafot etgan.*) "Qat'iy hukm zehndan, sahih istinbot aqldan bo'ladi", Abu Ali Jubboiy (*Abu Ali Jubboiy Muhammad ibn Abdulvahhob ibn Salom Jubboiy (Jubbo Basradagi qishloqlardan biri) mo'taziliylarning yetakchisi va kalom ilmi peshvosi bo'lgan. Unga Jubboiya toifasi nisbat beriladi. 303/916-yilda vafot etgan.*) "Qur'onda tavhid, adl borasida kelgan oyatlar aqlni tasdiqlab kelgan".

Qozi Abdujabborning aql borasidagi quyi-dagi so'zlari ham keltiriladi: "Avvalambor, aqlning dalilligi (qabul qilinadi). Chunki aql yaxshi va yomonni ajratadi, u bilan Qur'on, sunnat va ijmo' taniladi, shunday ekan, u bu borada asldir... Qur'on va sunnat o'z dalolatining to'g'riligida aqlga tayanadi".

Aqliy tafakkurning zamonaviy tarafdorlari ham oldingilar kabi aqlga ortiqcha baho berganlar. Muhammad Abduh (*Muhammad Abduh ibn Hasan Xorulloh kelib chiqishi turkman, onasi arablardan. O'z davrida Misr diyori muftiysi, yangilanish va islohotchilik harakati vakili bo'lgan. Misrning G'arbidagi Shanra qishlog'ida 1266/1850 yilda tavallud topgan. Tantadagi Ahmad jomeida, keyinchalik*





Azharda o'qigan. So'ngra qozilik, yangilanish mahkamasida maslahatchi va 1317/1899-yilda muftiy bo'lgan. 1323/1905-yilda Iskandariyada vafot etib, Qohirada dafn etilgan. Uning tugulganmagan tafsir kitobi, "at-Tavhid" risolasi, "Islom va uni tanqid qiluvchilarga raddiya", "Islom va nasroniylik" singari kitoblari mavjud. ) aytadi: "Islomning ilm hosil qilish uchun avvalgi asli nazariy aqldir. Islom qurilgan bosh asos bu nazariy aql sanaladi. . . Islomning ikkinchi asli bu – (aql va shariat bir-biriga) zid kelib qolganda, aqlni muqaddam qilish... Ahli islomning ko'pchiligi naql va aql o'zaro zid kelganda, aqlni ustun qo'yadilar. Bu holda naql

sahih deb qabul qilinadi, aql esa uni idrok qilishdan o'z bo'ladi hamda bu ishning mohiyati Allohga topshiriladi yoki arab tili qoidalariga asoslanib, naql ta'vil qilinib, aql to'g'ri deb topgan narsaga moslashtiriladi".

Muhammad Rashid Rizo esa: "Shariat va aql nomutanosib kelganda, qat'iy aqlga amal qilish aniqdir", deydi.

Muhammad Farid Vajdiy ayrim oyatlarning tafsirida aytadi: "Bu oyatlarning barchasini bu dinga xos bo'lgan usuliy qoidalar qamrab olgan. Shunday ekan, nass bilan aql yoki sahih ilm o'zaro nomutanosib kelib qolsa, matn ta'vil qilinadi va aql va ilm hukmi olinadi".

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolari tarjimasi va tafsiri. – Toshkent. Sano standart, 2021. – 621 b.
2. Ad-Duktur Muhammad Husayn Zahabiy. At-Tafsir val-Mufasssirun. – Qohira. Maktabatu Vahba, 2000. J. 2. – 464 b.
3. Ibn Arabiy. Fusus al-Hikam. – Bayrut. Dar al-Kutub al-Arabiyya, 2019.
4. Mahmud Zamaxshariy. Tafsir Al-Kashshof. – Bayrut. Dor al-Ma'rifa, 2009. J. 1. – 685 b.
5. Maxsudov D. Movarounnahr hanafiy mazhabi mufassirlari (XIII-XV asrlar). Monografiya. – T. : O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2019.
6. Maxsudov D. Tafsir uslublari. Darslik. – T. : O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021.
7. Odil Muqriniy. Ixtilof al-mufassirin: dirosatun tahliliyatun naqdiyatun. – Liviya: Jomiatu al-Hoj Laxzar – Botna. 2012.
8. Odil Nuvayhiz. Mo'jamul mufassirin min sadril islam hattal asril hozir. Uchinchi nashr. J. II. – Bayrut: Muassasatu Nuvayhizis saqofiya lit ta'lif vat tarjima van nashr.
9. Qur'on ilmlari / Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. – T. : "Hilol-Nashr" nashriyoti, 2013.
10. Saud ibn Abdulloh al-Fanison. Ixtiloful mufassirin asbobuhu va osoruhu. – Bayrut: Olamul kutub, 2005/1426.
11. Tafsir ilmiga kirish (o'quv qo'llanma) / tuzuvchi: D. Maxsudov. – T. : "Qaqnus" nashriyoti, 2019.
12. Toha Obidin Hamad. At-Tahrir fi usulit tafsir. – ad-Dammom: Maktabatul mutanabbiy, 2014.
13. [www.vb.tafsir.net](http://www.vb.tafsir.net).

الأستاذ الدكتور / شحاتة عبد الرازق أبوشوشة  
أستاذ البلاغة والنقد بجامعة الأزهر والأكاديمية الإسلامية الأوزبكية الدولية

## الإمام السكاكي أحد أئمة البلاغة العربية

## IMAM SAKKOKI IS ONE OF THE SCIENTIST OF BALOGAT

**Annotatsiya.** Ushbu maqola arab adabiyoti va grammatikasi masalalariga bag'ishlangan "Miftahul ulum" ("Ilmlar kaliti") asari muallifi Yusuf ibn Abu Bakr bin Muhammad bin Ali Sakkokiy hayotiga bag'ishlangan. Qolaversa, olimning yozib qoldirgan turli sohalarga oid ko'plab asarlari haqida atroflicha ma'lumot berilgan. Ushbu maqolada arab tili ilmlarida o'z zamonasining durdonalaridan biri bo'lgan Sakkokiyning balog'at ilmi rivojiga qo'shgan ulkan hissasi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Yusuf ibn Abu Bakr Sakkokiy, Xorazm, balog'at, miftahul ulum, ilm ul bade', balog'at ilmi asoslari, odob.

**Annotation.** This article is devoted to the life of Yusuf bin Abu Bakr bin Muhammad bin Ali al-Sakkaki who was the author of the work "Miftahul Ulum" ("The Key of Knowledge"), which is dedicated to the issues of Arabic literature and grammar. Additionally, detailed information is given about the works of the scientist in various spheres as well. In particular, this article highlights the great contribution to the development of the science of Balagot by al-Sakkaki who was one of the prominent scholar of his recent times in the science of Arabic language.

**Key words:** Yusuf ibn Abu Bakr al-Sakkaki, Khorezm, Balagat, Miftah ulum, ilm ul bade', basics of the science of Balagat, manner.

أوزبكستان جوهرة آسيا الوسطى:  
من المعروف لدى العالم الإسلامي أن أوزبكستان  
مثلت مركزا ثقافيا كبيرا في عصر النهضة الإسلامية  
التي أشرقت بها شمس الحضارة العالمية القائمة على  
العلم والحق والعدل.  
لقد استجابت أوزبكستان لكلمة الله الأولى التي  
نزلت على النبي الأكرم محمد-صلى الله عليه وسلم  
(اقرأ) فنمت علومها وارتقت حضارتها ووضعت  
أهم لبنات علمية في الحضارة الإسلامية في الماضي  
الإسلامي المجيد.  
فكان البخاري الإمام الأعظم في علم الحديث.

وكان الزمخشري الإمام في التفسير البلاغي  
للقرآن الكريم.  
وكان الخوارزمي الأسبق بالنظريات الجبرية التي  
لم يسبق إليها.  
وكان الفارابي المعلم الثاني.  
وكان ابن سينا شيخ الأطباء المسلمين.  
ولا يسعنا المقام لنزيد قائمة بالأئمة الأعلام  
الذين بلغت شهرتهم الآفاق.  
ابن خوارزم. . الحداد الذي صاغ علوم  
البلاغة:  
إنه يوسف بن أبي بكر بن محمد بن علي



السكاكي، الذي ولد في قرية من قرى خوارزم عام (٥٥٥ هـ / ١١١٠ م) وعاش في ظل الدولة الخوارزمية - من أبرز رجال البلاغة في القرن السابع الهجري، وله مصنفات شتى، أشهرها وأعلىها كتاب «مفتاح العلوم» الذي قسمه إلى ثلاثة أقسام رئيسية؛ تناول في القسم الأول منها علم الصرف والاشتقاق، وتحدث في القسم الثاني عن علم النحو وموضوعاته، وخص القسم الثالث بعلمي المعاني والبيان، وأعقبهما بمبحثين عن الفصاحة والبلاغة، وعن فنون البديع بمحسناته اللفظية والمعنوية، ثم تناول في مبحثين علمي المنطق والعروض والقوافي.

لكن شهرتها التي سارت بها الركبان ترجع إلى القسم الثالث الذي تناول فيه علوم البلاغة، واعتماده فيه صياغة جديدة بأسلوبه القائم على المنطق والتحديد والتقسيم والتعديد، وأصبح بناؤه - كما يرى تمام حسان - شبيها بالبناء الكامل: (فإذا عنى علم المعاني بإقامة الصرح، وعنى البيان بتقديم اللبانات ومواد البناء، فإن علم البديع يعنى بطلاء المبني وزخرفته) (٨، ص - ٩٤٣) وقد أفاد من نتاج من سبقه، فلا تخفى آثار دلائل عبد القاهر وأسراره، وكشاف الزمخشري ونهاية إيجاز الرازي (٨: ص - ٣٢) إلا أنه اخترع ترتيباً جديداً، فجمع منها ما كان متعلقاً بمطابقة الكلام لمقتضى الحال وسماه علم المعاني، وما كان متعلقاً بإيراد المعنى الواحد في طرق مختلفة وسماه علم البيان (٨: ص - ٧٢) وجعل الوجوه التي تقصد لتحسين الكلام ذبلاً لهذين العلمين (٣: ص - ٦٣) وحقيق أن يقال بأن البديع أعمق من ذلك وأعظم أثراً، فإذا جاء في أسلوب زاده إثارة ونماء وحياء، وإذا جاء في صورة امتدت آثارها، وتكاثفت ظلالها، وإذا نزع من سياقه تشوهت الدلالة وانقصت دقائق التراكيب، وانزوت لطائف التصوير.

الإمام السكاكي وتطوير البلاغة العربية:  
ومن الظاهر البين أن السكاكي طور الدرس البلاغي، وتميز بأمور لا تخطئها عين منصف، فقد قسم

البلاغة ثلاثة أقسام، وجدد شكل الدرس البلاغي بما بني عليه من تقسيم وتعديد، والتف حوله علماء عصره ومعلموه ومن خلفهم في هذين الميدانين، حتى نال من الشروح والحواشي بما لم يحظ به غيره، ونال في العصر الحديث إشادات كثيرة من الباحثين المنصفين، كما حمله غيرهم جمود البلاغة وذبولها وفقدتها ألقها في الدرس البلاغي تأليفاً وتديراً (٢١: ص - ٧٣).  
ومما يجدر بنا ذكره في هذا المقام: أن الناظر إلى صنيع السكاكي بعيداً عن سياق تطور الفكر البلاغي تأسيساً وتطويراً، وواقع النتاج الأدبي في عصره لن يتردد في اتهامه بأنه سبب في تحجر الدرس البلاغي وتوقف ألقه، وخمول ذكره، لكن المتدبر لمسيرة الدرس البلاغي وجهود من سبقه سيجد أنه صنع جديداً، ولم يكن مقلداً وتابعا، إذ عمد إلى تحديد مسائل هذا العلم وتقرير أبوابه، ليسهل على طلابه درسه والوقوف على مسائله، وبذلك لم ينقطع عن صنيع من سبقه، إذ قام في مفتاحه - كما يقول الدكتور شوقي ضيف: بعمل ملخص دقيق لما نثره السابقون من آراء وما استطاع أن يضيفه إليها من أفكار، وصاغ ذلك كله صيغة مضبوطة محكمة استعان فيها بقدرته المنطقية في التعليل والتسبيب، وفي التجريد والتحديد والتعريف والتقسيم والتفريع والتشيعيب (٥: ص - ٨٨٢) ومن ثم ارتضى أن يتعد به عما توهج به الدرس البلاغي الجرجاني من التحليل والتعليل والدائقة النقدية الأدبية المبهرة.

وبالنظر في درسه البلاغي في باب الحذف تنجلي لنا سمات عديدة، واتجاهات جديدة، تكشف عن منهجه، وتظهر للمتلقي علمية درسه، واهتمامه بالتقسيم والتعديد، ومن هذه السمات ما يلي:

السمة الأولى: التقسيم:

وهي السمة الأظهر في الدرس البلاغي السكاكي، إذ استعان بثقافته المنطقية لتقسيم درسه البلاغي، تقسيماً ثلاثياً: علم المعاني، وعلم البيان، وألحق بهما علم البديع، ثم قسم كل علم إلى مباحث،

وكل مبحث إلى عدة موضوعات، وفي باب الحذف الذي تناوله الجرجاني تحت عنوان الحذف، قسمه السكاكي إلى ثلاثة موضوعات موزعة على ثلاثة مباحث، فحذف المسند إليه جاء ضمن تفصيل اعتبارات المسند إليه، وحذف المسند جاء في سياق تفصيل اعتبارات المسند، وحذف المفعول ورد في مبحث الفعل وما يتعلق به.

وسمة التقسيم - بلا شك - قراءة خاصة، ورؤية جديدة على الدرس البلاغي لم يسبق إليها، بل هو الإمام الذي اتبع فيها، حيث قام الخطيب بتلخيص المفتاح وأكمل ما رآه ناقصاً، وعدل وأضاف، وجود التقسيم وضبطه، وحمل من جواهر الدلائل والأسرار والكشاف ما رآه ضرورياً في الدرس البلاغي، ومما يذكر عن أعلامنا قدراتهم اللافته في متابعة آثار دروسهم العلمية وتعاطي طالبي العلم معها، فإذا تطلب الأمر تطويراً طوروا، أو تلخيصاً خصوا، أو توضيحاً وضحووا، فبعد التلخيص كان التوضيح، ولما ارتضى علماء زمانه ومن بعده هذا النهج البلاغي المحكم، لم يتوقف مدادهم، فزادوا الشروح والتوضيحات، وفي كل جواهر تلتقط، ودرر تغتم.

ومن فوائد هذه السمة التي كان السكاكي أول من سنّها إحكام علم البلاغة، وتحديد معالمه وأبوابه وفروعه، فبعد أن كان الدرس البلاغي بلا ضوابط محددة، وأبواب واضحة، وفروع بائنة، تجلت في المفتاح لا تتداخل في حافظة المتلقي، ولا تستعصي على الفهم.

ومع ذلك لم يسلم الرجل في العصر الحديث من نقذات ثائرة، وكتابات غاضبة، إذ رأوا أنه بتمنطقه وتفلسفه في التقسيمات والإضافات والجدليات قد أفسد علم البلاغة؛ لأن (وضع المبادئ، والمعايير، وصناعة الأحكام، وتهيئة النماذج، وتحديد أطر الأشكال النسيجية، أدى إلى حالة من الانفصام الحاد بين ثنائيات (القاعدة / الاستعمال) و(المثالية / العادية)، مما أدى إلى حدوث تصدع في العملية

الإبداعية على مستوى التعبير العام) (١: ص - ٣١) ومن ثم رفض غير واحد هذا التقسيم الذي أدى - كما يرون - إلى وصفها بالجفاف والجمود والتعقيد (٥: ص - ١٧٢) وافتقادها الروح الأدبية الذوقية التي اشتهر بها الدرس البلاغي الجرجاني قبله، وارتضوا أن يجدد الدرس البلاغي بالتوجه إلى النظريات المستحدثة التي بزغ نجمها في العالم العربي من مشرقها الغربي كاللسانيات، والسيميائيات، والتداوليات، والشعريات، وغيرها.

والذي أراه أن هذه انتقادات غير منتجة، لتجاوزها المعطيات العلمية والثقافية، والسياقات التاريخية، حيث طلب منه أفضل عصره خوفاً من ضياع علوم العربية وثقافتها (رأيت أذكاء أهل زمني الفاضلين، الكاملي الفضل، قد طال إلحاحهم عليّ في أن أصنف لهم مختصراً يحظيهم بأوفر حظ منه) (١: ص - ٧) ومن ثم وضع خطته، وحدد معالم درسه، وما كان منه إلا الالتزام بتلك الخطة، والاختصار والتلخيص والتقرير يلزمه التقسيم والتحديد، ولم يكن مشروعه بلاغياً فحسب، وإنما شمل علوماً أخرى كالصرف والنحو.

فالصنيع الذي انفرد به السكاكي من تقسيم البلاغة وتبويبها، قد عاد على الدرس البلاغي بفوائد لا حصر لها، وإيجابيات يضيق المقام عن ذكرها كلها، ولكني سأوضح أهمها فيما يلي:

أولاً: الحفاظ على علوم العربية وآدابها، حيث كان قصده (واضح الدلالة في التركيز على مشروع بناء الأدب على أساسيين، الصرف بتمامه وتمامه بعلم الاشتقاق. والنحو بتمامه، وتمامه بعلمي المعاني والبيان) (٢١: ص - ٧٢) مما يعزز دوره التاريخي تجاه الأمة بالحفاظ على لغتها.

ثانياً: وضع الخطة والالتزام بها، وهذه سمة واضحة في منهجه، حيث وجدناه خط لمفتاحه منهجاً قائماً على التلخيص والإيجاز، وقد التزم بذلك. وفي هذا من تربية الباحثين والدارسين على الجدلية



والالتزام بما حُطِّط له ما فيه.

ثالثاً: جهوده البلاغية رائدة، ولا يمكن التقليل منها، إذ (كانت البلاغة قبل السكاكي متفرقة في متون مؤلفات مختلفة لا تتبع منهجاً واضحاً ومحدداً، . . .) (٩: ص - ٣١) وهل تعاب دراسة لبست ثوبا علمياً، أم تمدح ويقدر شأن صاحبها؟! وغاية الدراسات الحديثة اليوم والمناهج الغربية الاجتهاد لتأسيس منهج علمي يكون حاكماً في الدراسة النصوص الأدبية، وتذوق جمالياتها (٩: ص - ٢) فالبلاغة السكاكية تعد من أهم الإنجازات التاريخية في تشكيل هذا العلم وتأسيس درسه الذي النف الكثير حوله، حفاظاً على علوم اللغة وبلاغتها، وخدمة لكتاب ربنا، فله الاعتبار والتقدير.

السمة الثانية: المقدمة التعقيدية المجردة:

وهذه ثانية أظهر سمات درسه البلاغي، فقد بني منهجه على ذكر القاعدة أولاً ثم الإتيان بشواهداها، فقبل حذف المسند إليه، يقول: (أما الحالة التي تقتضي طي ذكر المسند إليه فهي: إذا كان السامع مستحضراً له، عارفاً منك القصد إليه عند ذكر المسند، والترك راجع إما لضيق المقام، وإما للاحتراز عن العبث بناء على الظاهر، وإما التخيل أن في تركه تعويلاً على شهادة العقل، وفي ذكره تعويلاً على شهادة اللفظ من حيث الظاهر، وكم بين الشهادتين، وإما لإيهام أن في تركه تطهيراً للسان عنه أو تطهيراً له عن لسانك، وإما للقصد إلى عدم التصريح ليكون لك سبيلاً إلى الإنكار إن مست إليه الحاجة، وإما لأن الخبر لا يصلح إلا له حقيقة كقولك: خالق لما يشاء فاعل لما يريد أو ادعاء، وإما لأن الاستعمال وارد على تركه أو ترك نظائره، كقولهم: نعم الرجل زيد، على قول من يرى أن أصل الكلام: نعم الرجل هو زيد، وإما لأغراض سوى ما ذكر، مناسبة في باب الاعتبار بحسب المقامات لا يهتدي إلى أمثالها إلا العقل السليم، و الطبع المستقيم) (١٠١: ص - ٦٧١) ففيه تفصيل للقاعدة المجردة من البيان والتوضيح، شاملة

جميع أغراض حذف المسند إليه أولاً ثم ذكر الشواهد بعدها.

وهذا شأن درسه البلاغي، وسمته المخطط له، فيبدأ حذف المسند بقول: (أما الحالة المقتضية لترك المسند فهي: متى كان المسند إليه بحال يعرف منه المسند، وتعلق بتركه غرض، إما اتباع الاستعمال، كقولهم: ضربي زيداً قائماً، وأكثر شربي السوق ملتوتا، وأخطب ما يكون الأمير قائماً، وقولهم: كل رجل وضعته، وقولهم: لولا زيد لكان كذا، ونحو ذلك، وإما قصد الاختصار والاحتراز عن العبث، كما إذا قلت: خرجت فإذا زيد، أو قلت: زيد منطلق وعمرو، وقوله عز من قائل: (أفأنبئكم بشر من ذلكم النار). إذا حملته على تقدير: النار شر من ذلكم، وإما ضيق المقام مع قصد الاختصار والاحتراز عن العبث) (١٠١: ص - ٦٠٢) والفرق بين ذكر القاعدة فيهما، انه في حذف المسند إليه ذكرت القاعدة إجمالاً، ثم سيقت شواهداها، وأما في حذف المسند فقد ذكرت كل الأغراض ومع كل غرض شاهده، وهذا ما فعله مع حذف المفعول (١٠١، ص - ٨٢٢) وهذا ما يعرف حديثاً بالطريقة القياسية، حيث يبدأ بذكر المصطلح وقاعدته ثم الشاهد البلاغي المبين لها، وهذه طريقة تدريسية يعتمد عليها كثيرون في التأليف وفي قاعات التدريس، بذكر القاعدة ثم ذكر الشواهد المقررة لها، والسكاكي رحمه الله تعالى يرى أن هذا المنهج أولى في افتتاح الدرس عامة، وليس البلاغي فقط، فيقول: (وضمنت لمن أتقنه أن يفتح عليه جميع المطالب العلمية) (١٠١: ص - ٧٠٢) فلا يجب أن يغيب عن كل باحث في درس السكاكي البلاغي أنه جعل هذا الكتاب مبدئاً للعلوم ومفتتحاً لها، ولعل تسمية كتابه بمفتاح العلوم خير دليل على تقديمه هذه الطريقة على غيرها، ومن ثم يكون النقد بناء وفق خطة الرجل ومنهجه في درسه البلاغي خاصة، وعكسها الطريقة الاستقرائية، حيث تذكر الشواهد أولاً، وتستنبط منها القاعدة.

ولهذه الطريقة التدريسية فوائد كثيرة ذكرها التربويون، من أهمها ما يلي:

أولاً: سهولة التطبيق، فما على المؤلف أو المعلم إلا أن يذكر القاعدة ثم يثني بشواهدا.

ثانياً: مناسبتها لاستراتيجية المحاضرة ذات الحضور الكبير.

ثالثاً: مساعدة الطلاب على تنفيذ المناهج المقررة.

وعلى الرغم من هذه الميزات إلا أن لها عيوباً عديدة، تتمثل فيما يلي:

أولاً: طريق للتلقين والحفظ، مما يذهب بالأثر التعليمي سريعاً

ثانياً: ضعف بناء الذاتية في التفكير والقدرة على الاستنباط.

ثالثاً: توقف التفكير الإبداعي عند المتعلمين، إذ كل مكونات الدرس محددة القواعد والشواهد، وافتقاد الأسئلة الباعثة على التفكير والاستقراء (٧: ص -).

ومما يذكر من سمات درسه أيضاً المقدمة العامة بداية كل باب، دون أن يمهّد لما يتناوله من الموضوعات التي تأتي في إطاره، فلم تكن للحذف مقدمة توطئ له، وتمهّد بما من شأنه أن يسهل للعقل الوصول إليه، ويبعد طريق الفهم للحصول عليه، وإنما جاءت المقدمة لأحوال المسند إليه وأخرى لأحوال المسند، وأخيرة لاعتبارات الفعل وما يتعلق به والتي ذكر منها حذف الفعل والمفعول، ولعل السر في ذلك أنه اكتفى بالتقديم في أول الباب ولم يشأ أن يخص كل حال من أحوال المسند إليه أو المسند بمقدمة خاصة فيخفي على المتلقي أن الحذف حالة وليست أصلاً.

وسوف نذكر بعضاً منها، لنقف على طريقته في تقديم دروسه، فيقول في تفصيل اعتبارات المسند إليه: (لما تقرر أن مدار حسن الكلام وقبحه على انطباق تركيبه على مقتضى الحال، وعلى لا انطباقه، وجب عليك أيها الحريص على ازدياد فضلك، المنتصب

لاقتداح زناد عقلك، المتفحص عن تفاصيل المزاي التي بها يقع التفاضل، وينعقد بين البلغاء في شأها التسابق والتناضل، أن ترجع إلى فكرك الصائب، وذهنك الثاقب، وخاطرك اليقظان، وانتباهك العجيب الشأن، ناظرًا بنور عقلك، وعين بصيرتك، في التصفح لمقتضيات الأحوال في إيراد المسند إليه على كيفيات مختلفة، وصور متنافية حتى يأتي بروزه عندك لكل منزلة في معرضها، فهو الرهان الذي يجرب به الجياد، والنضال الذي يعرف به الأيدي الشداد، فتعرف أيما حال يقتضي طي ذكره، وأيما حال يقتضي خلاف ذلك، وأيما حال يقتضي تعرفه: مضمراً أو علماً أو موصولاً، أو اسم إشارة، أو معرفاً باللام، أو بالإضافة، وأيما حال يقتضي تعقيبه بشيء من التوابع الخمسة، والفصل، وأيما حال يقتضي تنكره، وأيما حال يقتضي تقديمه على المسند، وأيما حال يقتضي تأخير عنه، وأيما حال يقتضي تخصيصه أو اطلاقه حال التنكير، وأيما حال يقتضي قصره على الخبر) (٥٧١: ص -)

وفي تفصيل اعتبارات المسند، يقول: (للوّجه الذي علمت، أيها المخصوص، يتلاطم أواذي فكره دون أبناء جنسه المستودع في استكشافه عن أسرار البلاغة كمال أنسه النّقاب المحدث، فلا يحتجب عنه شيء من بدائع النكت في مكامنها، المستخرج للطائف السحر البياني عن معادنها، المستطلع طلع الإعجاز التنزيلي باستغراق طوقه المالك لزمّام الحكم، كفاء المتحدّين بعجيب فهمه، وغريب ذوقه، فهو الطلبة وما عداه ذرائع إليه، وهو المراد وما سواه أسباب للتسلق عليه، أن لا بد من التصفح لمقتضيات الأحوال في إيراد المسند إليه على تلك الصور والكيفيات، تعلم له أيضاً أن لا بد من التصفح عن الأحوال المقتضية لأنواع التفاوت في المسند، من كونه: متروكاً تارة وغير متروكاً أخرى، ومن كونه مفرداً أو جملة، وفي إفراده من كونه: فعلاً، نحو: قام زيد ويقوم وسيقوم، أو اسماً. منكرًا أو معرفًا من جملة المعارف، مقيدًا كل من



ذلك بنوع قيد، نحو: ضربت يوم الجمعة، وزيد رجل عالم، وعمرو أخوك الطويل، أو غير مقيد، وفي كونه: جملة، من كونها: اسمية أو فعلية، أو شرطية أو ظرفية، ومن كونه: مؤخرًا أو مقدمًا، حتى يتهيأ لك أن يتسم لكل مقام بسمته، وأن يجري إلى حد مقتضاه على أقوم ستمته، فهو المطارح الذي تران فيه قوى القرائح، والمطارد الذي يمتاز فيه الجدع عن القارح) (٥١: ص - ٥٠٢ - ٦٠٢)

وفي أحوال الفعل وما يتعلق به، يقول: (واعلم أن للفعل ولما يتعلق به، اعتبارات مجموعها راجع إلى: الترك والإثبات والإظهار والإضمار، والتقديم والتأخير، . . .) (٥١: ص - ٤٢٢)

وبتدقيق النظر في هاتين المقدمتين لأحوال كل من المسند إليه والمسند، وبإعمال الفكر والتدبر، تتضح بعض الأمور، منها:

التمهيد العام، حيث يفتح به موضوعاته الشاملة دون التمهيد للموضوعات الداخلية بتوطئة تمهد لها

طول المقدمة؛ لما تتضمنه من تقسيمات وتفريعات، يقوم عليها الدرس البلاغي. ضعف الذائقة الأدبية.

غلبة الروح المنطقية الجدلية بذكر الأغراض والتقسيمات.

احتواؤها على بعض الشواهد المصنوعة، مما جعلها جافة جامدة.

تعد المقدمة تلخيصاً يبدأ به الدرس.

من البين أن مقدمات السكاكي تناسب ما حده لدرسه البلاغي القاصد إلى التلخيص والتنعيد، فقد جعل منها تمهيداً شاملاً لأحوال المسند إليه وأحوال المسند واعتبارات الفعل ومتعلقاته بكل ما يحتويه الموضوع من قواعد وتقسيمات، وترك مثل هذا التمهيد مع الحذف أو الذكر والتعريف والتنكير وجميع أحوالهما ولم يذكر إلا القواعد مجتمعة ثم ساق لها شواهدا، وغلبة الروح العقلية المنطقية الجدلية

وذكر جميع الموضوعات يحول بين العقل المتلقي والاستيعاب، وقد حدد هذا المنهج لدرسه بقوله: (ومهدت لكل من ذلك أصولاً لائقة، وأوردت حججاً مناسبة) (٥١: ص - ٦) وقد أضعفت هذه الروح الذوق الخافت الذي استهلت به المقدمتان الأوليان، ومن ثم حالت بين المتلقي والتشوق إلى المعرفة، وأطفأت وفرة الهمة وثورتها.

ومن ثم اختلفت تمهيداته عن غيره، مما جعل البعض يتساءل: (أين هذا من تمهيدات عبد القاهر التي كان يشوق فيها القارئ، ويعلي من همته، ويهيئه لتلقي ألوان الجمال القادمة) (٣١: ص - ١٣٥) وتأمل السياق التاريخي يساعد على تفهم ما فعله السكاكي، فلعله كان مناسباً تمام المناسبة لما شاع في عصره، ولما رآه لدى طلاب العلم في شتى المناحي، فأراد الرجل أن يحفظ للبلاغة مكانتها بهذه التقسيمات التي كان من فائدتها إقبال الطلاب على تعلمها، ولربما لو انتهج غير هذا المنهج لكان من أسباب انصرافهم عنها.

والرأي أن إنصاف الإمام السكاكي والدفاع عن منهجه لا يعني اتخاذ المنهج الوحيد المتبع، فلنا أن نتخذ من المناهج المناسبة لعصرنا، وبالمقارنة بين مقدمته هنا ومقدمة عبد القاهر للحذف، نخرج بأمرين: أحدهما: تثبتنا من اختلاف منهجهما في المقدمات الممهدة لدرسهما البلاغي، وثانيهما: اتساق مقدمات الدرس الجرجاني مع الروح البلاغية التدوقية المصاحبة للدرس البلاغي في كل عصر.

السمة الثالثة: انتقاء الشواهد ومعاصرتها: لم يكن السكاكي في شواهدة مجرد تابع للسابقين، فهو وإن أخذ عنهم - وهذا ليس عيباً - إلا أنه كان صاحب ذاتية وذائقة تميزت باختيارات متنوعة من كل العصور السابقة عليه والمعاصرة له، فقد نقل (من عصور مختلفة: من الجاهلية، والإسلام، والأموي، والعباسي، حتى عصره ٦٢٦هـ، أي أنه جمع في شواهدة بين القديم والحديث - آنذاك - وهذا

يبیح لنا النظر الدائم في شواهده البلاغية، ولكن الملاحظ على أمثلة السكاكي: الفصاحة، والسلامة، والعفة) (١١: ص - ٥٦) ومن ثم لا تستقيم دعوى من اتهمه بانعدام الذوق، وأنه أهمل جميع مقاييسه (حينما شرع يبحث في البلاغة، بروح منطقية ثقيلة الظل على الدراسات الأدبية) (٦: ص - ٥٨١) إذ إن اختياراته وتنوعها ومعايير اختيارها فيما لم يؤخذ من غيره، وصحة الاستشهاد بها، وتبناها للقاعدة، شاهدة على ما تمتع به من ذوق ودقة وإصابة اختيار، وأما ندرة التحليل الأدبي الذي اتسم به الدرس البلاغي الجرجاني، فلكون قصده التعليم القائم على التلخيص والتفصيل وسوف نتناول ذلك فيما هو آت. ومن الملحوظ في شواهد حذف المسند إليه أنه بعد أن أجمل القاعدة المشتملة على أغراض حذف المسند إليه، جاء بشواهد، بادئا بالشعر دون نسبة الشاهد وإثبات قائله، وهذه سمة عامة في درسه البلاغي، ثم ثني بالشواهد القرآنية، وجاء عدد كل من نوعي الشاهد ثمانية، مناصفة بينهما، ويشعرنا بقلّة شواهد، وسرعة المرور على موطن الشاهد بعجلته وقلة الاهتمام به، إما لأنه يرى سهولة هذا الموضوع، أو أنه ليس وراءه خبئات كبيرة، ونكات كاملة.

وظاهر لا يغيّم أنه بدأ شواهده في حذف المسند بشواهد عديدة مصنوعة، بخلاف صنيعيه في حذف المسند إليه، ثم بدأ بشاهدين شعريين وثني بثلاثة

شواهد قرآنية، ولم يثبت قائلها الأبيات، كما كان الشأن في حذف المسند إليه، بينما نجد نفسه قد طال نوعا ما في حذف المفعول، مستهلا شواهده بالشواهد القرآنية، التي بلغ عددها اثني عشر شاهدا، وهي أضعاف الشاهد الشعري الذي لم يتجاوز ثلاثة شواهد، وكما في المسند إليه وفي المسند لم يسند بيتا واحدا إلى قائله، وقد مر بنا أن الإمام عبد القاهر الجرجاني قد غلبت شواهد الشعرية، ونسبت أكثرها إلى قائله، مما يجعل الثقة موصولة بينه وبين متلقي هذا العلم على يديه، وهي سمة مهمة يجب توافرها في الدرس البلاغي المعاصر تأليفا وتدریسا.

وجدير بأن نختّم هذه السمة بما يدل على أن الدرس البلاغي السكاكي لم يهمل توثيق شواهده بنسبتها إلى أصحابها، إذ نجد له عددا من الشواهد البلاغية قاربت الثلاثين نسبت إلى قائلها، وهي بلا شك نسبة قليلة إذا قيست بشواهد الشعرية التي بلغت مائتين وستين، ولعل سر تجاوزه عن هذا الأمر البالغ الأهمية هو حرصه على الاختصار الذي بنا عليه مصنفه (٣١، ص - ٨٢٥)

السمة الرابعة: تنوع شواهد قرآنا وشعرا:

وبحصر شواهده في موضوع الحذف، يتبين لنا غلبة شاهده القرآني، يتلوه الشعري، ولا نعدم الكثير من الشواهد المصنوعة، ثم يلمح القليل من مآثور السابقين، ويزيدنا هذا الجدول بيانا:

الموضوع	الشاهد القرآني	الشاهد الشعري	المجموع
حذف المسند إليه	4	4	8
حذف المسند	4	2	6
حذف الفعل	8	—	8
حذف المفعول	12	3	15
المجموع	28	9	37





وغلبة الشاهد القرآني ظاهرة في جميع شواهد في المفتاح، فبلغت شواهد القرآنية ما يزيد عن خمسمائة، بينما بلغ شاهده الشعري ما يزيد عن مائتين وخمسين، مما يشهد له بعنايته بالشاهد القرآني ومزيد احتفائه به (٣١: ص - ٣٢٥) وقد علل لذلك بعضهم بأنه أراد أن يظهر ما في البيان القرآني من روعة وبلاغة وإعجاز، وأنه لم يتعد كثيرا عما ذكره الجرجاني والرازي (٦: ص - ٣٨١) وقد رد بأن (السر في ذلك أن النص القرآني نص محكوم عليه من أول الأمر بالروعة والبلاغة، فلا توجد فيه مساحة لموازنة جيد الأساليب برديتها) (٣١: ص - ١٢٥) هذا قول غير دقيق، وفيه تقليل من قدرات السكاكي التحليلية والمقارنة، حيث إن الباحث في مفتاحه يجد له وقفات دقيقة ومبهرة مع بعض الشواهد القرآنية وعقد الموازنات بينها، وهذا ما نتناوله تفصيلا في السمتين التاليتين.

السمة الخامسة: الموازنة بين الشواهد:

لم يكن الدرس البلاغي السكاكي بعيدا عن عقد الموازنات بين شواهد، فلم يخل درسه البلاغي منها، وإن كان ذلك نادرا، ومن جلي ذلك قوله: (ولله در أمر التنزيل، وإحاطته على لطائف الاعتبارات في إيراد المعنى على أنحاء مختلفة بحسب مقتضيات الأحوال، ولا ترى منها شيئا يراعى في كلام البلغاء من وجه لطيف، إلا عثرت عليه مراعى فيه من لطف وجوه، وأنا ألقى عليك من القرآن عدة أمثلة مما نحن فيه لتستضيء بها، فيما عسى يظلم عليك من نظائرها إذا أحببت أن تتخذها مسارح نظرك، ومطارح فكرك، منها أن قال عز من قائل في سورة القصص (٥٢) في قصة موسى: (وَجَاءَ رَجُلٌ مِنْ أَقْصَى الْمَدِينَةِ) فذكر المجرور بعد الفاعل وهو موضعه، وقال في يس (٥٢) في قصة رسل عيسى عليه السلام: (وَجَاءَ مِنْ أَقْصَى الْمَدِينَةِ) فقدم لما كان أهم، يبين ذلك: أنه حين أخذ في قصة الرسل اشتمل الكلام على سوء معاملة أصحاب القرية

والرسل أنهم أصروا على تكذيبه، وانهمكوا في غوايتهم مستشرين على باطلهم، فكان مظنه أن يلعن السامع، على مجرى العادة، تلك القرية قائلاً: ما أنكدها تربة، وما أسوأها منبتاً، ويبقى مجيلاً في فكره أكانت تلك المدرة بحافاتها كذلك، أم كان هناك قطر دانٍ أو قاص منبت خير، منتظراً لمساق الحديث، هل يلم بذكره؟ فكان لهذا العارض مهماً فكما جاز موضع له صالح ذكر، بخلاف قصة موسى) (١: ص - ٨٣٢، ٩٣٢) وانطلق في موازنته بين شواهد أخرى، تقرر ما كان يتمتع به من عقلية مبصرة وذائقة حاضرة في الكثير من مواضع كتابه (وتلحظ في ذلك التحليل العمق، ويمكن أن نقول: إن تحليله يتصف بالسهل الممتع، لا يعطيك بعض الفائدة حتى تعطيه اهتمامكوفهمك) (٤١: ص - ٩) ولذلك أرى أن لا وجه لمن اتهمه بإفساد الذوق الأدبي، فله وقفات يخرج فيها عما حدده لمنهجه في درسه البلاغي، تبصر من خلالها ذواقه لم يترك لمداه البوح بالكثير.

ومثل ذلك التحليل المقارن نجده في الموازنة بين قوله تعالى: (لَقَدْ وَعَدْنَا نَحْنُ وَآبَاؤَنَا هَذَا) المؤمنون ٤٨، وقوله تعالى: (لَقَدْ وَعَدْنَا هَذَا نَحْنُ وَآبَاؤَنَا) النمل ٨٦، وكذلك بين قوله تعالى: (أَنْدَا كُنَّا تَرَابًا وَآبَاؤُنَا أَنْتَا لَمْخَرَجُونَ) النمل ٧٦، وقوله: (أَنْدَا مِتْنَا وَكُنَّا تَرَابًا وَعِظَامًا) (١: ص - ٩٣٢) الصافات ٦١.

ويبدو لي أن السكاكي رحمه وجد الشاهد القرآني هو الأنسب لدرسه البلاغي والموازنة بين بعضها؛ لثلاثة أمور:

أنه يحقق الإجماع، إذ لا تختلف عليه ولا على فصاحته وبلاغته العقول.

أنه سهل التذكر، مما يعين الدارسين وييسر لهم تناول درسه البلاغي.

أن الموازنة بينها ليس بين فاضل ومفضل، وإنما لبيان دقة التعبير القرآني وجلال إعجازه، وبيان مدى مناسبته للسياق.

وبهذا يتسق الإكثار من الشواهد القرآنية مع

مسار منهجه التعليمي البحث ذي الروح المنطقية النادر تطعيمه بالتحليل المشهود عند من سبقه، وبخاصة في الدلائل والأسرار، وهي السمة التي اتخذها جسرا بينه وبين متلقي الدرس البلاغي في المفتاح.

السمة السادسة: ندرة التحليل الأدبي:

لأهل العلم والتخصص من الدرس البلاغي السكاكي مواقف ثلاثة: فمنهم من يشهد له بعظيم فضله، وكريم نبتة، وسعة علمه، وأنه قدم للبلاغة العربية درسا لم يسبق إليه، وخير شاهد ودليل التفاف علماء عصره والعصور من بعده حول درسه شرحا وبيانا وتلخيصا وتوضيحا بما لم يحظ به مؤلف آخر، ومن رفضه قطعاً، ودعا إلى تركه وطرحه، وفراقه ونبذته، فهو بلاغة قديمة عقيمة، ويستبدل الذي هو أدنى بالذي هو خير، من مناهج هنا وهناك، ومنهم من توسط الأمر، فللرجل فضل وسبق، وعليه مآخذ، فيؤخذ منه ويرد. وحقيقة الأمر أن لكل درس هدفاً، ولكل بحث مقصداً، وقد حدد السكاكي مقصده، ووضع لذلك خطته، والتزم بها، فيقول في مقدمته: (وما ضمنت جميع ذلك كتابي هذا إلا بعدما ميزت البعض عن البعض، التمييز المناسب، ولخصت الكلام على حسب مقتضى المقام هنالك) (١٠١: ص - ٦) فما كتبه مختار ميز ولخص واختصر بناء على طلب أهل زمانه (١٠١: ص - ٧) وما كان منه إلا الالتزام بتلك الخطة، والاختصار والتلخيص والتقرير يلزمه التقسيم والتفصيل والابتعاد عن الأسلوب الأدبي الفضفاض، وهذا ما جعل السمة الأدبية الذائقة نادرة.

والمنصف المدقق يجد لها دلائل، ويبصر لها شواهد، ويلتقط منها الفرائد، وقد ذكرت له شاهداً في السمة السابقة، وأتني بدليل آخر، كاشف عن ذائقة الأدبية، ومبين عن قدرته التحليلية، كما في حديثه عن الالتفات في سورة الفاتحة في قوله: (وكل التفات وارد في القرآن متى صرت من سامعيه عرفك ما موقعه، وإذا أحببت أن تصير من سامعيه فأصخ ثم ليتل عليك قوله تعالى «إياك

نعبد وإياك نستعين»، فلعلك ممن يشهد له الوجدان بحيث يغنيه عن شهادة ما سواه، أليس أن المرء إذا أخذ في استحضار جنيات جان متقلبا فيها عن الإجمال على التفصيل وجد من نفسه تفاوتاً في الحال؟ بينا لا يكاد يشبه آخر حاله هناك أولها، أو ما تراك إذا كنت في حديث مع إنسان وقد حضر مجلسكما من له جنيات في ححك كيف تصنع؟ تحول عن الجاني وجهك وتأخذ في الشكاية عنه على صاحبك، تثبته الشكوى معدداً جنياته واحدة فواحدة، وأنت فيما بين ذلك واجد مزاجك يحمي على تزايد يحرك حالة لك غضبية تدعوك على أن توثب ذلك الجاني وتشافهه بكل سوء، وأنت لا تجيب على أن تغلب فتقطع الحديث مع صاحب ومباتتك إياه وترجع على الجاني مشافهاً له: «بالله قل لي هل عامل أحد مثل هذه المعاملة؟ هل يتصور معاملة أسوأ مما فعلت؟ أما كان لك حياء يمنعك؟ أما كانت لك مروءة تردعك عن هذا»، وإذا كان الحاضر لمجلسكما ذا نعم عليك كثيرة فإذا أخذت في تعديد نعمه عند صاحبك مستحضراً لتفاصيلها أحسست من نفسك بحالة كأنها تطالبك بالإقبال على منعك وتزين لك ذلك، ولا تزال تتزايد ما دمت في تعديد نعمه حتى تحملك من حيث لا تدري على أن تجدك وأنت معه في الكلام تثني عليه وتدعو له وتقول: «بأي لسان أشكر صنائعك الروائع، وبأية عبارة أحصر عوارفك الذوارف»، وما جرى ذلك الجري، وإذا وعيت ما قصصته عليك وتأملت الالتفات في «إياك نعبد وإياك نستعين» بعد تلاوتك لما قبله من قوله «الحمد لله رب العالمين الرحمن الرحيم مالك يوم الدين» على الوجه الذي يجب - وهو التأمل القلبي - علمت ما موقعه، وكيف أصاب المحز، وطبق مفصل البلاغة؛ لكونه منبهاً على أن العبد المنعم عليه بتلك النعم العظام الفاتنة للحصر، إذا قدر أنه مائل بين يدي مولاه، من حقه إذا أخذ في القراءة أن تكون قراءته على وجه يجد معها من نفسه شبه محرك على الإقبال على من يحمده، صائر في أثناء القراءة على حالة شبيهة بإيجاب ذلك عند ختم



الصفات، مستدعية انطباقها على المنزل على ما هو عليه، وإلا لم تكن قارئاً، والوجه هو إذا افتتح التحميد أن يكون افتتاحه عن قلب حاضر ونفس ذاكرة يعقل فيم هو؟ وعند من هو؟ فإذا انتقل من التحميد على الصفات أن يكون انتقاله محذواً به حذو الافتتاح، فإنه متى افتتح على الوجه الذي عرفت مجرباً على لسانه الحمد لله، أفلا يجد محركاً للإقبال على من يحمد من معبود عظيم الشأن حقيق بالثناء والشكر مستحق للعبادة؟ ثم إذا انتقل على نحو الافتتاح على قوله «رب العالمين» واصفاً له بكونه رباً مالكا للخلق، لا يخرج شيء من ملكوته وربوبيته، أفترى ذلك المحرك لا يقوى؟ ثم إذا قال «الرحمن الرحيم» فوصفه بما ينبئ عن كونه منعماً على الخلق بأنواع النعم جلائلها ودقائقها مصيباً إياهم بكل معروف، أفلا تتضاعف قوة ذلك المحرك عند هذا؟ ثم إذا آل الأمر على خاتمة هذه الصفات وهي «مالك يوم الدين» المنادية على كونه مالكا للأمر كله في العاقبة يوم الحشر للثواب والعقاب، فما ظنك بذلك المحرك؟ أيسع ذهنك ألا يصير على حد يوجب عليك الإقبال على مولى شأن نفسك معه منذ افتتحت التحميد ما تصورت؟ فتستطيع أن لا تقول: إياك يا من هذه صفاته نعبد ونستعين لا غيرك (١٠١: ص ١٠٢ - ١٠٢) وواضح تلبث السكاكي أمام الالتفات من الغائب المتمثل في الأسماء العلية الظاهرة، إلى المخاطب في (إياك نعبد وإياك نستعين) وانطلق قلمه الذي ورد قلباً يعظم البيان الكريم وصدر عنه بمداد استخراج ما وراء الالتفات من جليل المعاني وخبيئاتها.

ولم يكن هذا التحليل وحسن التعليل مع الشاهد القرآني فحسب، وإنما أنت واجده في الشاهد الشعري كذلك، فيقول بعد بيانه للالتفات في الفاتحة: وليس ابن الحجر الكندي يبعد، إذ التفت تلك الالتفاتات، وكان يمكنه ألا يلتفت البتة، وذلك أن يسوق الكلام

على الحكاية في الأبيات الثلاثة فيقول:

تطاول ليلى بالأثمذ ونام الخلي ولم أرقد

وبت وبات لنا ليلة

أو أن يلتفت نوعاً واحداً فيقول: وبت وبات لكم. . . وذلك من نبأ: جاءكم وخبرتم عن أبي الأسود أن يكون حين قصد تهويل الخطب واستفظاعه في النبأ الموجه والخبر المفجع للواقع الفات في العصد، المحرق للقلب والكبد، فعل ذلك منبهاً في التفاته الأول على أن نفسه وقت ورود ذلك النبأ عليها ولهمت وله الثكلي، فأقامها مقام المصاب الذي لا يتسلى بعض التسليلاً بتفجع الملوك له، وتحزّم عليه، وأخذ يخاطبه بتناول ليلك تسلية، أو نبه على أن نفسه لفطاعة شأن النبأ واستشعارها معه كمداً وارتماضاً أبدت قلقاً لا يقلقه كمد، وضجراً لا يضره مرتض، وكان من حقها أن تثبت وتتصبر، فعل الملوك وجرباً على سننها المسلوك عند طوارق النوائب وبوارق المصائب فحين لم تفعل شككتها في أنها نفسها، فأقامها مقام مكروب ذي حرق، قائلاً له: تناول ليلك، مسلياً. . . (١٠١: ص - ٣٠٢ - ٤٠٢)

ومن هذا النص التحليلي نستيقن قدرته على التحليل الأدبي للشاهد الشعري، وإن كان في بعضها متأثراً بتجليات الكشاف، ومعتمداً عليه (٢١: ص - ٣٠٦) مما يجعلنا ندعو إلى إعادة قراءة درسه البلاغي قراءة منصفه، فيعطى له حقه، ويؤخذ عليه ما يؤخذ دون إجحاف وتشويش، مع مراعاة ما حدده هو لنفسه من منهج أعلن عنه في مقدمته.

رحم الله الإمام العلامة السكاكي الذي طور علوم البلاغة بصياغتها صياغة جديدة، حددت معالمها، وسهلت دراستها، وأصبحت من بعده علماً محدد المعالم، جلي المقاصد، قرآني الشواهد، فحفظ بصنيعه أحد أهم علوم العربية وإعجاز القرآن الكريم، وحقق للامة بصفة عامة، ولأوزبكستان بصفة خاصة أن تفخر به وتعزز بإمامته في علوم العربية والإسلام.

المصادر:

الأسلوبية وثلاثية الدوائر البلاغية/ عبد القادر عبد الجليل / ٣١ / دار صفاء للنشر والتوزيع/ عمان، ط: ١ - ٢٢٤١ هـ - ٢٠٠٢ م.

الأصول - دراسة إستيمولوجية للفكر اللغوي  
 عند العرب / ٩٤٣ / عالم الكتب، القاهرة - ٢٤١ هـ -  
 ٢٠٠٢ م.  
 البلاغة العالية - علم المعاني / عبد المتعال  
 الصعيدي / تقديم ومراجعة / عبد القادر حسين / ٦٣ /  
 مكتبة الآداب، القاهرة، ط: ٣، ٣٢٤١ هـ - ٢٠٠٢ م.  
 البلاغة القرآنية في تفسير الزمخشري وأثرها في  
 الدراسات البلاغية / د / محمد أبو موسى / ١ / ٣٠٦ -  
 جامع الكتب الإسلامية.  
 البلاغة تطور وتاريخ / شوقي ضيف / ٨٨٢ / دار  
 المعارف، القاهرة، ط: ٦، ٣٨٩١ م  
 البلاغة عند السكاكي / د / أحمد مطلوب / ٥٨١ /  
 دار النهضة بغداد / ط ١ / ٤٨٣١ هـ - ٤٦٩١ م  
 طرق التدريس العامة تخطيطها وتطبيقاتها التربوية،  
 وليد أحمد جابر، ط - ٥٢٤١ هـ - ٥٠٠٢ م  
 علم البيان / عبد العزيز عتيق / ٣٢ / دار الآفاق  
 العربية، القاهرة، د ط، ٤٢٤١ هـ - ٤٠٠٢ م  
 المعنى والدلالة في البلاغة العربية / دراسة تحليلية

لعلم البيان / محمد جاسم جبارة / ٣١ / ط ١ - دار  
 مجدلاوي الأردن - ٢١٠٢ م.  
 مفتاح العلوم / السكاكي / ٦٧١ / دار الكتب  
 العلمية  
 مقاصد البلاغة عند السكاكي / ٥٦ / مقال نشر  
 في مجلة الفكر العربي ببيروت / عدد ٦٤ / ٧٨٩١ م.  
 ملامح تجديد البلاغة في كتاب - البلاغة العربية.  
 قراءة أخرى لمحمد عبد المطلب / رسالة دكتوراه للباحث /  
 عثمان عمار / ٨٣ وما بعدها / جامعة وهران الجزائر.  
 ٧٣٤١ هـ - ٦١٠٢ م  
 منهج التعامل مع الشاهد البلاغي بين عبد  
 القاهر الجرجاني وكل من السكاكي والخطيب القزويني /  
 د / عويض بن حمود العطوي / مجلة جامعة أم القرى /  
 ج ٨١ / ٠٣٤ / جمادي الأولى ٥٢٤١ هـ.  
 موقف السكاكي من الشاهد القرآني في كتابه  
 مفتاح العلوم / د / سعد بن عبد العزيز الدُرَيْهَم / ٩ /  
 بحثٌ مُقدِّمٌ للمؤتمر القرآني الدولي الرابع (مقدس)  
 والذي سيعقد في جامعة ملايا في العاصمة الماليزية.



Nurboy JABBOROV,  
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
professori, filologiya fanlari doktori,

## ALISHER NAVOIY VA ISLOM MA'RIFATI ALISHER NAVOI AND ISLAMIC ENLIGHTENMENT

**Annotatsiya.** Maqolada buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy ijodiy kamolotining ijtimoiy-ma'rifiy va badiiy-estetik omillari – Qur'on va sunnatni puxta o'rganib, butun hayoti davomida islom shariatining bu ikki mo'tabar manbasiga og'ishmay amal qilgani tahlil etilgan. Muallifning buyuk islom mutafakkirlari, tasavvuf allomalari asarlarini mutolaa qilgani hamda ulardagi g'oyalarni asarlarida yuksak badiiy talqin etganiga ahamiyat qaratilgan. Turkiy xalq tarixini mukammal bilgani, butun ijodiy-ilmiy salohiyatini millatning or-nomusi, shon-sharafini himoya qilish, yuksaltirish yo'liga safarbar eta olganida namoyon bo'lishi tadqiq qilingan.

Shuningdek, Alisher Navoiyning e'tiqod, shariat arkoniga qanday amal qilgani, buyuk mutafakkir o'qib-o'rgangan tafsir va hadis kitoblari, tasavvuf allomalarning asarlari haqida so'z yuritiladi. "Xamsa" asarining hamd, munojot va na't qismlari mohiyati tadqiq qilinadi.

**Tayanch so'zlar:** badiiy ijod, islom, she'r, adabiyot, Qur'on, hadis, badiiy-estetik omil, tasavvuf adabiyoti, badiiy talqin.

**Annotation.** The article examines the socio-educational and artistic-aesthetic factors of the creative perfection of the great poet and thinker Alisher Navoi. Firstly, the fact that he thoroughly studied Quran and the Sunnah, followed these two powerful sources without deviations, and secondly, that he read the works of great Islamic thinkers, experts in Sufism and continuously developing their ideas, gave highly artistic interpretations in his works, thirdly, that he perfectly knew the history of the Turkish people to whom he belonged, and that he was able to mobilize all his creative and scientific potential to protect and elevation of the honor and glory of the nation.

It is discussed how Alisher Navoi followed the principles of faith and Sharia, tafsirs and hadiths read by the great thinker, the works of Sufism scholars. His artistic interpretation of religious-enlightenment and philosophical-mystical ideas at a high level is confirmed by the analysis of his work. The essence of the parts of "Hamsa" is being investigated, such as "hamd" (*praise of Allah*), "munajat" (*request to Allah*) and "nat" (*praise of the prophet*). Analytical views are put forward on the complementarity of Islamism and nationalism, the support of the concept of the work by great poet on Islamic enlightenment, which did not prevent his works from expressing the national spirit. As a result of the analysis, theoretical generalizations are made.

**Key words:** artistic creativity, Islam, poetry, literature, Quran, Hadith, artistic and aesthetic factor, Sufism literature, artistic interpretation and realizations are made.

Sharq-islom adabiyoti shaklni ham, vaznni ham, ijodiy konsepsiyani ham Qur'oni karim va hadisi shariflardan olgan. Shayx Ahmad Taroziyning "Fununul balog'a" asarida she'rning poetik shakliga taalluqli bo'lgan badiiy san'atlarga misollar avval Qur'oni karim va hadisi sharifdan, keyin turli shoirlar nazmiy asarlaridan keltirilgani ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Masalan, baytning har ikki misrasidagi so'zlarning ohangdosh, vazndosh va qofiyadosh bo'lishi talab etiladigan tarsi' san'atiga misol sifatida Qur'oni majiddan quyidagi ikki oyat keltiriladi:

وَأَنَّ الْفُجَارَ لَفِي حَجِيمٍ إِنَّ الْأُبْرَارَ لَفِي نَعِيمٍ  
(Infitor, 13-14). Yana:

ثُمَّ إِنَّ عَلَيْنَا حِسَابَهُمْ إِنَّ إِلَيْنَا إِيَابَهُمْ  
(G'oshiya, 25-26).

Shundan so'ng mazkur badiiy san'atga:

مَنْ أَطَاعَ غَضَبَهُ أَضَاعَ أَدَبَهُ

“Kimki g'azabiga itoat qilibdi, adabini zoe qilibdi” mazmunidagi hikmatni misol qilingan: [13: 85-b.].

Tarsi' san'atiga hazrat Navoiyning “Hayratul abror” dostoni munojot qismidan olingan quyidagi bayt misol bo'la oladi:

Kimki boshi sajdada – masjudisen,

Kimki yuzi qiblada – ma'budisen [2: 16-b.].

Tashbeh badiiy adabiyotning xususiyatini to'liq mujassam etadigan san'at ekani ayon. “Fununul balog'a”da ushbu badiiy san'atga “Yasin” surasidan misol keltiradi:

وَأَلْقَمَرَ قَدَرْنَا مَنَازِلَ حَتَّىٰ عَادَ كَالْعُرْجُونِ الْقَدِيمِ

[12: 94-b.]. Ma'nosi: “Biz oyni ham, toki u eski xurmo butog'idek bo'lib (egilib) qolgunicha, manzillarga (botadigan qilib) o'lchab qo'ygandirmiz” [11: 442-b.]. Ushbu oyati karimada “eski xurmo butog'idek” deyilar ekan, Alloh taolo bu orqali insonlarga tashbeh vositasida fikr yuritishni ta'lim beryapti. Shu asosda muborak hadislarda ham tashbeh asosida fikrning balog'at va fasohat bilan bayon etilishi kuzatiladi. Masalan,

النَّاسُ سَوَاءٌ كَأَسْنَانِ الْمِشْطِ

[13: 95-b.]. Ma'nosi: “Odamlar xuddi ta-roqning tishlari kabi barobardirlar”.

Alisher Navoiy “Xamsa”sining birinchi dostoni – “Hayratul abror”da ustoz Abdu-rahmon Jomiy ta'rifida quyidagi tashbehlar qo'llanilgani kuzatiladi: “Ko'ksi – haqoyiq duri ganjinasi, Ko'ngli – maoniy yuzi oyinasi” [2: 42-b.]. Bu kabi misollar badiiy adabiyot poetik shaklni Qur'oni karim va hadisi sharifdan olgani isbotidir. Sharq-islom adabiyoti nafaqat shaklni, balki mazmunni va vaznni ham e'tiqodimizning mazkur mo'tabar manbalaridan olgani ma'lum. Alisher Navoiy “Mezonul avzon”da: “Haq subhonahu va taoloning kalomi majidida ko'p yerda nazm voqe' bo'lubdurki, aruz qavoidi bila rostdur” [4: 540-b. ], deya ta'kidlaydi. Biroq bu o'rinda

alohida e'tibor qaratish kerak bo'lgan muhim jihat shundaki, ulug' bobokalonimiz “nazm” deganda bugungi “she'r” istilohini nazarda tutmagan. “Nazm” atamasida so'zning “ni-zomga solinishi, aniq tartibga bo'ysundirilishi” ma'nosi mujassam. Sharq-islom adabiyoti Qur'oni karim va hadisi shariflardan ayni shu xususiyatni oldi. Buyuk mutafakkir “Mezonul avzon”da, jumladan,

لَنْ تَنَالُوا الْبِرَّ حَتَّىٰ تُنْفِقُوا مِمَّا تُحِبُّونَ

(Oli Imron, 92) oyati ramali musaddasi mahzuf vaznida,

فَالْعَصْفَتِ عَصْفًا، وَالْمُرْسَلَتِ عُرْفًا

(Mursalat, 1-2) oyatlari muzorei musammani axrab vaznida ekani, “Kalomullohda ko'p yerda bu nav' voqe'” bo'lgani xususida to'xtalib o'tadi. Hazrat Alisher Navoiyning yozishicha: “Rasul (sollallohu alayhi va sallam) ahodisida dag'i ham bu tariq tushubdur” [4: 540-b.]. Ulug' alloma fikricha:

مَنْ أَكْرَمَ عَالِمًا فَقَدْ أَكْرَمَنِي

hadisi maf'ulu mafoilun mafoiylyu faul afoili bilan ruboiy vaznida hazaji axrabi maqbuza makfufi majbubda voqe' bo'lgani [4: 540-b.] buning isbotidir.

Adabiyotda voqelikni aks ettirish tamoyili ijodiy uslubni belgilaydi. Biroq shu paytgacha ijodiy uslub masalasiga G'arb adabiyotshunosligi mezonlari asosida yondashilib kelindi. Ijodiy uslub masalasiga o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, sharqona adabiy-estetik tafakkur mezonlari asosida yangicha yondashilishi zamon taqozosidir. Adabiyotning badiiylik mezoni uning ham mazmun, ham badiiyat jihatidan puxta bo'lishini taqozo qiladi. Badiiylik mezoni badiiy shakl va mazmunning har jihatdan uyg'un bo'lishi, g'oyaning milliy axloqqa mutanosibliigi, badiiy shaklni yuzaga keltiruvchi unsurlarning rasoligi asosida paydo bo'ladi.

O'zbek mumtoz adabiyotining islomiy asoslarga tayanishi uning milliyligini inkor etmaydi. Ulug' shoir-u adiblarimiz asarlarini milliy tilda yozgani, ularda turkiy millatga xos e'tiqod, ruhiyat, dunyoqarash aks etgani buning isbotidir. Adabiyot ijtimoiy voqelikni badiiy aks ettirsa-da, uning asosiy tasvir



ob'yekti insondir. Inson ruhiyati, e'tiqodi, ha-yot tarzi, ma'naviy olami, ibratli umr yo'lini butun murakkabligi, ziddiyati bilan obrazli tasvirlash orqali shaxs kamoloti va jamiyat ravnaqiga xizmat qilish adabiyotning asl mo-hiyatini tashkil etadi.

Hazrat Alisher Navoiy asarlari islom adabi-yotining yuksak namunalaridir. Buyuk muta-fakkirning badiiy ijodda kamolot darajasiga ko'tarilishida quyidagi ijtimoiy-ma'rifiy va badiiy-estetik omillar asos-zamin bo'lgan: 1) Qur'on va sunnatni mukammal o'rganib, butun hayoti davomida islom shariatining bu ikki mo'tabar manbasiga og'ishmay amal qilgani; 2) buyuk islom mutafakkirlari, tasavvuf allo-malari asarlarini o'rgangani hamda ulardagi g'oyalarni muttasil rivojlantirib va boyitib, asarlarida yuksak darajada badiiy talqin eta bilgani; 3) o'zi mansub turkiy xalqning, o'zbekning tarixini mukammal bilgani, butun ijodiy-ilmiy salohiyatini millatning or-nomu-si, shon-sharafini himoya qilish, yuksaltirish yo'liga safarbar eta olgani.

Xondamirning yozishicha, Alisher Navoiy shariat arkonlariga qat'iy rioya etgan. G'azallaridan birida ulug' shoir e'tiqod bilan amal uyg'un bo'lishi shartligini quyidagicha talqin etadi:

Eyki debsekim, bilay tavhid sirridin xabar,  
Shar'din nekim tajovuz ayladi – ilhod bil  
[1: 385-b.].

Ya'ni tavhidni – Alloh taoloning yagonaligi sirini anglamoqchi bo'lgan kishi bilsinki, sha-riyat chegarasidan chiqsa, dindan yiroqlashadi.

Alisher Navoiy – so'zi va amali bir muta-fakkir. U bir umr islom shiati ruknlariga qat'iyat bilan amal qildi. Buni ulug' boboka-lonimizning o'zi "Vaqfiya" asarida quyidagicha izhor etadi: "...chun kishiga abadiy davlat va saromadi saodat va hayot chashmasining navi-di va najot manzilining umidi islomning besh sutunlik zotulimodig'a kirmaguncha mumkin ermas va bu xamsul muborak panjasig'a ilik urmag'uncha hech ish natija bermas. Avval ul kalimai tavhiddur. Shukrkim, oni alifdek jonim orasida naqsh etibmen. Ikkinchi – saloti xamsadur. Bihamdillahkim, oni naydek zehn aro sabt qilibmen. Uchunchi – Ramazonning

o'ttuz kunining ro'zasidur. Shukrulillahkim, oni lomdek qalbimda yoshurubmen. To'rtinchi – zakotdur. Jonim naqdi ul Tengrig'a zakotim..." [8: 650-b.]. Haqiqatan, "...buyuk mutafakkir dunyoqarashiga ko'ra, ma'ni ahli nazdida johu mulku ganjning zarracha ham e'tibori yo'q va bu toifa izzatiga mol-dunyo bilan emas, faqat himmat orqaligina erishmoq mumkin" [10: 109-b.].

Xondamirning yozishicha, hazrat Alisher Navoiy: "...besh mahal jamoat bilan o'qiladi-gan namozlarning barchasida qatnashardilar" [14: 127-b.]. Juma va jamoat namozlari o'qish-ni tashkillashtirishda ham alohida g'ayrat ko'rsatgan. Hirot shahridagi Marg'aniy bog'i ichida benihoya chiroyli bezaklar bilan ziynat-langan jome masjidi qurib, o'z zamonasi qori-larining sarasi bo'lgan Xoja Hofiz Muhammad Sultonshohni ushbu masjid imomligiga ta-yinlagan hamda o'zi bu yerda besh mahal ja-moat bilan o'qiladigan namozlarda muntazam ishtirok etgan. Hazrat Navoiyning xazinasida biror yili ham zakot to'lashga vojib bo'ladi-gan darajada oltin yig'ilmagan. Xazinaga kelib tushgan har qanday daromad tez orada turli tabaqalar vakillariga in'om sifatida sarflangan yoki masjid, madrasa, xonaqoh va shu kabi in-shootlar qurilishiga – xalq manfaatiga yo'nal-tirilgan. Shunga qaramay, amir Navoiy zakot berishga g'ayrat ko'rsatgan. Ramazon ro'zasini tutish barobarida bu muborak oyda sadaqa va xayr-ehsonni oshirgan. Fozillar, shoirlar, qashshoqlar, nogironlar va yetimlarni pul va kiyim-kechaklar sovg'a qilib siylagan. Turli ta-baqadagi kishilarni xayr-ehson dasturxonidan bahramand etgan.

Hazrat Navoiy islomning beshinchi rukni – haj ibodatini ado etish niyatida bir necha marta yo'lga chiqqan. Ilk bor Mashhadga yaqinlashganda, Mavlono Abdulhay ismli cho-par Husayn Boyqarodan maktub olib keladi. Sulton Iroq va Bag'doddagi vaziyat notinch va beqarorligi, Misr va Shom chegaralarida turli boshboshdoqliklar yuz berayotgani-ga doir xabarlar bois, yo'lning xavfsizligi hajning shartlaridan biri ekanini dalil qilib, ulug' amirni haj safaridan qaytaradi. Ikkinchi marta davlatning bardavomligi hamda uning

qudrati va ulug'ligi abadiy bo'lishini duo qilish sharti bilan haj safariga ruxsat so'raganda, Sulton 1500-yil 2-iyunda bajarilishi barcha uchun majburiyligi ta'kidlangan maxsus farmon chiqaradi. Unga ko'ra, hazrat Navoiy haj yo'lida joylashgan mamlakatlardan qay biriga borsa, u yerdagi hokimlar, a'yonlar, aholi va yo'l xavfsizligi qo'riqchilari hurmat-ehtimom ko'rsatishi, xizmat qilishi, xavf-xatarli joylardan o'tishida qo'riqchilar bilan ta'minlashi shart, deb belgilangan. Ammo farmon chiqarilgan javzo (21-may – 21-iyun) oyida havo harorati ko'tarilgani bois katta qiyinchilik tug'dirishi mumkinligi uchun haj safariga sunbula (22-avgust – 21-sentabr) oyida borishga qaror qilinadi. Uchinchi marta 1500-yilning 26-avgustida haj safariga o'tlanadi. Lekin yo'lida sog'ligi yomonlashgani bois o'sha yil sentabrda yo'lga chiqishni niyat qilib, uyga qaytadi. Biroq Xurosonning ulug' olimlari shahzoda Muhammad Husayn Mirzo isyoni bois saltanat osoyishtaligini saqlashda buyuk amirning ta'siri katta ekanini aytib, haj safarini qoldirishni so'raydi. Xullas, bu qutlug' niyat amalga oshmay qoladi.

Alisher Navoiy buyuk islom mutafakkirlari, tasavvuf allomalarining quyidagi kitoblarini qunt bilan o'rgangan va o'z asarlarida tilga olgan [9: 3-35-b.]: Tafsir kitoblari: Najmiddin Kubroning Qur'oni karim tafsiriga doir "Aynul hayot", G'azzoliyning "Javohirul Qur'on", Ro'zbehon Baqliyning "Aroyisul bayon fil haqoyiqil Qur'on", Abu Tolib Makkiyning "Qutul qulub", Najmuddin Roziyning "Bahrul haqoyiq", Husayn Voiz Koshifiyning "Javohirut tafsir", Mahmud Zamaxshariyning "Al-kashshof fi tafsiril Qur'on", Sadruddin Qo'naviyning "Tafsiri fotiha" asarlari. Ushbu mo'tabar tafsirlar butun islom olamida e'tirof etilganiyoq buyuk mutafakkirning Qur'on ilmiga e'tibori nechog'liq kuchli ekani isbotidir. Husayn Voizning "Javohirut tafsir" asari bevosita hazrat Navoiy tavsiyasi va homiyligida yozilgan. Tafsir xotimasida muallif ulug' amirning islom dini rivojiga doir faoliyatiga yuksak baho bergan.

Hazrat Navoiy hadis ilmiga doir nodir manbalarni o'rganishga ham alohida e'tibor ber-

gan. Bu ilm rivojida beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan Imom Buxoriyning "Al-jomi' as-sahih", Imom Muslimning "Sahihul Muslim", Imom Termiziyning "Sunani Termiziy", Majduddin Muhammadning "Jome'ul usul" asarlari, hadis ilmining badiiy adabiyotga ta'siriga doir Imom Navaviyning "Arba'inun Navaviy", Abdurahmon Jomiyning "Sharhi hadis" va "Arba'in" asarlari buyuk shoir tafakkuri miqyoslarining yuksalishida alohida o'rin tutgan.

Tasavvuf ilmi hazrat Alisher Navoiy hayoti va ijodida nechog'liq muhim o'rin tutgani isbot talab qilmaydi. Shu bois bolalik kezaridan tasavvufiy adabiyotning mumtoz namunasi bo'lgan Shayx Fariduddin Attorning "Mantiqut tayr" asarini sevib mutolaa qilgan, hatto yodlab olgan edi. Tasavvuf ilmining ulkan nazariy-falsafiy va adabiy-ma'rifiy ahamiyatga molik manbalari hisoblanganal-Arabiyaning "Fususul hikam", Abu Homid G'azzoliyning "Ihyo ulumiddin", Ka'b ibni Zuhayrning "Qasidai burda", Abdulloh Ansoriyning "Manozilus soyirin", Shihobuddin Suhravardiyning "A'lomut tuqo", Hakim Sanoiyning "Hadiqatul haqoyiq", Shayx Sayyiduddin Farg'oniyning "Manohijul ibod alal mi'od", Xoja Muhammad Porsoning "Faslul xitob", Amir Qosim Anvorning "Anisul oshiqin", Jaloluddin Rumiyaning "Masnaviyi ma'naviy", Abu Ali Jullobiy Hujviriyaning "Kashful mahjub", Shayx Alouddin Simnoniyning "Iqboliya", Abulhusayn Jahzam Hamadoniyaning "Bahjatul asror", Shayx Najmuddin Kubroning "Favotihul jamol", Xusrav Dehlaviyaning "Mir'otus safo", Horis Muhosibiyaning "Kitobul munqiz val vasoyo", Shayx Fariduddin Attorning "Mantiqut tayr", "Tazkiratul avliyo", Abdulloh Yamaniyaning "Ravzur rayohin", Shayx Mahmud Shabustariyaning "Haqqul yaqin", Abulqosim Qushayriyaning "Risola fit tasavvuf", Abudurahmon Nishopuriyaning "Tabaqoti sufiya", Hakim Termiziyning "Xatmul valoya", Jomiyning "Ashiatul lamaot" hamda Ibn Arabiyaning "Naqshul fusus" asariga yozgan "Naqdun nusus", "Fususul hikam" asariga yozgan "Naqdul fusus" nomli sharhlari va boshqa asarlar buyuk shoirning mutasavvif sifatidagi kamolotiga xizmat qilgan, ijodiy yuksalishida manba vazifasini o'tagan.





1483–1485-yillarda ijod qilingan “Xamsa” asari besh dostonidan tarkib topgan bo’lsa-da, yagona ijodiy konsepsiyaga bo’ysunadi, yaxlit poetik tizim asosida yaratilgan. “Xamsa” tarkibiga kirgan har bir doston Alloh taolaga hamd, munojot va Rasululloh (*sollallohu alayhi va sallam*)ga na’t bilan boshlanadi. Aqoid ilmi-ga oid haqiqatlar ana shu muqaddima qismlarining asosini tashkil etadi. Ulug’ shoir har bir bayt, har bir misra zamiriga Qur’oni karim oyatlari va hadisi shariflar mazmunini mahorat bilan singdiradi, ulardan iqtiboslar keltiradi. Jumladan, “Hayratul abror”ning avvalgi munojotida insonga mana bunday ta’rif beradi: “Karronna” keldi manoqib ango, “Ahsani taqvim” munosib ango” [2: 15-b.]. Baytdagi “Karronna” so’zi “Isro” surasining “Batahqiq Biz bani Odamni azizu mukarram qilib qo’ydik” [12: 289-b. ] mazmunidagi 70-oyatidan iqtibos. “Ahsani taqvim” esa “Tiyn” surasining “Batahqiq, Biz insonni yaxshi suratda yaratdik” [12: 597-b. ]mazmunidagi 4-oyatidan olingan. Buyuk shoir ushbu ikki ilohiy xabarni bir baytga jamlash orqali Odam farzandlarining maqomi yuksak ekani, shunga munosib hayot kechirmog’i zarurligiga urg’u bergan.

Na’t boblarining birinchisida Muhammad alayhissalomning nuri butun olamlardan avval yaratilib, Odam safiyullohdan Rasulullohning otasi Abdullohga yetishgani, ikkinchisida ul zotning tavalludidan qirq yoshga to’lgunga qadar hayoti va payg’ambarlikning dastlabki davri, uchinchi na’tda nur va soya ramzlari vositasida olamlar sarvariga berilgan laduniy ilm hamda islom shariatining arab va ajamga yoyilib, kufr zulmatini yoritgani, to’rtinchi na’tda ul zotning shariat rivoji yo’lidagi xizmatlari va ashobi kirom vasfi, beshinchi na’tda meroj kechasi ta’rif etilgan.

Doston har yigirma maqolotida ma’lum bir muhim mavzu yoritilgach, shunga doir hikoyat berilgan. Bunday usul doston mazmunining ta’sir kuchini oshirgan, badiiyatini yuksaltirgan. Birinchi maqolotda iymon odamiylikning sharti, inson kamolotining asosiy manbai sifatida vasf etiladi:

Kimki jahon ahlida inson erur,  
Bilki nishoni anga iymon erur [2: 85-b.].

Maqolotda iymonning olti sharti – Haq taolaga, farishtalarga, Tangri taolo so’zi bo’lgan samoviy kitoblarga, payg’ambarlarga, qiyomat kuniga hamda qazoi qadarga iymon keltirish zarurati ta’sirli badiiy ifodalangan. Hazrat Navoiy kimki iymonning ana shu olti rukniga e’tiqod qilsa, har qancha nomasiyoh, g’arqai daryoi gunah bo’lsa ham, afv etilib, abadiy rahmatga erishmog’i mumkinligini ta’kidlaydi. Asarda ta’riflanishicha, iymon – barcha insoniy fazilatlar asosi. Islom, adolat, karam, adab, qanoat, vafo, ishq, rostlig’, ilm, jamiyatga foyda keltiruvchi bo’lmoq singari xislatlar iymon poydevori ustiga quriladi. Dostonda ushbu fazilatlarining har biri alohida bob doirasida badiiy talqin etiladi. “Hayratul abror”ning ikkinchi maqoloti “alif”lari amniyat bog’ining sarvlari, “sin”i saodat qasrining kungirasi, “lom”i latofat gulchehrasining sunbuli zulfi va “mim”i muhabbat mash’alining nuri” deya ta’riflangan “islom” vasfiga bag’ishlangan. Hazrat Navoiy talqinicha, Tangri taolo olam ahlini ikki toifa: ahli najot va ahli halok etib yaratgan, birinchisi islom yo’lidagilar, ikkinchisi esa “obidi asnom” – sanamlarga topinguvchilar. Keyin esa islomning besh sharti – “xamsi muborak”ni sharhlaydi: “Anglag’il arkonini beishtiboh, Avvali “Illalloh” ila “lo iloh”, Yona Muhammadni ango bil Rasul, Ber munga tonig’lig’u qilg’il qabul” [2: 95-96-b.]. Ya’ni birinchi shart – Alloh taolonig yagonaligi va Muhammad alayhissalom Uning Rasuli ekani-ga guvohlik berish hamda chin ko’ngildan qabul qilish. Buyuk shoir ta’rificha, ikki olam nizomi ana shu ikki kalom bilandir. Islomning ikkinchi sharti – adoi salot, ya’ni namoz, uchin-chisi – zakot, to’rtinchisi – ro’za, beshinchisi – haj, ya’ni Baytul haramni ziyorat etmoq bilan bog’liq talqinlar ham fikrning ta’sir kuchi va betakror badiiyati bilan alohida ajralib turadi.

“Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” hamda “Sab’ai sayyor” dostonlari asosiy qahramonlari tarixiy ildizlariga ega. Jumladan, buyuk mutafakkir “Tarixi muluki Ajam”da Xusrav Parviz binni Hurmuz tarixini alohida zikr etadi. Asarda Farhod, Shirin, Buzurg Ummid nomlari ham tarixiy shaxslar sifatida tilga olingan. Xusravning olamda husnu lato-

fat va jamolu malohatda tengsiz Shirin ismli mahbubasi, Farhoddek raqibi, shuningdek, Buzurg Ummiddek asrining a'lamii darajasi-dagi vaziri bo'lgani, Farhodni begunoh qatl ettirgani haqidagi ma'lumotlar [7, 638-b.] mazkur obrazlarning tarixiy shaxslar ekanidan dalolat beradi. Asarda tarixiy haqiqat yuksak badiiy haqiqatga aylantirilgan. "Tarixi muluki Ajam"da yozilishicha, Xusrav Parvez hukmronligi Muhammad alayhissalomning payg'ambar etib yuborilishi davriga to'g'ri kelgan. Payg'ambarimiz uni islom diniga da'vat etib noma yuborgan. Lekin u g'ururga ketib, muborak nomani yirtib otgan. Buyuk shoir ta'rificha, bu orqali u o'z mulki va davlatig'a qasd qilgan. Rasuli akram (*sollallohu alayhi va sallam*) mo'jizasidan mulki zavolga uchrab, o'g'li Sheruya podshoh bo'lgan [7: 638-b.]. Bundan hazrat Navoiy tarixiy voqealar hamda Sharq xalqlari ijodiyotidagi ularga asoslangan sayyor syujetlarni "Xamsa" konsepsiyasi asosida qayta ijod etib, mukammal badiiy asar darajasiga ko'targani ayon bo'ladi.

"Xamsa"dagi besh doston muqaddimasi hamd, munojot va na't boblaridan tarkib topgan va ular muallif ijodiy niyatidan kelib chiqib doston xususiyatiga mos talqinlar bilan boyitilgan. Jumladan, "Layli va Majnun" dostonining hamd bobida Haq taolo qudratini anglashda aqlning nechog'liq ojiz ekani ifodalanadi: "Ey sendin ulus xujasta farjom, Og'ozingga aql topmay anjom. Ey aqlg'a foizi maoniy, Boqiysenu borcha xalq foniy" [3: 6-b.]. Bu orqali buyuk shoir faqat aqlgagina tayanish e'tiqod asoslariga muvofiq emasligini, aql va ishq munosabati bilan bog'liq doston konsepsiyasini o'quvchi shuuriga singdira boradi. Alloh taoloning husnni dilpazir (*yoqimli*), el ko'nglini unga asir qilganini ta'kidlar ekan, kitobxon ruhiyatini Qaysning Majnunga aylanishiga tayyorlaydi. Hazrat Navoiy talqiniga ko'ra, Haq taolo husni tajalli qilgani bois Layli Uning ishqiga mazhar bo'ldi. Laylining sifoti esa Majnun qilmoqdir: "Ey Majnunung xiraddin ozod, Ohi beribon xiradni barbod, Ey aql sening yo'lungda g'ofil Kim, telba sening yo'lungda oqil" [3: 7-b.]. Asarning hamd bobi ana shu tarzda asosiy syujet bilan mustahkam

bog'lanadi. Har bir so'z va obraz, har bir bayt va bob muallif ijodiy niyati ifodasiga xizmat ettiriladi.

"Sab'ai sayyor" dostonida muallif konsepsiyasi negizida nafs yo'rig'iga yurish, unga qul bo'lishning oqibati xorlik ekaniga doir Qur'oni karim ta'limotining badiiy talqini turadi. Dostondagi har bir detal, obraz va talqin ana shu konsepsiyani mantiq va badiiyat qonuniyatlari asosida dalillashga qaratiladi. Ovg'a mukkasidan ketgan, saltanat ishlariga loqayd, ko'nglida dard moyasi yo'q, ishq otashidan mahrum Bahrom obrazi orqali nafsga mutelik qoralanadi. Dunyoga hirs qo'yish shaxsni yemirishi, saltanatni inqirozga olib kelishi bilan bog'liq barcha zamonlar uchun ahamiyatli xulosa obrazli va ta'sirli ifodalanadi.

"Xamsa"ning so'nggi beshinchi dostoni "Saddi Iskandariy"ni yozishga kirishishdan avval hazrat Navoiy buyuk jahongir tarixini qunt bilan o'rgangan. Bundan buyuk mu'tafakkirning "Tarixi anbiyo va hukamo"ni "Xamsa"dan keyin yozgan bo'lsa ham, bu tarixiy asar uchun zarur bo'lgan materiallarni ancha avval to'play boshlagani ayon bo'ladi. Ushbu asarda "Iskandar Zulqarnayn Yofasning to'rtinchi o'g'lidur" [6: 544-b.], degan xabar beriladi. Iskandar o'zigacha va undan keyingi barcha hukmdorlardan afzal ekani, hakim va valiy bo'lgani, ba'zilar uni payg'ambar deb hisoblagani aytiladi. To'rt yuz hakim uning xizmatida bo'lgani, Arastu unga vazirlik qilgani, ya'juj-ma'jujlarga qarshi sadd – devor qurgani, Marv, Hirot, Samarqand va Isfahonni bunyod etgani ta'kidlanadi. Buyuk shoir tarixiy materiallardan foydalangan bo'lsa ham, Iskandar obrazini Qur'oni karimning "Kahf" surasidagi Zulqarnayn qissasi asosiga quradi. Tarixiy va badiiy asarlarda Iskandarning insoniyat uchun eng ahamiyatli xizmati ya'juj-ma'jujlarga qarshi devor qurdirgani ekani ta'kidlanadi. "Saddi Iskandariy"ning nomidan asar syujeti va kompozitsiyasigacha ana shu tarixiy voqea asos qilib olingan. Alisher Navoiy dostoni bu jihatdan buyuk salafllari Nizomiy va Dehlaviy asarlaridan farq qiladi.



Dostonning beshinchi bobida “Xamsa” besh vaqt namozga qiyoslanadi [5: 31-b.]. Uni to'liq ado etmoqni burchi deb biladi. Ma'lum bo'ladiki, “Xamsa” turkiy xalqlar badiiy-estetik tafakkurining yuksak namunasi bo'lishi barobarida islom ma'rifati aks etgan benazir axloqiy-ta'limiy manba hamdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ulug' mutafakkir Alisher Navoiy ijodining irfoniy-falsafiy va adabiy-estetik asoslari Qur'oni karim va hadisi sharifga tayanadi. Buyuk shoir poetik mazmun va shaklda

ham, poetik obraz va uslubda ham, badiiy san'atlarni qo'llash va vazn tanlashda ham ana shu ikki mo'tabar manbaga asoslangan. Eng ahamiyatli jihati, hazrat Alisher Navoiy islom ma'rifati asoslarini adabiy-estetik mezon bilib, asarlarida yuksak badiiy talqin etish barobarida, muqaddas dinimiz arkoniga bir umr mukammal darajada amal qilib yashagan. Buyuk shoir hayoti va ijodi, ana shu fazilatlariga ko'ra ham, abadiyatga daxldor va barcha zamonlar uchun ibrat bo'la oladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. /To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. J. 8. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. /To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. J. 6. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013.
3. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. /To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. J. 7. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013.
4. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. /To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. J. 10. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013.
5. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. /To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. J. 8. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013.
6. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. /To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. J. 8. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013.
7. Alisher Navoiy. Tarixi muluki Ajam. /To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. J. 8. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013.
8. Alisher Navoiy. Vaqfiya. /To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. J. 9. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013.
9. G'aniyeva S. Navoiy yodga olgan asarlar. –Toshkent, 2004.
10. Jabborov N. Alisher Navoiy asarlarida “ahli maoniy” tushunchasining o'rni va irfoniy mohiyati. //Alisher Navoiy. Xalqaro jurnal, 2022, 3-son.
11. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri (Tarjimon Shayx Abdulaziz Mansur). – Toshkent: Sano-standart, 2021
12. Qur'oni karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasi (Tarjimon: Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf). – Toshkent: Hilol-Nashr, 2020.
13. Taroziy, Shayx Ahmad idn Xudoydod. Fununu-l-balog'a. –Toshkent: Xazina, 1996.
14. Xondamir, G'iyosiddin. Makorim ul-axloq. – Toshkent: Akadernashr, 2018.

Hamidulloh AMINOV,  
O'zR FA SHI doktoranti,  
tarix fanlari nomzodi

## MAVLAVIY ABULMAKORIMNING "SHARHUN NIQOYA" ASARINING IKKI QO'LYOZMA NUSXASI HAQIDA

### THE ANNOTATION ON THE TOPIC "ABOUT TWO MANUSCRIPT COPIES OF THE WORK "SHARHUN NIQAYA BY MAVLAVIY ABULMAKORIM"

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Mavlaviy Abulmakorimning "Sharhun Niqoya" asarining ikki qo'lyozma nusxasi haqida so'z yuritiladi. Ushbu asar fiqhga oid mashhur "Muxtasarul viqoya" matnining arab tilidagi sharhi bo'lib, u keyingi asrlarda to XX asr boshlarigacha madrasalarda o'quv qo'llanmalardan biri sifatida keng iste'molda bo'lib kelgan. Maqolada ushbu asarning qadimiy nusxalari to'g'risida ilmiy ma'lumotlar berilgan. Asarning O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan qo'lyozma nusxalari to'g'risida, ayniqsa, uning dastxat (avtograf) nusxasi haqida ajoyib ilmiy ma'lumotlar keltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** fiqh, faqih, shayxulislom, qo'lyozma, toshbosma, avtograf, manba, sharh, "Muxtasarul viqoya", Samarqand, Shayboniy.

Hanafiy fiqhidagi eng taniqli manbalardan biri "Muxtasarul viqoya" bo'lib, "Niqoya" deb ham ataladi. U Ubaydulloh ibn Mas'ud ibn Tojush shari'a Mahbubiy Buxoriy (*vaf.* 747/1346) qalamiga mansub. "Muxtasarul viqoya"ga XIV asrdan keyin o'ndan ortiq sharhlar bitilgan [1: 201-b. ; 11: 62-b.]. Unga bitilgan to'rtta arabcha, uchta forscha sharhlar aynan Shayboniylar (1500-1598) davrida yaratilgan edi. Ana shunday arab tilidagi sharhlardan biri tarixda "Xoja Abulmakorim" va "Mavlaviy Abulmakorim" nomi bilan shuhrat qozongan olim tomonidan yozilgan [6: 30-b.].

Mavlaviy Nizomiddin Xoja Abulmakorim ibn Abdulloh ibn Muhammad Samarqandiy (*vaf.* 909/1503) Samarqand shayxulislom va faqihlaridan biri bo'lgan. U zot qariyb to'rt yuz yillik shayxulislomlar sulolasi vakili bo'lganini Muhammad Solih (860-942/1455-1535) bunday tasvirlaydi:

**Annotation.** This article is dedicated to two manuscript copies of the work "Sharh al-Niqaya by Mavlaviy Abulmakorim". This work is a commentary on the famous jurisprudence text "Mukhtasar al-Wiqaya" in Arabic, and the commentary was widely used as one of the teaching manuals in madrasahs until the beginning of the 20th century. The article provides the scientific information about ancient copies of this work. The excellent scientific information is provided about the manuscript copies of the work especially its autograph copy, which are kept in the fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, especially about its autograph copy.

**Key words:** jurisprudence, faqih, great scholar, manuscript, lithograph, autograph, source, review, "Mukhtasar al-Wiqaya", Samarqand, Shaybani.



To'rt yuz yil bo'lub erkan ayyom

Kim, alardurlar shayxulislom [7: 82-b.].

Mazkur to'rt yuz yillik shayxulislomlar sulolasi buyuk hanafiy faqih Burhoniddin Marg'inoniy (511-593/1118-1197) avlodlari hisoblanadi. Xoja Abulmakorim XV asr oxiri va XVI asr boshlari Movarounnahr siyosiy jarayonlarida faol ishtirok qilgan ulamolardan biridir. Muhammad Solih (1455-1535) "Shayboniyнома"da Bobur Mirzoga yon bosgani bois Mavlaviy Abulmakorimga salbiy ta'rif beradi:

Bor edi shahr aro shayxulislom,  
So'zlari borchasi soqolidek xom.

Bulmakorim edi aning oti,  
Anga bor erdi yamonliq zoti.

Ilmdin bahrasi chandon yo'q edi,  
Zotida mashrabi urfon yo'q edi.

Atonib erdi buzurgi ayyom,

Ham Samarqand aro shayxulislom. . . [7: 77-b.].

Muhammad Solihning bu ta'rifiga qo'shilib bo'lmaydi, Samarqanddek shahri azimga shayxulislomlik qilgan, "Muxtasarul viqoya"dek oson, lekin qiyin ("sahlu mumtane") tarzida bitilgan fiqhiy matn kitobiga sharh yozgan odamni: "Ilmdin bahrasi chandon yo'q edi", deb bo'lmasdi. Xondamir "Habibus siyar" asarida uni "Qudvatul a'ozim" - "Ulug'lar peshvosi" va "Iftixorul ashrof val a'ozim" - "Ulug'lar va sharafli zotlarning faxri" deb sifatlagan [13: 261-162-b, 279-b.]. Abu Tohirxo'ja (vaf. 1291/1874) "Samariya" asarida uning "Muxtasarul viqoya"ga sharh bitganini, Shayboniyxon davrida esa fiqh ilmi bo'yicha peshqadam olimlaridan ekanini yozadi [2: 149-b.].

Mavlaviy Abulmakorimning, hozircha ma'lum, yakkayu yagona asari "Muxtasarul viqoya"ga yozgan uch juz'li arab tilidagi sharhi 907-hijriy yilning rajab oyida yozib tugallangan [4: 408-b.].

Xoja Abulmakorim "Muxtasarul Viqoya"ga bitgan sharhini e'tiborli fiqhiy manbalar asosida yozganini, do'stlari uni yozishga shoshiltirganini, masalalarda ixtiyor qilingan fatvolarni tanlaganini, hanafiylik mazhabi bilan birga solishtirish ma'nosida shofe'iylik

mazhabidagi gaplarni ham kiritganini qayd qilgan. Asosiy sharhni boshlash oldidan quyidagi ruboiyni ilova qilgan:

بذلتُ لدا جهدى وقد أتضّرّع،  
لأن يكون رضىّا وهو منتفع.  
بك التذرع يا ربّ فيها فإنه  
لك المكارم و الجود و العلى جمع

Mazmuni: Buning uchun harakatimni tavba-tazarru qilgan holda sarfladim. Toki Alloh rozi bo'lsin, uni foydali qilsin. Ey Rabbim, Sendan bu kitob bilan zari'a - vasila (*savob*) umid qilaman. Chunki karam, saxovat va oliylikning barchasi Senikidir [5: 16]. Asarga mazhabboshilar bilan birga Faxriddin Qoziyxon (vaf. 592/1196), Shamsul aimma Saraxsiy (400-483/1009-1090), Faxrul islom Pazdaviy (400-482/1009-1089), Muhammad ibn Fazl Buxoriy Kamoriy (301-381/914-992), Abulhasan Quduriy (361-428/972-1037), Abulhasan Karxiy (259-341/873-952), Abu Abdulloh Muhammad ibn Salama Balxiy (191-278/807-892) va boshqa faqihlarning nomlari va fikrlari kiritilgan.

Sharhda, asosan, "Muxtasarul viqoya"ning matnini arab tili grammatikasiga ko'ra izohlab, uni fiqhiy manbalardagi masalalar bilan tushuntirish maqsad qilingan. Shunga ko'ra, unda dalillar - oyat va hadislardan matnlar kam uchraydi.

Abulmakorim Samarqandiyning dastxat (*avtograf*) nusxasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 2184/I tartib raqami bilan saqlanadi [14: 241-b.]. Aslida, Abulmakorim Samarqandiyning mazkur avtograf nusxasi va yana bir noyob nusxa Sadri Ziyu kutubxonasida saqlangan [12: 38-b, 137-b.]. Ushbu nusxadan olinib, Eronning "Majlisi sho'royi islomiy" kutubxonasidagi bir qo'lyozma Muhammadyor ibn Mulla Hindu tomonidan 980/1573-yili ko'chirilgan [3: 459-b.].

Mazkur avtograf nusxani 907/1501-yili yozib tugatilgan, deyilgan [6: 41-b.]. Lekin uning kolofonida sana ko'rsatilgan emas. Qo'lyozmaning 01a forzas varag'ida: "Bu kitob Abulmakorim janoblarning o'zlarining

tabarruk dastxati bilan yozilgan”, degan qayd mavjud.

Asarning “bismilloh” dan keyingi boshlanishi (1<sup>6</sup>):

حمدك يا من شرع لنا الأحكام الدين القويم، وهدانا  
بفضله العميم الجسميم الى طريق المستقيم. . .

Asarning “Amma ba’d” dan keyingi boshlanishi (1<sup>6</sup>):

فإن المختصر الذي ألفه الإمام الهمام صدر الشريعة  
والإسلام أعلى الله مقامه في دار السلام. . .

Asarning tugallanishi (320<sup>a</sup>):

. . . والأقل طاهر فإنه لا يتحرى و يتيمم عندنا  
خلافًا للشافعي لأن التراب يقوم مقام الماء فلا ضرورة في  
التحرى كذا في الكافي و الهداية.

Kolofon (320<sup>a</sup>):

تم، و هذا آخر ما وفقني الله الكريم لتأليفه و تركيبه و  
هدائي بلطفه العميم الى تنقيحه و تهذيبه و المؤلف الفقير  
الاحتاج الى رحمة الله الصمد العبد الجاني أبو المكارم ابن  
عبد الله بن محمد ستر الله عيوبه و غفر ذنوبه، تم تم تم.

320 (1b-320a) varaqdan iborat, nasta’liqda ko’chirilgan, har sahifada 25-28 satrdan matn joylashtirilgan. Avvalgi ikki varaq keyinroq ko’chirilganni bilinib turibdi. Asosiy matn qizil chiziqli ramka ichiga olingan. Sharhlanayotgan jumlar usti qizil chiziq bilan belgilangan. Ayrim izohtalab qaydlar va so’zlar matn hoshiyasiga yozib borilgan, ayrim varaqlarda va kodikologiyada “shiqqa” deb ataladigan alohida qog’ozchalarda fiqhiy masalalar ham bitilgan. Ularning ayrimlari muallif tomonidan, qolganlari keyingi davr foydalanuvchilari tomonidan kiritilgan bo’lishi mumkin. Qo’lyozmaning umumiy o’lchami: 18x24 sm. Muqova qog’oz bo’tqasidan (*mag’ziy*) tayyorlangan bo’lib, qizil kartondan ishlangan, labakisi ko’k teridan qoplangan, sahhof nomi bitilgan emas.

O’zR FA ShIda saqlanayotgan noyob nusxalardan yana biri 2388 tartib raqami bilan asrab kelinadi. U Soqiy Muhammad Balxiy degan xattot tomonidan 1120/1708-yili nasta’liq xatida ko’chirilgan. 408 (1b-408a) varaqdan iborat, har sahifada 23 satrdan matn joylashtirilgan, o’lchami 18x24,5 sm. Unda 224 ta “shiqqa” mavjud. Qo’lyozmaning 02 forzats varag’ida “shiqqa”larning umumiy sonini 266 ta deb ko’rsatilgan. Sharhlanayotgan jumlar

usti qizil chiziq bilan belgilangan. Ayrim izohtalab qaydlar va so’zlar matn hoshiyasiga yozib borilgan.

Asar muallifning dastxat nusxasidan olib ko’chirilgan. Yuqoridagi dastxat nusxa deb atalgan qo’lyozma kolofonining eng oxiridagi: duosidan so’ng muallifning quyidagi qaydlari bitilgan (408<sup>a</sup>):

. . . و بعثه في الفئة الحنفية في ظلال أعلامهم يوم يدعى كل أناسيا مامهم، شعر: تيسر جمعه من فضل ربّي، فحمدًا في البداية و النهاية. ولا تنسوا دعائي بعد فقدي، يا أهل التمتع و العناية. و قد أتممته في ضوء صبح، رجاء الختم في نور الهداية. و كان الإتمام بتوفيق الملك العلام في رجب المرجب من شهور سنة ٧٠٩ سبع و تسعمائة.

اللهم اختم بالهداية آجالنا، و بلغنا بلطفك آمالنا، و صلّ علي نبينا محمد خير الرسل والأنبياء و علي آله الطيبين و أصحابه الطاهرين و من تبعهم الى يوم الحزاء، و اغفر لنا و لأبائنا و لأستادينا و مشائخنا في الدين، وارحمهم برحمتك يا أرحم الراحمين.

Xattotning kolofoni (408<sup>a</sup>):

قد فرغ عن تسويده العبد الموصوف بالتقصير و التواني ساقى محمد بن مولانا محمد امين الساني في اليوم الثامن من شهر رجب المرجب المنتظم في سلك شهور سنة عشرين و مائة و الف من الهجرة النبوية علي صاحبها أفضل الصلوة و التحية حامدا لله اولا و آخرا. اللهم اغفر من دعا للكاتب بالمغفرة و طلب له الرحمة.

Sadri Ziy Muhammad Sharif Buxoriy (1281–1350/1865–1932) o’zining kutubxonasi qo’lyozmalariga bag’ishlangan “Asomiyul kutub” asarida Mavlaviy Abulmakorimning sharhidan bir qo’lyozmasini “noyob nusxa” deb ataydi. Mazkur nusxaga: “Aslida benazir kitob, tengi yo’q nusxa, unga o’xshashini hech kim mutlaqo ko’rsata olmaydi. U jonning ozuqasi, balki undan ming martaba ortiqroqdir”, deya baho beradi. Avvaliga kitob Sadri Ziyoning ukasi Abdulg’afur maxdum (1293–1341/1876–1923) qo’lida saqlangan. Uning vafotida keyin merosxo’rlaridan 25 milliard (!) mablag’ga sotib oladi. Sadri Ziy: “Shuncha pul berib sotib oldim, lekin, Xudo haqqi, juda arzon oldim!”, deb iftixor qiladi [8: 184-185-b.].

Mazkur nusxaning muhim jihatlaridan ikkitasini Sadri Ziyoning o’zi qayd qilib o’tgan. Qo’lyozma o’z davrining eng yetuk va taniqli olimi va xattoti Soqiy Muhammad



Balxiy tomonidan kitobat qilingan. Avvalo, unda asarning o'z matni kitobat qilib qo'yilavermasdan, unda olim xattot tomonidan qo'shimcha kiritilgan ilmiy qaydlar 300 ga yaqin parcha qog'ozlar – u "shiqqa" deb ataladi – mavjudligidir. Ikkinchi muhim jihati, qo'lyozmaning avvalgi qismlari – u "juzv" deb ataladi – xattotning otasi, o'z davrining yetuk olimi Muftiy Muhammad Amin Balxiy tomonidan kitobat qilingan [12: 137-b.]. Mazkur ikki xattot ashtarxoniyalar sulolasi hukmdorlaridan Subhonqulixon (*hukmronlik yillari 1681–1702*) davrida Buxoroga kelib ilmiy faoliyat olib borganlar. Sadri Ziyo mazkur Soqiy Muhammad Balxiy

haqida "Risolai xattoton" va "Tazkiratul xattotin" asarlarida ma'lumot bergan [9: 262-b. ; 10: 82-b.].

Mavlaviy Xoja Abulmakorim o'z davrining ilmiy va siyosiy jarayonlarining ko'zga ko'ringan vakili bo'lib, uning bizgacha yetib kelgan va XVI asrdan beri shuhrati so'nmagan "Sharhun niqoya" nomli yakkayu yagona asari to'liq tadqiq qilinmagan manbalar sirasiga kiradi. U na islomshunoslik va na manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Binobarin, uning mazmuni, tarkibiy tuzilishi, qo'lyozma va toshbosma nusxalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish zarurati bor.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniy. Islom huquqshunosligi. Hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2002. –201 b.
2. Abu Tohirxo'ja Samarqandiy. Samariya (Samarqand mozorlari zikri). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. –149 b.
3. Abulmakorim as-Samarqandiy. Sharh Muxtasar al-Viqoya. – Tehron: Kutubxonai majlisi sho'royi islomiy qo'lyozmasi, № 15516/91062. –459 b.
4. Abulmakorim Samarqandiy. Sharh Muxtasar al-Viqoya. O'zR FA ShI qo'lyozmasi, № 2388. – 408 b.
5. Abulmakorim Samarqandiy. Sharh Muxtasar al-Viqoya. O'zR FA ShI qo'lyozmasi, № 2184. – 1 b.
6. Mahmud Hasaniy. Al-Marg'inoniyning "Hidoya" asari va unga yozilgan sharhlar. – Toshkent: Abdulla Qodiriy, 2000.
7. Muhammad Solih. Shayboniynoma / Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi E. Shodiyev. – T. : G'. G'ulom, 1989.
8. Sadri Ziyo. Asomiy al-kutub. O'zR FA ShI qo'lyozmasi, № 2460. –184-185 b.
9. Sadri Ziyo. Risolai xattotoni mutaqqaddimin va mutaaxxirin. O'zR FA ShI qo'lyozmasi, № 2193/XXVI. –262 b.
10. Sadri Ziyo. Tazkirat al-xattotin. O'zR FA ShI qo'lyozmasi, № 1304/III. – V. 82-83 b;
11. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Kifoya sharhi Muxtasari Viqoya. I-juz. – Toshkent: Sharq, 2008.
12. Voxidov Sh. , Choriyev Z. Садр-и Зия и его библиотека. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
13. Xondamir. Habib us-siyar. 4-juz. – Tehron: Kitobxonai Xayyom, 1965.
14. Собрание Восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР (СБП). Том IV. – № 3130. – Ташкент: Издательство Академии наук Узбекской ССР, 1957.

**Nozima IBRAGIMOVA,**  
 “Xadichai Kubro” ayol-qizlar o’rta  
 maxsus islom ta’lim muassasasi direktori,  
 tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

## MANBALARDA ELCHI SHAXSINING BAYONI

### THE PERSONALITY OF AMBASSADORS CREDITED IN THE SOURCES

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o’rta asrga oid manbalardagi elchilik haqida so’z yuritilgan. Manbalar siyosiy, tarixiy va diniy ahamiyatga ega bo’lib, mazkur ibora manba mazmuni doirasida sharhlangan va tahliliy xulosalar berilgan. Mazkur maqolada Abu Rayxon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg’ariy va Xo’ja Nizomulmulk kabi olimlarning asarlaridagi elchilik masalasi ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, Hasan Shayboniy, Abu Sahl Saraxsiy va Movardiy kabi arab olimlarining asarlaridagi ma’lumotlar keltirgan va ular qiyosiy tasniflagan.

**Tayanch so’zlar:** elchi, muhim manba, davlat arbobi odobi, davlat rahbari va mulozimlari, diplomatik vakillar, zakot yig’uvchilar.

Manuscripts written by Abu Raykhan Beruni, Yusuf Khos Khajib, Mahmud Koshghari, Khoja Nizomulmulk, hanafi scholar: such as Shaibani and Sarwarzin play a great role to reveal the key features of ambassador’s profile in the VII-XII centuries [3].

One of the sources which credits ambassador’s personality is ‘Kutadgu Bilig’ by Yusuf Khos Khojib Balosoguni(1019-1090) [14]. The work was created in the 11th century during the rise of the Kara-khanids power. Thus, the work portrays Kara-khanid diplomacy. Yusuf Khos Khajib underlined the theo-

**Annotation.** This article is about the embassy in medieval sources. The sources have political, historical and religious significance, and this phrase is interpreted within the content of the source and analytical conclusions are given by the researcher. In this article, the author scientifically analyzed the embassy issue in the works of Asian scholars such as Abu Raykhan Beruni, Yusuf Khos Khajib, Mahmud Koshghari, Khoja Nizomulmulk. He also cited information from the works of Arab scholars such as Hasan Ash-Shaybani, Abu Sahl al-Saraxsi and Mowardi and classified this information comparatively.

**Key words:** Ambassador, significant source, governmental figures etiquette, governor and his entourage, diplomatic representatives, zakaat collectors

retical basis of the Ambassador’s key features on certain aspects. For instance, the appointed person as an ambassador should embody the following traits, as he claims:

- he should have specialized skills and competencies;
- he should have sharp wit and master different languages;
- he should be quick-thinker and avoid the factors that might confuse or distract him;
- he should be communicative and sociable; [28: 58-b.].

Besides abovementioned, Yusuf Khos Khajib highlights that the main asset of the





ambassador – pragmatic approach in the interaction. Furthermore, he emphasizes the sustenance of ambassador financially.

Another significant source is the book “Siyosatnoma or Siyar al-Muluk” (Politics), depicting the governmental structures of its time. The book is written by Abu Ali al-Hasan ibn Ali ibn Is’haq Nizamulmulk at-Tusi (1018-1092)[1]. His book has been analyzed by various oriental scholars; and acclaimed by the researchers as the political guideline of the Seljuks Dynasty. The author urges the rulers and their noblemen towards justice, integrity, delegation and mercy; practical governance, organized principles, loyalty and commitment towards responsibilities, endeavors to flourish prosperity, secured and peaceful life of the country [7].

Mahmud Koshgari’s “Diwan Lug’ati al-Turk” (Compendium of the languages of Turks) is considered as the outstanding outcome of the cultural and scientific development of Kara-Khanid’s Dynasty, that bear of great value to research that period. The book did not include the term of ‘ambassador’ and its alternatives, since they were not in use that time. Instead, the term “yalafar” was coined to convey the meaning of ‘horse’ granted by the governors to their envoys, eventually ascribed to the ambassadors who could earn that recognition [24: 54-b.]. The description of the term “yalavoch” by L. Z. Budagov, expatiated in the 1. 1st section of the dissertation interpreted slightly different in this work. This term is used to refer the Prophet of a religious significance. Kashgari also alternates the word “alavach” as an equivalent term to depict this notion and draws the attention to the principles, regarding ambassadors: ما على الرسول الا البلاغ [24: 55-b.]. This principle is consistent with the Surah Yasin of the Qur’an: وَمَا عَلَيْنَا إِلَّا الْبَلَاغُ الْمُبِينُ [23: 441-b]

It is noteworthy that the author claims that the key responsibility of both “yalavoch” and “yalafor” to fulfill the tasks accurately, citing the verses not as religious principle but as a popular proverb of its time.

Mahmud Kashgari in his compendium elaborated on the notion of ambassadorship and its values, as well as the normative documents of diplomatic relations and important data for the current research. For instance, the document so-called “kavshut” that was used during the Medieval times the title of “kaush” used in the Middle Ages was a treaty between the two kings for the sake of homeland. It can be deemed a legal document to be signed as an outcome of diplomatic negotiations [24: 352-b.].

Furthermore, the insurance of ambassadors’ security were expressed in the phrase “bushoh”. “Busho’h” was a permit issued by the Sultan for the ambassador’s return. This permit enabled the ambassadors with a number of privileges [24: 420-b.].

The other foremost source of the research is the “Siyosatnoma” (Policy) written by Khoja Nizomulmulk (1017-1092) during the Seljuk period. In his work, the author pays a special attention to the issues regarding international relations between countries. According to him, the security, who guards the borders of the territory, should be aware of the personality of each visitor, and if the visitor turns to be an ambassador of a particular country, he should give a warm smile and draw special attention [26]. The purpose of this maneuver to retain respect towards the ambassadors in any case, so as to encourage the visitors to portray a positive image of the host country. The ambassador was not brought directly to the governor, right away he stepped across the threshold of the country. At first, he was interviewed by the Vaziru-amid (the Minister), who was responsible for the Ambassador. Then they saw the sights so as he could realize the power of the country.

One of the peculiarities of the medieval diplomatic relations was featured as sending ambassadors during the military campaigns. This peculiarity is also inherent to the period when Nizomulmulk lived. Therefore, the author highlighted as key responsibilities of the envoys to gather information about the army, geographical location and po-

litical situation of the visiting country [26: 91-b.]. Accordingly, the strategic zones of the country were highly protected from the ambassadors.

In most cases, diplomatic tours were organized for economic purposes. At times, commercial merchants were sent instead of official envoys. .

According to "Siyosatnoma" (Politics), the ambassadors were required to deliver a specific mission (letter, gift) on time. Honesty and true custody had been highly valued in the Turkic tribes from the ancient history; and these values gained a legal status under the influence of Islam. Such a virtue was not only demanded from the ambassadors, but also the governor and his entourage. These values did not fade in the 14 th century either. It can be seen in the work of "Axlhoki Muhsini", by Hussein Waiz Kashifi (1442 / 46-1505). He cited in his work as follow: "To be honest on property custody is essential virtue. Religion is the root of the people. Faith will be perfected with the true custody" [27: 105-b.].

The Ambassador was selected among the senior people besides above-mentioned principles. He was required to be intelligent, brave, fearless, skilled in archery and horse-rider, charismatic, modest, wise as well as the one who never drank, gambled, cheated. Khoja Nizomulmuluk illustrated the work on the basis of his own experience and backed up some issues with historical background [10].

One of the valuable works written in this regard is 'Kobusnoma' by Kaykavus ibn Iskandar (died in 1083). The didactic guidelines in "Kobusnoma" are devoted to the physical and mental upbringing of the people. When one discusses the notions like maturity, true friendship, loyalty, governmental figures etiquette and their relations with the Head of the State, undoubtedly, it calls for remembering the qualities mentioned in the book "Kutadgu Bilig".

Kaykovus advocated the ambassadors to be a good narrator and straightforward, warned against the false testimonials [22: 11-

b.]. He developed the ideas of knowledgeable, rational and quick -thinker of ambassador's personality cited in "Kutadgu bilig" with "Socrates" philosophy [22: 47-b.]. Kaykovus paid special attention to sustain peace and stability in the country, teaching his children not to struggle with others, shed one's blood unfairly, exemplifying it with his grandfather: Shamsulmali, so as not to repeat that mistake. .

While analyzing the sources written in the VII-XII centuries, the following general requirements for ambassadors have been identified: the mastery of Rhetoric; etiquette and graciousness; seek-for-knowledge nature to make science as indispensable lifestyle, self-development both physically and spiritually; master language to its proficiency.

The sources created by Hanafi scholars play pivotal role, since these scholars were first to study systematically international relations in legal and scientific terms. They did not only expounded on international legal concepts, but also reviewed their specific fields.

Muhammad ibn Hasan al-Shaybani, one of the disciples of Abu Hanifa, wrote the books: "As-Siyar ul-kabir" and "As-Siyar us-orgir" on international legislation. These works revealed the rights and responsibilities, priorities and opportunities of the ambassador. However, these books have not reached till us. The researcher: Sayyid Khalil Khalian enlightened that though the original copy of the book "International law in Islam" were not available, one of the greatest intellectuals Sarakhsi from Transoxiana, reviewed and interpreted the book [20: 225-227-b.].

In the 89th statement of "As-Siyar al-saghir" the following law was brought forward: "When the Ambassador comes across a military officer in a Muslim land; and if he reveals himself showing the governor's letter, his safety is guaranteed, as long as the letter is confirmed to be the governor's". In the chapter of "Amon ar Rasul" of the book: "As Siyar- al-kabir", it was stated that the ambassador would hold the same status no matter who he was: a Muslim, a Jimmy (of Hebrew origin)



or else a Musta'min (a non-muslim foreigner) [25: 44-s]. According to Muhammad ibn Hasan al-Shaibani, this case validated the diplomatic immunity of ambassadors on internationally legal basis.

As it stated above, Abu Bakr Muhammad ibn Abu Sahl As-Sarakhsi reviewed and interpreted Muhammad ibn Hasan's "As-Siyar al-Kabir" [11]. The author elaborated on various issues in the chapter "Amon ar Rasul", which led to the solution of many problems subsequently. The work was considered as a guideline for internal relations of that period.

According to the general analysis of the work, the following verdicts on the ambassadors have been identified: When the ambassador introduces himself to the Caliph, but if it can not be confirmed, he will be punished since it is the matter of custody; If the letter delivered by the ambassador is confirmed to be the governor's, the ambassador's security will be ensured until the response letter is sent; Muslim, free man, a child, women, slave, and zimmy will be provided with private security on condition; while the ambassadors have a priority to have it without any condition; Private security is a tradition inherited from pre-Islamic period (Jahiliyya period). Ambassador's security is guaranteed regardless of war or peace; Since the ambassadors represent the whole country, a loyal, reliable and trustworthy person is sent as an official envoy; The head of state nominates the ambassador with a power of attorney (special note) to speak on behalf of himself and his people; If the ambassador is a slave, he will be released during his duty, because he exploits the Muslim rights; a courier of less political significance is also granted with the custody. The custody is ensured with evidences such as testimony, certificate, letter, a power of attorney and the original seal [16]; If the diplomatic relation is established during the war, the attacking leader sends an ambassador to the besieged state (or vice versa). Then the ambassador will hand in the letter (the letter must be in the name of the Head of the state personally); He asks for the security for

himself and his people; Muslims are required to attend to witness [at the Ambassador's reception]; The head of the besieged state must require custody publicly, providing testimony; According to the results of the negotiations, the ceasefire or the war is settled; The captives are not granted with life security; while the ambassador's family, children, and his wife are guaranteed; Compensation for the security may be given. There have been cases that custody is achieved with 5,000 dinars [2]; Custody is credited up to ten days; If the ambassador gets private security for a year, but will be killed within that period, the crime will be punished according to Shari'ah (Islamic rules).

The Ambassador's custody is considered to be invalid in some cases. These cases contain a false affirmation (for example, deceiving by introducing himself as a "Commander" or using the custody for his own sake), betrayal (for example, misinterpretation of the negotiation or letters), and being employed as an envoy under pressure. In these cases, the letters delivered by them is not considered to be real and they can not have private security.

According to Arabian researchers, the term of 'Security' fall into two categories:

1. General security was considered as insurance of public security. The inhabitants of certain regions and cities got entitled with general security. In this case, the security treaty was signed by the rulers of that area, Imam (religious leader) or his representative;

2. Private security referred to a security guaranteed to a single person. According to Islamic teachings, one Muslim could take up to ten individuals under his custody. This principle was validated by the Qur'anic verses (Surah Tawba verse 6) and the hadith by the Prophet Muhammad as well as his political activities [18: 132-133-s.].

Ambassadors' security was regarded as a private security. The Head of State ensured the ambassador and his delegation's security. This was provided to all type of ambassadors (official envoys, couriers). According to Islamic teachings, the ambassador is honored

for his delegation towards peace and prosperity, thus provided security should contain protection, care, respect and honor as well as privileges [18: 152-s. ].

In the consecutive periods, the religious leaders of Islam agreed that ambassadors or representatives of political purpose did not have to reach the security agreement. Since it had already been guaranteed, according to Shari'ah (Islamic principles), that the ambassadors had general permission to enter the Muslim Empire. Ambassadors had three privileges:

- personal rights (life security and political rights, the accommodation and property safety);
- executive (protection against criminal, administrative, environmental and political aggression);
- financial (personal and private property protection) [18: 154-s.].

The privileges and restrictions entitled to the ambassadors are related with the notions, such as "Dor-ul-Harb", "Dor-ul-Islam" and "Dor-ul-ahd", according to Hanafi scholars. These concepts mean the governmental structures of Arab-Muslim countries [17: 49-52-s. ]. The scholars explain that: "Dor-ul-Harb" refer the state that the Caliphate would war [18: 103-s. ]. There were no specific obstacles to it. "Dor-ul-Islam" was the territory of the Muslim state. "Dor-ul-ahd" stands for the countries who signed a truce by paying tribute to the Caliphate. These countries had partial restrictions and partial privileges [19: 53-s. ].

Muhammad ibn Ahmad al-Sarakhsi (who died in 1090/482) analyzed in his book different verdicts on ambassadors. He mentioned that the ambassador's custody would end with delivering a message, and the return with the response letter [2].

Furthermore, one of the Shafi'i scholars, Abul-Hasan Ali ibn Muhammad ibn Habib al-Mawardi al-Basri al-Baghdadi al-Shafi'i (974-1058), during the 1031-1045 years wrote the book: "Al-ahkom as-sultaniyya va al-valoyot ad-diniyya" (The Governmental legislation and management methods). Though there

was not special chapter about Eastern diplomacy, but chapters from 9 to 15 and 18 deals with some issues of practical- official diplomatic relations. The current work bears a significant value, by providing details on diplomacy etiquette, the role of ambassadors in the ruling policy, the system to organize diplomatic relations of that time [21: 117-p. ].

Mawardi also dwelt on the legal issues of the ambassadors. The work illustrated that ambassadors were abrogated during their journey from some compulsory acts of Islam. For example, it would be impossible to do the Friday congregational prayers during the journey in a fixed pattern [5: 155-p. ]. However, if the destination is connected to the city like Baghdad, they were required to perform the prayers.

If ambassadors were of different faith from Islam, they could stay in "Dor-ul-Islam" without paying Jizyah during their mission for four months [6]. At the same time, their lives and property were under the custody. However, even if the travel time could last a year, their tax exemptions will not be terminated. This case was valid if the return postpone was beyond their control. In peace, time discrepancy between arrival and departure time resolved without conflicts, equaling the envoys to the Zimmy [15]. However, due to the fact that ambassadors did not hold the consistent legal status, like the Zimmy, this verdict would be difficult to follow during a war.

Mowardi mentions that if the ambassador was a Muslim, he had some more privileges in comparison with the Zimmy. The life and property security of the ambassador would be ensured. This warranty was based on the equity principle, thus irrespective whether the ambassador was a female or a slave [5: 212-p. ]. According to Islamic principles, a Muslim could accommodate maximum for three days in another Muslim's home. Thus, the duration of the Muslim ambassadors' stay in the visited country was preferred to be within three days [9].

In his works, Mowardi endeavored to elaborate on all matters relating to ambas-



sadors. He even mentioned the gift exchange procedure. If the ruler wanted to grant the ambassadors with presents in order to settle the disputes between countries, and if that gift served for the sake of the Muslims, then it was to be given from halal (decent) and pure property. The author exemplified it with the event when the Prophet Muhammad (s. a. w: peace be upon him) shared the gifts to enhance bilateral relations after the Hunayn event [12]. If the governor intended for his own or minorities interest, then the gift was to be chosen from his private property. The author backed up this principle with the story about the compromise between Umar ibn al-Khattab and a Bedouin Arab [4].

In order to arrange political matters in the Arab-Muslim countries, the Caliph: 'Umar ibn al-Khattab established the Divan system, which was resulted by Arabs' conquest to various locations. In consequence with military campaigns, varied forms of tribute were delivered to the Arab-Muslim country. Initial divans were set up to register, distribute and arrange the list of the people who were eligible to get these tributes. In his book, Mawardi points out that the divans were divided into the following four groups:

The first divan was targeted to regulate military affairs, and the chancellors of this divan dealt with the army and their expenditure, secret correspondences;

The second divan dealt with various regions, their tax system and claims;

The third divan engaged in assigning special positions, including the appointment and dismissal of the successors of the Caliph, Vizirs (Ministers), ambassadors, and local governors;

The fourth divan was to monitor the budget of the country, its income and expenditure;

The activities of these Divans were controlled by specific regulations and Sharia. Diplomatic issues were resolved under the authority of the Third Divan. Mawardi enumerates a range of authoritative features of this divan:

1. The first feature was to order directly and assign the personnel to enforce it; to allocate their rights and responsibilities as well as to dismiss them. The work indicates that the Head of the country, his Ministers, allocated governors, official ambassadors and financial officials (zakat collectors) could coordinate activities independently in a full or partial way

2. The second feature is to monitor diplomatic representatives and the norms regarding their correspondences. One of the norms suggest the Ambassador to be honest and fair. If the ambassador participated in the delegation on behalf of his ruler and nations, he was authorized to make *ijtihad* (to rationalize the Shariah laws) [8]. On this occasion, the ambassador was required to be free and Muslim. If the person handing over the declaration was not an official envoy, but just a courier; he was not allowed to make *ijtihad*; and not necessitated to be free and a Muslim.

3. The third feature was to guide zakaat collectors in financial terms;

The author expressed his opinion in terms of authority period of representatives. According to him, the period might be a month or a year until accomplishing the assignment or else it might last permanently. In most cases, the ambassadors' authority duration was until fulfilling the diplomatic mission. Mawardi in his "*Al-ahkom as-sultoniya va al-valoyot ad-diniya*" elaborated on diplomatic relations in financial terms. These issues were revealed in the chapters on governmental structures and tax system of the countries which signed a truce. governance and taxation in the countries where peace is sought. The author pointed the introduction of various taxes, such as *jizyah*, *khiroj* and *ushr*, to the countries in which the peace treaty was signed. Specific on the tax requirements, characteristics, rigorous measures and priorities were detailed. He extensively studied the social, political and economic aspects of those countries. The systematic depiction of ruling policy and main principles of Transoxiana would validate this document as a guideline in the Medieval time governance.

### REFERENCES:

1. Abu Ali Khasan was born in 1018 in Rodkon region of Tus, located in Navoiy, in influential family. After getting preliminary education in his homeland, He went to Nishopur and Marv in a seek of knowledge. Then, he traveled to Balkh ,and got hired by Ali ibn Shodon. Afterwards, he got position of dabir (an administrative title) and promoted to the vizier of the Saljuk ruler, Alparslon (1063-1072). on 14<sup>th</sup> October of 1092, he was killed by the hired killer, Abu Tohir in Nahovand city; on his way to Baghdad while he was travelling with Nizomulmuluk Khasan Sabah.

2. Abu Bakr Sarakhsi did not mention the historical reality that he gave about Badal

3. Abu Rayhon Beruni, the author of "Chronology of ancient nations". He was encyclopedic scholar, who lived between 973 and 1048 years. (Қаюмов А. Abu Rayxon Beruniy. Abu Ali ibn Sino. – T. : Yosh gvardiya, 1987. – b. 30; Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig / muallif tomonidan 1069 yilda yozilgan. –T. : Yulduzcha, 1990. – 194 p; Mahmud Qoshg'ariy. Devoni lug'ati turk (Turkiy so'zlar devoni). – T. : O'zRFA, 1963. – 460 b; Hoja Nizomulmuluk. Siyosatnoma yoki siyar ul-Muluk. – T. : Adolat, 1997. – 100 b; Muhammad ibn Ahmad Saraxsiy. شرح السير الكبير (Sharh as-siyar al-kabir). Al-juz' al-avval. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiiyya, 1997);

4. According to the story, one Arab badawi came to the Caliph: Umar ibn Khattab to complain about his life. He asked for garments to his wife and children. Umar ibn Khattob asked what would happen if he did not perform his request. A badawi said that he would leave. Umar ibn Khattob repeated his question. Then the badawi warned that the Caliph would be questioned in the resurrection day for that. The Caliph shed tears to that level that even his beard got soaked. He said he did not possess anything except his long gown (kamis) he was wearing that time. See: Al-Mawardi. Al-Ahkam al-Sultaniyya wa'l-Wilayat al-Diniyya (The Ordinances of Government). Translated by Dr Asadullah Yate. – London: Ta-Ha Publishers Ltd, 1996. – 189 p.

5. Al-Mawardi. Al-Ahkam al-Sultaniyya wa'l-Wilayat al-Diniyya (The Ordinances of Government). Translated by Dr Asadullah Yate. – London: Ta-Ha Publishers Ltd, 1996. – 981 p.

6. Dar ul-Islam is the land of Islam and according to jurisprudence, this state is considered to be the territory where the rules of the Islamic religion are carried out without hindrance. In the land of Islam, non-Muslims paid the "soul tax".

7. <http://e-tarix.uz/milliyat-insholari/286-siyosatnoma.html>

8. Ijtihad – the right of mature person to decide religious and daily issues after gaining certain knowledge.

9. It is evinced that the Caliph: Umar ibn Khattob let the Muslims stay there only for three days, after signing a treaty with Shom Christians. See: Al-Mawardi. Al-Ahkam al-Sultaniyya wa'l-Wilayat al-Diniyya (The Ordinances of Government). Translated by Dr. Asadullah Yate. – London: Ta-Ha Publishers Ltd, 1996. - P. 210.

10. Khoja Nizomulmuluk's political activities mostly related to the reign of Saljuks' Dynasty, who ruled over the territories of Arabia and Turkistan. Initially, he was the vizier of Alparslon, and his son: Malikshoh afterwards. When Malikshoh ascended the throne, he was only 17; thus Nizomulmuluk dealt with administrative and internal governmental affairs on his behalf.

11. Muhammad ibn Ahmad ibn Abusahl abu Bakr shamsul-aimma as-Sarakhsy was born in Sarakh city of Turkmenistan. He was the main figure of Hanafi madhabs, and the great imam (leader) of fiqh (the theory of Islamic law), usul-al-fiqh (legal rules in Shari'ah) and kalam (understanding Islamic philosophy according to evidences). The Khorakhoniyy Dynasty was ruling the country when, he was born. There are some evidences that he lived in Fergana. Some sources refer that he passed away in Balkh, while other sources, including "Al-munjid



fil-a'lom" mention that he lived in Fergana until his death in 490/1097 years.

12. The battle of Hunayn (Gazwat Hunayn) took place in 630, after the conquest of Mecca. It is considered as the last gazwat in Islamic history, which ended with Muslims victory. See: Алихонтўра Соғ'уний. Тарихи Муҳаммадий [Матн]/ А. Соғ'уний. – Т. : Мовароуннаҳр, 2017. – 466 б.

13. The first juz (division): issues as of 401,402, 545, 546, 547. The second juz issues as of 694-721, 796-800, 943 б.

14. Yusuf Khos Khojib, born in Quz Urdu (Bolasogun) in Xith century; was the author of didactic-literary works, a poet, and a governmental figure. While writing his work "Qutadgu Bilig" from 1069 to 1070 (during 18 months), he traveled to China, Mochin (Eastern Turkistan), Iran and Turan. The author granted his book to the ruler of Kashgar, Tashgach the Great Bugro Qarokhon abo Ali Khasan ibn Arslon, and as a result he earned the title of "Khos Khojib" (the Great, chief gatekeeper).

15. Zimmy – the people of other faiths, who lived in Islamic country.

16. Абу Бакр Муҳаммад ибн Абу Саҳл ас-Сарахсий Шамс ул-Аимма. Шарҳ ас-сияр ал-кабир. [Электрон ресурс]. Кириш тартиби: <http://www.al-islam.com>.

أَبُو بَكْرٍ مُحَمَّدُ بْنُ أَبِي سَهْلٍ السَّرْحَسِيُّ شَمْسُ الْأَيْمَةِ. شرح السير الكبير.

17. Ad-duktur Arif Halil Abu Iyd. Al-aloqot al-xarijiyya fi davlat al-xilafati. – Al-Kuvayt: Dar ul-arqam, 1983/1404. – 326 б.

الدكتور عارف خليل ابو عيد. العلاقة الخرجية في دولة الخلافة. – الكويت: دار الارقام.

18. Ad-duktur Vahbatu az-Zuhayliy. Al-alaqot ad-davliya fi al-islam. Muqoranatu bi al-qanuni-ad-davliy al-hadis. – Bayrut: Al-Risala, 1997/1417. – 194 б.

الدكتور وهبة الزحيلي. العلاقات الدولية في الاسلام. مقارنة القانون الدولي الحديث. – بيروت: الرسالة, ۷۱۴۱/۷۹۹۱

19. Al-Imam Muhammad Abu Zahra. Al-alaqot ad-duvalit fi al-islam. – Kuvayt: Dar al-kutub al-hadis, 2000. – 118 б.

الامام محمد ابو زهرة. العلاقات الدولية في الاسلام. – الكويت: دار الكتاب الحديث, ۲۰۰۰

20. Jo'zjoniy A. Sh. Islom huququnosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. -T. : TIU, 2002. – 255 б.

21. Jo'raev Z. Movardiyning Sharq davlatchilik ta'minoti: (Al-Movardiyning "Al-ahkom as-sultoniya va-l valoyot addiniya") asari – davlatchilik tarixiga oid muhim manba (X-XI asrlar)). – T. : Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2015. – 300 б.

22. Kaykovus. Qobusnoma. Nashrga tayyorlovchilar: S. Dolimov, U. Dolimov. – T. : O'qituvchi, 2006. – 208 б.

23. Qur'oni karim. 36-17. – 441б.

24. Mahmud Qoshg'ariy. Devoni lug'ati turk (Turkiy so'zlar devoni). – T. 3. – T. : O'zRFA, 1963. – 54 б.

25. Muhammad ibn Ahmad Saraxsiy. شرح السير الكبير (Sharh as-siyar al-kabir). Al-juz' al-avval. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1997.

26. Hoja Nizomulmuluk. Siyosatnoma yoki siyar ul -Muluk . –T. : Adolat, 1997. - 100 б.

27. Husayn Voiz Koshifiy. Ahloqi Muhsiniyn. –T. : O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. – 664 б.

28. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (1069 yilda yozilgan). – T. : Yulduzcha, 1990. – 58 б.

**Alijon RAVSHANOV,**  
Toshkent islom instituti  
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi

## ISLOM INVESTITSIYA FONDLARI FAOLIYATINING FIQHIY ASOSLARI THE JURISPRUDENTIAL PRINCIPLES OF ISLAMIC INVESTMENT FUNDS

**Annotatsiya.** Ushbu maqola islom investitsiya fondlari haqida umumiy tushunchalar, ularning o'ziga xos jihatlari va ishlash tamoyillarining fiqhiy asoslarini yoritishga qaratilgan. Shuningdek, maqolada pay (*equity*), ijara, murobaha va mahsulot fondlari kabi moliyaviy bozorda ishlab turgan islom investitsiya fondlarining ish faoliyatida uchraydigan fiqhiy masalalar va ularga islom moliyasi sohasining zamonaviy ulamolari tomonidan berilgan yechimlar taqdim qilingan.

**Tayanch iboralar:** fiqh, islom moliyasi, investitsiya fondi, fond bozori, aksiya savdosi, pay fondlari, ijara, murobaha, qarz savdosi, islom moliyaviy instrumenti.

**Annotation.** This article is aimed to provide the general understanding about Islamic investment funds and their features as well as to study the jurisprudential principles of their operational activity. In article, it is also discussed the issues of such Islamic investment funds as Islamic equity funds, rent, Murabaha and Commodity funds and at the same time it presents their solutions that are proposed by contemporary Islamic finance scholars.

**Key words:** Islamic jurisprudence, Islamic finance, Islamic funds, stock market, trading with shares, equity funds, rent, murabaha, issue of debt, Islamic financial thing.

Bugungi umumjahon globallashuv sharoitida samarali va to'laqonli ishlaydigan moliyaviy vositachilik tizimi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Investitsiya fondlari tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, lizing va nobank kredit muassasalari kabi moliyaviy vositachilik tizimining eng samarali ishtirokchilaridan biri bo'lib xizmat qiladi [3: 1-b.].

O'zbekiston aholisining to'qson foizdan ortig'ini musulmonlar tashkil qilishini inobatga olgan holda hamda so'ngi yillarda xalqimiz orasida islom moliyasiga tobora qiziqish ortib borayotgan yoshlarning ta-

lablaridan kelib chiqib, ushbu maqolada musulmonlarning e'tiqodiga muvofiq va shariat ko'rsatmalariga uyg'un tarzda faoliyat olib boruvchi investitsiya fondlari haqida ma'lumot berishni maqsad qildik. Bunday fondlar qisqacha "islom investitsiya fondlari" deb nomlanib, maqolada ularning ishlash tamoyillarini islom fiqhi nuqtai nazardan o'rganishga harakat qildik.

Islom investitsiya fondida investorlar o'zlarida mavjud bo'lgan bo'sh pul mablag'larini joylashtirib, fond faoliyati orqali halol foyda topishni maqsad qiladilar. Investitsiya fondiga o'z sarmoyasi bilan a'zo bo'lgan investorlar ana shu a'zolikni ifodalovchi





hujjatga ega bo'lishadi, ushbu sertifikatda investorning foydadagi ulushi ham aks etiriladi. Ushbu hujjatni a'zolik sertifikati yoki ulush deb atash mumkin. Ularning shariatga muvofiq kelishi uchun bir nechta shartlar mavjud bo'lishi kerak.

Birinchidan, sertifikatda qat'iy summadagi foyda miqdori belgilanishi mumkin emas, aksincha, foyda miqdori fond tomonidan topilgan haqiqiy foydaga nisbatan ma'lum bir ulushda belgilanishi zarur. Demak, nafaqat foyda olinishi, balki sarmoyaning o'zi qaytishi ham kafolatlanmagan bo'lishi shart. Investorlar ushbu fondga sarmoya kiritayotganlarida sarmoyadan keladigan foyda fondning haqiqiy foydasiga bog'liq ekanini, agar fond zarar ko'rsa, o'zlari ham zarar ko'rishlarini tushunishlari lozim. Agar fond katta foyda ko'rsa, investorlarning ham oladigan foydalari katta bo'ladi; zarar ko'rsa, investorlar ham zararga sherik bo'ladilar. Ammo zarar fondning o'z ishiga mas'uliyatsizligi tufayli yuz bergan bo'lsa, u holda fond investorlarning zararini qoplab berishi kerak.

Ikkinchidan, fondga yig'ilgan mablag'lar shariat ruxsat bergan faoliyatgagina yo'naltirilishi mumkin. Ya'ni nafaqat biznesning o'zi, balki u amalga oshiradigan loyihalar, oldi-berdilar ham shariatga zid kelmasligi lozim [1: 211-b.].

Ana shu asosiy qoidalarni inobatga olgan holda quyida islom investitsiya fondlarining bir nechta turlari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

**Pay fondlari (Equity Funds).** Pay fondida sarmoyalar aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalariga tikiladi. Ko'p hollarda aksiyani xarid qilib, uni qimmatroqqa sotish evaziga foyda olinadi. Bundan tashqari, aksiyalardan dividend ko'rinishida ham daromad olinadi. Asosiy faoliyati noshar'iy bo'lgan kompaniyaning aksiyalarini sotib olish, saqlab turish yoki sotish mumkin emas, chunki bunda investor to'g'ridan-to'g'ri noshar'iy ishlar bilan shug'ullanuvchi kompaniyaga sarmoya kiritgan, unga egalik qilgan bo'lib qoladi.

Shuningdek, agar kompaniyaning biznes faoliyati shar'iy bo'lsa, riboga bog'liq amali-

yot bilan ham shug'ullanmasa, u holda ushbu kompaniyaning aksiyalarini sotib olish joizligiga zamonamiz ulamolari ittifoq qilishgan. Ammo bunday kompaniyalar real hayotda deyarli uchramaydi. Aksariyat hollarda kompaniya faoliyatining u yoki bu qismi shariatga to'g'ri kelmaydi. Kompaniyaning biznesi, ishlab chiqaradigan mahsulotlari halol bo'lsa ham, odatda, uning moliyaviy faoliyati, bank bilan munosabatida kredit amaliyoti qo'llaniladi. Qarz olsa foizli kredit asosida oladi, shu bilan birga, bo'sh mablag'lari ham foizli depozitda turadi.

Bunday hollarda kompaniyaning aksiyalari bilan savdo qilish joiz yoki joiz emasligi haqida ulamolalar o'rtasida ixtilof bor. Bir guruh ulamolalar asosiy biznes faoliyati halol bo'lgan, ammo ayrim hollarda noshar'iy oldi-berdilar uchrab turadigan kompaniyalarning aksiyalari bilan umuman savdo qilish mumkin emas, degan fikrni aytadi. Ularning dalili shuki, kompaniya aksiyadori kompaniya egalaridan biri hisoblanadi, demak, u kompaniya faoliyatidagi sherikdir. Islom fiqhiga ko'ra, har bir sherik boshqa sheriklarning vakilidir. Shunday ekan, bunday kompaniyaning aksiyasini o'ylamay-netmay sotib olish kompaniya boshqaruvchilariga o'zlari lozim deb bilgan oldi-berdilarni amalga oshirishga ruxsat berish demakdir. Agar investorga kompaniya menejerlari baribir noshar'iy amaliyotlarga qo'l urishda davom etishi ma'lum bo'lsa, shunda ham investor shu kompaniyaning aksiyalarini o'zida ushlab turadigan bo'lsa, u ham ana shu noshar'iy amaliyotga ko'z yumganligi, rozi bo'lganligi tufayli bunga sherik bo'lib qoladi. Shuningdek, kompaniya bankdan foizli kredit jalb qilishi mablag'larni noshar'iy ish uchun yo'naltirish deganidir. Agar kompaniya bo'sh turgan mablag'larini foizli depozitga qo'ysa, undan olinadigan daromad aksiyadorga dividend orqali yetib boradi. Bunda ham aksiyadorning daromadlariga foizli mablag'lar aralashib qolishi mumkin.

Ammo zamonamizning aksariyat ulamolari bunday fikrda emaslar. Ularning fikriga ko'ra, aksiyadorlik kompaniyasi oddiy

shirkatdan farq qiladi. Aksiyadorlik kompaniyasida qarorlar ko'pchilik ovozga asosan qabul qilinadi. Masalan, aksiyadorlik kompaniyasi ma'lum bir loyihani amalga oshirmoqchi. Aksiyadorlarning 20 foizi bu loyihaga qarshi chiqdi, 10 foizi betaraf qoldi, 70 foizi loyihani qo'llab ovoz berdi. Ana shu 70 foizlik ovoz loyihani amalga oshirishga sabab bo'ladi. Oddiy shirkatda esa unday emas. Oddiy shirkatda har bir sherikning veto huquqi bo'ladi. Ya'ni biror ishga beshta sherik rozi bo'lsa-yu, oltinchisi qarshi chiqsa, shu ish amalga oshirilmaydi. Aksiyadorlik kompaniyasi millionlab aksiya chiqarishini, ularning minglab egalari bo'lishini inobatga olsak, aksiyadorlarning to'liq barchasi ma'lum masala yuzasidan yagona qarorga kelishi deyarli imkonsiz narsa. Shuning uchun u yerda ko'pchilik ovoz asosida qaror qabul qilinadi. Bunday hollarda aksiya egasi aksiyadorlarning umumiy majlisida biror-bir masalaga qarshiligini izhor etsa-yu, ammo ko'pchilik ovoz buni inobatga olmasa, o'sha aksiyador ayni masala yuzasidan javobgar bo'lmaydi, chunki u o'zining qarshi ekanligini bildirgan. Undan keyingi jarayon esa aksiyadorning ixtiyoridan tashqari sodir bo'lgan hisoblanadi [1: 213-b.].

Shunday qilib, agar kompaniya halol biznes yuritsa-yu, mablag'larini foizli hisobraqamda saqlasa, ushbu foizlardan keladigan daromad umumiy daromadning juda oz qismini tashkil qilsa, bu narsa kompaniyaning butun faoliyatini haromga chiqarmaydi. Endi shu turdagi kompaniyaning aksiyasini sotib olgan odam aksiyadan keladigan daromadning ayni o'sha foizli qismini o'ziga olmasa, u holda o'sha kishi foizli oldi-berdilar uchun javobgar bo'lmaydi.

Ayrim hollarda kompaniyalar moliyaviy muassasalardan kredit oladilar va ko'pincha bu foizli kredit shaklida bo'ladi. Bunda ham yuqoridagi qoidalar amal qiladi. Ya'ni aksiyador foizli kreditga shaxsan qarshi bo'lsa va buni izhor qilsa-yu, ammo ko'pchilik ovoz bilan uning fikri qabul qilinmasa, o'sha kredit amaliyoti uchun u javobgar bo'lmaydi.

Islom fiqhi nuqtai nazaridan, foizga qarz berish gunoh ish hisoblanadi. Ammo bu ish qarz oluvchining butun boshli biznes faoliyatini harom deb hukm chiqarilishiga sabab bo'lmaydi. Kredit amaliyoti taqiqlangani bilan, kreditga olingan buyumga harom deb hukm chiqarilmaydi. Shunday ekan, kredit amaliyoti uchun uni o'z xohishi bilan amalga oshirganlar javob beradi. Bu kredit esa kompaniyaning asosiy biznes faoliyati halolligiga ta'sir etmaydi.

**Aksiya savdosiga oid shartlar.** Yuqorida aytilgan munozaralar asosida shariat aksiyalar bilan savdo qilishda quyidagi shartlar bajarilishini talab qiladi:

1. Kompaniyaning asosiy operatsion faoliyati shariatga zid kelmasligi shart. Shunday ekan, foizli kredit va moliya xizmatlarini taqdim qiladigan moliyaviy muassasalar (*an'anaviy banklar, an'anaviy sug'urta kompaniyalari*) va cho'chqa go'shti, halol bo'lmagan go'sht mahsulotlari, mast qiluvchi ichimliklar ishlab chiqaradigan va sotadigan, qimor xizmatlari, tungi klublar, fahsh xizmatlar ko'rsatadigan kompaniyalarning aksiyalarini sotib olish va sotish aslo mumkin emas.

2. Agar kompaniyaning asosiy faoliyati avtomobilsozlik, tekstil kabi halol biznes bo'lsa-yu, ammo bo'sh turgan pul mablag'larini foizli depozitda saqlasa yoxud foizli kredit oladigan bo'lsa, aksiya egasi islom shiati tomonidan taqiqlangan bunday amaliyotlarga qarshiligini ochiq-oydin bildirishi, aksiyadorlar yig'ilishida qatnashgan taqdirda bunday oldi-berdilarga qarshi ovoz berishi zarur.

3. Agar kompaniya daromadlarining bir qismi foizli depozitlardan kelgan bo'lsa, aksiyador o'z dividendidan unga proporsional ulushni chiqarib tashlashi va ehson qilib yuborishi kerak. Bu ulushni o'zi ishlatmaydi, daromadlari tarkibiga kiritmaydi. Masalan, kompaniya umumiy daromadlarining 5 foizini depozitdan olingan foizli foyda tashkil qilsa, u holda aksiya egasi o'zining dividendidan 5 foizini xayriya uchun sarflashi zarur bo'ladi.

4. Kompaniya nolikvid aktivga ega bo'lsagina, kompaniyaning aksiyalari bilan savdo



qilish mumkin. Agar kompaniyaning barcha aktivlari likvid ko'rinishda bo'lsa, ya'ni puldan boshqa aktiv bo'lmasa, uning aksiyalarini nominal qiymatdan o'zgacha narxda sotish yoki sotib olish mumkin emas. Chunki bunday holatda 100 so'mlik aksiya 100 so'm pulnigina ifodalaydi – pul ayirboshlaganda esa har qanday ortiqchalik ribo bo'ladi.

Shu o'rinda yana bir masala o'rta qo'yiladi – kompaniya aksiyalari savdosi joiz bo'lishi uchun uning aktivlari tarkibida nolikvid aktivlarning ulushi eng kamida qancha bo'lishi kerak? Zamonamiz ulamolari ushbu masalaga turlicha yondashganlar. Ayrim olimlar aksiya savdosi joiz bo'lishi uchun kompaniyaning eng kamida 51 foiz aktiv nolikvid ko'rinishda bo'lishini shart qilganlar. Chunki 51 foiz degani aksariyat qism deganidir, aksariyat qism esa, fiqhiy qoidaga ko'ra, butunni ifodalaydi:

لِلْأَكْثَرِ حُكْمُ الْكُلِّ

*(Aksar qism butun sifatida qaraladi)*

Ayrim ulamolalar esa kompaniya aksiyalari savdo qilinishi uchun undagi nolikvid aktivlarning ulushi 33 foizdan ko'p bo'lishi kerakligini shart qilgan [4: 209-b.].

Uchinchi qarash esa hanafiylarga tegishli. Hanafiy fiqhiga ko'ra, kompaniya aktivlari tarkibida nolikvid aktivlarning ulushi qanday bo'lishidan qat'i nazar, uning aksiyalari bilan savdo qilish mumkin.

Faqat bunda ikkita shart bor:

Birinchisi, nolikvid aktivlarning ulushi e'tibor berilmaydigan darajada kichik bo'lmasligi kerak. Demak, ulush salmoqli bo'lishi lozim. Tushunish uchun, agar kompaniyaning aktivlari 1,0 mln AQSh dollari pul mablag'lari va 5,0 ming AQSh dollarilik jihozdan iborat bo'lsa, bunday holatda nolikvid aktiv (*jihoz*) umumiy aktivlarning judayam kam qismini tashkil qilmoqda. Bunday holatda ushbu kompaniyaning aksiyalari bilan savdo qilib bo'lmaydi.

Ikkinchisi, aksiyaning narxi uning zamirida yotgan likvid aktivning qiymatidan arzon bo'lishi mumkin emas. Misol uchun, kompaniyaning 75 foiz aktiv likvid (*pul*)

ko'rinishda bo'lsa, bu 100 so'mlik aksiya 75 so'm pul mablag'ini va 25 so'm nolikvid aktivni ifodalaydi, deganidir. Shu holatda agar aksiyaning narxi 105 so'm bo'lsa, uning 75 so'mi pulni ifodalaydi, qolgan qismi nolikvid aktivni ifodalaydi. Ya'ni 75 so'mdan ortgan qism mohiyatan nolikvid aktivning narxi hisoblanadi. Endi boshqa holatni ko'raylik. Xuddi shu aksiyaning narxi 70 so'mgacha tushib ketsa, bunday vaziyatda mazkur aksiyaning savdosi bilan shug'ullanish mumkin emas. Chunki aksiyaning zamirida o'zi 75 so'mlik pul mablag'i bor, uni 70 so'mga sotish ribo hisoblanadi. Bundan tashqari, aksiyaning narxi 75 so'm bo'lsa ham, bunday aksiyaning savdosi mumkin emas, chunki bunda nolikvid aktivning qiymati 0 ga tushib qolmoqda. Shunday ekan, aksiya narxida puldan tashqari nolikvid aktivning ham qiymati aks etishi zarur. Ammo amaliyotda bunday holat deyarli kuzatilmaydi, chunki hech kim nolikvid aktivni tekinga yoki zarariga sotishdan manfaatdor emas [4: 210-b.].

Yuqoridagi shartlarga amal qilgan holda islom iqtisodiyotida aksiyalar savdosiga ruxsat berilgan. Islom pay fondlari ham shu asosda tashkil etilishi mumkin. Pay fondiga pul kiritgan ishtirokchilar, shariatga ko'ra, o'zaro sherik hisoblanadilar. A'zolar tomonidan kiritilgan mablag'lar yig'ilib, biror kompaniyaning aksiyalarini xarid qilishga yo'naltiriladi. Foyda ikki xil usulda kelishi mumkin: dividend ko'rinishida yoki xarid qilingan aksiyani qimmatroqqa sotish orqali. Dividend ko'rinishida foyda olingan taqdirda o'sha foydaning ma'lum bir qismi xayriyaga yo'naltiriladi. Bu qism kompaniyaning foizli amaliyotlarini ifodalovchi qismdir. Dividenddan ana shu ulushni xayriyaga yo'naltirish "tozalash" deb ataladi.

Agar islom pay fondi tomonidan ko'rilgan foyda dividend shaklida emas, balki aksiyani qimmatroqqa sotish orqali olingan bo'lsa, unda ham "tozalash" jarayoni bo'lishi kerakmi yoki yo'qmi degan savolga zamonamiz olimlari turlicha fikr bildiradilar. Ayrim ulamolalar bunday foydadan ham ma'lum

bir qismni xayriyaga yo'naltirish zarur deb hisoblaydilar, chunki aksiya narxining zamirida yotgan aktivlarning tarkibida riboga bog'liq amaliyotdan shakllangan aktivlar mavjud bo'lishi mumkin. Boshqa fikrga ko'ra, aksiyani qimmatroqqa sotishdan olingan foydani "tozalash" shart emas. Chunki aksiya narxining o'zida foizni ifodalovchi aniq ko'rsatkich yo'q. Agar aksiya yuqorida sanab o'tilgan qoidalarga mos tushsa, demak, kompaniyaning asosiy aktivlari halol hisoblanadi va judayam kam ulushdagi aktivlarga foizli daromad hisobidan shakllangan bo'lishi mumkin. Ushbu judayam kam ulushni nafaqat o'lchashning iloji yo'q, balki u umumiy aktivlar ichida e'tiborga molik ham emas. Shuning uchun, aksiyaning narxi biz aytayotgan judayam kichik ulushdan shakllanmaydi, ushbu kichik ulush aksiya narxiga ta'sir ko'rsatmaydi. Ya'ni aksiyaning narxi to'liqligicha halol aktivlarning narxi hisoblanadi.

Ikkinchi fikrni olganlarning dalillari ham o'rinli bo'lsa-da, birinchi fikr unga qaraganda xavfsizroq va shubhadan xoliroqdir. Ayniqsa, ochiq pay fondlarida (*cheklanmagan miqdorda a'zolikka qabul qiladigan fondlar*) ikkinchi fikrdan foydalanish qo'l keladi. Chunki dividend ajratilmaguncha "tozalash" amaliyoti o'tkazilmaydi. Ana shu paytda kimdir o'z ulushini fondan qaytarib olsa-yu, boshqasi dividendlar ajratilib, "tozalash"lar o'tganidan keyin pulini olsa, ikkovining daromadlari farqli bo'lib qoladi, ya'ni ikkinchi odam kamroq pul oladi.

Aksincha, tozalash amaliyoti ham dividendlardan, ham narx oshishidagi foydadan olinsa, nafaqat shubhadan xoli bo'ladi, balki sheriklar o'rtasida daromadlar adolatli ravishda taqsimlangan bo'ladi. Ushbu tozalash amaliyoti kompaniyalarning o'rtacha foiz daromadini hisoblagan holda o'tkazilishi mumkin.

Fondni boshqarish ikki xil yo'l bilan bo'lishi mumkin. Birinchisi, fond menejerlari muzorib sifatida faoliyat olib boradi. Bu holatda olingan foydaning ma'lum bir ulushi fond menejerlariga ajratiladi. Agar

faoliyat natijasida zarar ko'rilsa, u holda fond menejerlari hech narsa olmaydi. Foyda qancha ko'p bo'lsa, fond menejerlariga ham shuncha ko'p pul tegadi.

Ikkinchi variant shuki, unda fond menejmenti investorlarning vakili sifatida faoliyat olib boradi. Bu holatda menejment o'z xizmatlari uchun avvaldan kelishilgan miqdorda qat'iy belgilangan haq oladi. Bu haq bir martalik, oylik, yillik to'lov yoki boshqa shaklda bo'lishi mumkin. Zamonamiz ulamolarining fikriga ko'ra, fond menejerlarining ish haqi ular boshqarayotgan aktivlarning sof qiymatiga nisbatan foizda ifodalanishi ham mumkin. Masalan, moliyaviy yil yakunida fond menejerlari aktivlarning sof qiymatidan 2 foiz miqdorda xizmat haqi olishlarini shartnomada kelishishlari mumkin.

Ta'kidlab o'tish joizki, fond menejmenti uchun qaysi yo'lning tanlanishini fond tuzilishidan oldin belgilab olish shart. Odatda, fond ta'sis etilishidan oldin fondning prospekt hujjatida menejmentning haqi qanday to'lanishi ko'rsatilgan bo'ladi. Shunday qilinsa, fondga sarmoya kiritayotgan investor bu haqda oldindan xabardor bo'ladi, o'ylab ko'radi va ma'qul kelsa, pul kiritadi. Natijada, fond boshqaruvchilari va investorlari o'rtasida o'zaro kelishuv hosil bo'lgan hisoblanadi.

**Ijara fondi.** Islom fondlarining yana bir turi ijara fondi hisoblanadi. Bunday fondlarda yig'ilgan mablag'lar ko'chmas mulklarni, mashina va uskunalarni va boshqa shu kabi asosiy vositalarni xarid qilishga yo'naltiradi, so'ngra xarid qilingan vositalar ijara beriladi. Ijarachilardan to'plangan mablag'lar fond a'zolari o'rtasida ulushlariga ko'ra taqsimlanadi.

Fondga a'zo bo'lgan sarmoyadonga maxsus a'zolik sertifikatini taqdim etilib, unda sarmoyadorning ulushi ko'rsatilgan bo'ladi. Ushbu sertifikatni "sukuk" deb ham nomlashadi. Sukuk o'z egasining ijara obyektidagi ulushini ifodalaydi, ya'ni uning zamirida likvid aktiv yo'q (*boshqacha aytganda, bunday sukuk pulni ifodalamaydi*).



Shunday ekan, bu aktivlarning savdosiga hech qanday taqiq yo'q va erkin narxda sotilishi mumkin. Shuningdek, bu qimmatli qog'oz bilan ikkilamchi bozorda ham savdo qilish mumkin. Sukuk ifodalaydigan mol-mulkdagi ulush sukukni sotib olgan odamga o'tadi. Sukuk narxi erkin ravishda bozor mexanizmlari asosida belgilanadi, ko'pincha u foydalilik darajasiga ko'ra narxlanadi.

Lekin ijara fondi uchun ham ma'lum shariat qonunlari mavjud bo'lib, an'anaviy lizing qoidalaridan farq qiladi. Quyida ularni qisqacha keltirib o'tamiz:

1. Ijaraga berilayotgan mol-mulkda usufruct (ijara haqi) bo'lishi kerak va bu ijara haqi ijarachiga o'tgan paytdan boshlab hisoblanadi.

2. Ijaraga olinadigan mol-mulk tabiatan halol maqsadda ishlatilishga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

3. Ijaraga berilgan mulkka egalik bo'yicha kelib chiqadigan javobgarlik mulk egasi (ijaraga beruvchi)da bo'ladi.

4. Ijara to'lovi qat'iy summada belgilanishi va shartnoma tuzilayotgan paytda ikkala tomonga aniq bo'lishi kerak.

Ijara fondi menejmenti sarmoyadorlarning vakili sifatida ishlashi mumkin. Bunda boshqaruvchilarning xizmat haqi quyidagi ikki yo'l bilan belgilanishi mumkin:

- Qat'iy belgilangan summada;
- Ijaradan tushgan tushumdan ma'lum ulush ko'rinishida.

Fond menejerlarining xizmat haqini muzoraba asosida belgilashga ko'pchilik ulamolar qarshi fikr bildirganlar. Ularga ko'ra, muzorabani faqat mahsulotlar savdosida qo'llasa bo'ladi, xizmatlar va lizing sohasida muzoraba yo'q. Ammo hanbaliy mazhabi ulamolari xizmatlar sohasida ham, lizingda ham muzorabadan foydalansa bo'ladi, degan fikrni aytganlar. Ushbu fikr ko'pchilik zamonaviy ulamolar tomonidan ham ma'qullangan.

**Mahsulot fondi.** Islom fondiga yana bir misol qilib mahsulot fondini keltirish mumkin. Bunda fond sarmoyadorlardan yig'ilgan pulga mahsulot xarid qilib, ularni

qayta sotish bilan shug'ullanadi. Savdodan olingan foyda esa sarmoyadorlar o'rtasida o'zlarining ulushlariga qarab taqsimlanadi. Fond faoliyati shariatga zid kelmasligi uchun bir qator qoidalarga amal qilish zarur bo'ladi:

1. Savdo moli kelishuv paytida sotuvchining mulkida bo'lishi kerak. An'anaviy birjalardagi "qisqa savdo" (*shortsales*) deb ataladigan oldi-berdi joiz emas, chunki unda sotuvchi hali o'zi ega bo'lmagan mahsulotni sotish bilan shug'ullanadi.

2. Salam va istisnodan boshqa forward (*kelajakka oid*) savdolar joiz emas.

3. Savdo moli halol bo'lishi kerak. Aroq, cho'chqa go'shti kabi harom qilingan narsalarning savdosi joiz emas.

4. Mahsulot sotuvchining konstruktiv tasarrufida bo'lishi kerak (*konstruktiv egalikda mahsulotga oid har qanday risk sotuvchining zimmasida bo'ladi*).

5. Mahsulotning narxi aniq belgilanishi va u ikki tomonga ham ma'lum bo'lishi kerak. Noma'lum narx yoki mavhum voqea-hodisaga bog'lab qo'yilgan savdo joiz emas.

Yuqoridagi va boshqa shu kabi shartlarni inobatga olgan holda aytish mumkinki, hozirgi an'anaviy birjalar, ayniqsa, fyuchers (*tovar yoki fond birjalarida xom ashyo tovarlari, oltin, valyuta, qimmatli qog'ozlarni hozirgi amalda bo'lgan narxlarda, lekin yetkazib berish va haqini keyingi kelishilgan muddatlarga qoldirish bilan oldi-sotdi qilish bo'yicha bitishuvlar. Bitishuv ijrosiga qadar xaridor kamroq kafolat summasini (zakalat) beradi. Aksariyat hollarda fyuchers bitimlari tovarni uzil-kesil xarid qilish yoki sotish maqsadlarida emas, balki kelgusi bitishuvlarga naqd tovarni g'amlash yoki tovarni keyinchalik qayta sotish hisobidan foyda olish maqsadlarida tuziladi. Hali ishlab chiqarilmagan tovarning namunalari bo'yicha oldi-sotdi bitishuvlarini ham fyuchers deb atash mumkin.*) bozorlari bu talablarga to'la javob bermaydi. Islom mahsulot fondlari bunday bozorlarga kirmasligi kerak. Agar shariat talablariga mos keluvchi oldi-berdilar mavjud bo'lsa, mahsulot fondini tashkil qilib, uning faoliyatini yuritish mumkin.

**Murobaha fondi.** Murobaha shunday savdoki, unda tannarx va ustama foyda har ikki tomonga ham aniq bo'ladi. Bunday savdo hozirgi kunda islom banklarining asosiy moliyalashtirish instrumentlaridan biriga aylangan. Banklar mahsulotni mijoz uchun xarid qiladi va uni mijozga qimmatroqqa nasiyaga sotadi. Agar fond murobaha faoliyati bilan shug'ullanish uchun tuziladigan bo'lsa, bu fond albatta yopiq fond (*closed-endfund*) bo'lishi kerak hamda uning qimmatli qog'ozlari ikkilamchi bozorda sotilmaydi. Sababi, murobahada moliyaviy muassasa mahsulotni mijozga nasiyaga sotadi, ya'ni xaridor muassasadan qarzdor bo'ladi. Shunday ekan, murobaha fondining qimmatli qog'ozlari zamirida mahsulot yoki mulk emas, balki qarz yotadi. Qarzni esa o'z qiymatidan ortiq yoki past bahoga sotish ribo hisoblanadi.

**Qarz savdosi.** Shu o'rinda bay ud-dayn deb nomlanuvchi qarz savdosiga islom iqtisodiyotida ruxsat berilganmi, degan savol tug'iladi. "Dayn" arabchada "qarz" degani, "bay" esa "savdo" degan ma'noni bildiradi. Agar bir kishining boshqadan oladigan qarzi bo'lsa (*ya'ni haqdor bo'lsa*) va uni chegirma asosida uchinchi shaxsga sotsa, bu oldi-berdi qarz savdosi deyiladi.

Misol: B tomonning A tomondan 1000 so'm qarzi bor (A – haqdor, B – qarzdor), A tomonga esa hozir naqd pul zarurligi tufayli o'zining B tomondagi 1000 so'mlik haqini uchinchi shaxs – C tomonga 900 so'mga sotib yubormoqchi. C tomon A tomonga 900 so'mni bergach, B tomondan vaqti kelib 1000 so'm qarzini undiradi. Bunday oldi-berdilar an'anaviy iqtisodiyotda ko'p ro'y beradi, zamonaviy tilda buni faktoring operatsiyalari deyishadi. Islom ulamolari bu kabi oldi-berdilar joiz emas, deb ittifoq qilishgan. Chunki bunda 1000 so'm 900 so'mga sotilmoqda va bu ribo hisoblanadi. Ayrim malayziyalik olimlar shofe'iy mazhabida qarz savdosiga ruxsat borligini asos qilib bunday savdoga ruxsat berishgan. Aytish kerakki, shofe'iy qarz savdosiga faqat bir shart bilan ruxsat berishgan, ya'ni qarz savdosi qarz qiymati bilan sotish qiymati teng

bo'lgandagina joiz. Soddarog tilda aytsak, 1000 so'mlik qarzni sotmoqchi bo'lgan odam faqat 1000 so'mga sotishi mumkin, undan ortiq ham, kam ham emas [1: 223-b.].

Haqiqatan, qarz savdosi man qilinishi xuddi ribo man qilinishing mantiqiy davomidir. Chunki olinadigan qarz moliyaviy jihatdan pulni ifodalaydi, pulni pulga almashtirganda esa biri ikkinchisidan ortiq bo'lmasligi shart. Agar orada farq yuzaga kelsa, bu ribo hisoblanadi.

Ayrimlar mahsulotni nasiyaga sotganda vujudga keladigan qarzni uchinchi shaxsga arzonroqqa sotish qarz savdosiga kirmaydi, chunki bunday qarzning zamirida pulmas, balki mahsulot yotibdi, demak, bunga mahsulot savdosidek qarash kerak, deyдилar. Ammo bu gapning quvvati yo'q. Chunki mahsulot sotilganda unga bog'liq barcha huquqlar xaridorga o'tadi, hattoki nasiyaga sotilgan bo'lsa ham. Sotuvchining o'sha mahsulotda hech qanday haqi qolmaydi. Sotuvchining haqi xaridordan olinadigan puldir, aslo mahsulot emas. Shunday ekan, bu qarzning savdosidir va shariat bunga ruxsat bermaydi.

Shunday qilib, qarz savdosining nojoizligiga deyarli barcha ulamolar ittifoq qilgan. Shariat ulamolaridan iborat eng obro'li muassasa hisoblangan, vakillari barcha musulmon mamlakatlaridan (*Malayziyada ham*) tashkil topgan Islom fiqhi akademiyasi qarz savdosining nojoizligiga bir ovozdan ittifoq qilgan.

**Aralash fond.** Islom fondlarining yana bir turi aralash fond bo'lib, u yuqorida sanab o'tilgan fond faoliyatlarining barchasi bilan shug'ullanadi: aksiya oldi-sotdisi, lizing, mahsulot savdosi va hokazo. Bunday fond aktivlarining kamida 51 foizi moddiy no-likvid aktivlar bo'lsa va ko'pi bilan 50 foiz aktivlari likvid aktiv va qarzlardan iborat bo'lsa, bunday fondning qimmatli qog'ozlari bilan savdo qilishga ruxsat beriladi. Agar likvid aktivlar va qarzlarning umumiy ulushi 50 foizdan ortib ketsa, aksariyat ulamolarning fikriga ko'ra, bunday fondning qimmatli qog'ozlari bilan savdo qilib bo'lmaydi. Bu holatda fond yopiq fond (*closed-endfund*) shaklida ishlashi kerak.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. A. Ravshanov, B. Abdurasulov. Islom iqtisodiyotida fiqhiy qoidalar. – Toshkent: Muharrir, 2020. – 247 b.
2. E. Baydaulet. Islomiy moliya asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 427 b.
3. M. Sultonboeva. Investitsiya fondlarining turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. – Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2016, № 3.
4. Muhammad Taqi Usmani. An Introduction to Islamic Finance. – Karachi, Pakistan: Darul-ulum-Karachi, 1998. – 246 b.
5. N. Batirova, B. Abdurasulov. Islom iqtisodiyotida aksiyalar savdosi. – Toshkent: Islom tafakkuri, 2020, № 3.



- ✓ [oliymahad.uz](http://oliymahad.uz)
- ✓ [t.me/oliymahad](https://t.me/oliymahad)
- ✓ [youtube.com/c/oliymahad](https://youtube.com/c/oliymahad)
- ✓ [facebook.com/oliymahad](https://facebook.com/oliymahad)
- ✓ [instagram.com/oliymahad](https://instagram.com/oliymahad)



Murojaat uchun:

**71 227 42 37**